



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

OLIY TA'LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISHNI TASHKIL ETISH BOSH ILMIY - METODIK
MARKAZI

TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI
UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH TARMOQ MARKAZI

ANTOPOSENTRIK TILSHUNOSLIK

moduli uchun

O'QUV-USLUBIY MAJMUA

Malaka oshirish

kursi yo'nalishi: O'zbek tili filologiyasi: o'zbek tilshunosligi

Toshkent – 2024

**Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining
2023-yil -- _____ dagi ____ -sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv
dasturi va o‘quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan.**

Tuzuvchilar:

Z. Xolmanova – filologiya fanlari

doktori, professor. ToshDO‘TAU

M. Hakimova – filologiya fanlari doktori,
professor. ToshDO‘TAU

Taqrizchilar:

D. Xudoyberanova – filologiya
fanlari doktori, professor.

B. Mengliyev – filologiya fanlari doktori,
professor

S. Normamatov – filologiya fanlari
doktori. ToshDO‘TAU

E. Ushenmez – filologiya fanlari
doktori, Turkiya Istanbul universiteti
professori

**Ushbu o‘quv-uslubiy majmua Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining qarori bilan nashrga
tavsiya qilingan.**

(2023-yil ____ dagi ____ -sonli bayonnomasi)

MUNDARJA

Bo‘limlar	Sahifa
ISHCHI O‘QUV DASTUR	4
MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI	15
NAZARIY MASHG‘ULOT MAZMUNI	28
AMALIY MASHG‘ULOT MAZMUNI	57
KEYSLAR BANKI	109
GLOSSARIY	111
ADABIYOTLAR RO‘YXATI	127
TAQRIZ	132

I. ISHCHI O'QUV DASTUR



KIRISH

Dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagи “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli, 2019-yil 27-avgustdagи “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzlusiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli, 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli, 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-sonli farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha choratadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli, 2020-yil 29-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi atamalar komissiyasining faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 40-sonli qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek, amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta’lim sohasi bo‘yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo‘yiladigan umumiyligi malaka talablari va o‘quv rejalarini asosida shakllantirilgan bo‘lib, uning mazmuni kredit modul tizimi va o‘quv jarayonini tashkil etish, ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish, maxsus maqsadlarga yo‘naltirilgan ingliz tili, mutaxassislik fanlar negizida ilmiy va amaliy tadqiqotlar, o‘quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari bo‘yicha so‘nggi yutuqlar, pedagogning kreativ

kompetentligini rivojlantirish, ta’lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta’lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, “blended learning”, “flipped classroom” texnologiyalarini amaliyatga keng qo’llash bo‘yicha tegishli bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish yo‘nalishining o‘ziga xos xususiyatlari hamda dolzarb masalalaridan kelib chiqqan holda dasturda tinglovchilarning mutaxassislik fanlar doirasidagi bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar takomillashtirilishi mumkin.

“Antroposentrik tilshunoslik” moduli oliy ta’lim professor-o‘qituvchilari malakasini oshirish tizimi talablari asosida tuzilgan. Mazkur modul o‘zbek tilshunosligi yo‘nalishi tinglovchilarini bugungi kunda jahoning qator tilshunosliklarida mustaqil ilmiy paradigma sifatida shakllanib ulgurgan, antroposentrik tilshunoslik yo‘nalishlari bilan tanishtiradi, tilshunoslikda qo‘lga kiritilgan eng so‘nggi yutuqlar, til hodisalarini inson omili bilan bog‘lab o‘rganish tamoyilining mohiyati, afzalliklari haqida ma’lumot beradi. Ma’lumki, o‘zbek tilshunosligining bugungi taraqqiyot bosqichida til tizimi va inson lisoniy faoliyati mexanizmini til egasi bo‘lgan shaxs, uning lisoniy ongi va tafakkuri, ruhiyati; nutqiy vaziyat, ijtimoiy muhit, xalq madaniyati kabi omillar bilan bog‘liqlikda o‘rganishga e’tibor kuchaymoqda. XX asr so‘ngida tilshunoslik ilmiy paradigmasiiga «til shaxsi» kategoriyasining kiritilishi bugungi kunda kognitiv lingvistika, psixolingvistika, lingvokulturologiya, sotsiolingvistika, pragmalingvistika, etnolingvistika kabi inson fenomeni muammolari bilan shug‘ullanuvchi lingvistik yo‘nalishlarning shakllanishiga olib keldi. Tilni o‘rganishga bu jihatdan yondashuv jahon tilshunosligida antroposentrizm g‘oyalarining keng yoyilishiga turtki berdi.

“Antroposentrik tilshunoslik” deb nomlangan mazkur modulda zamonaviy o‘zbek tilshunosligiga kirib kelgan antroposentrik tilshunoslikning lingvokulturologiya, kognitiv tilshunoslik, sotsiolingvistika, sotsiolingvistika, lingvopersonologiya yo‘nalishlari, ularning o‘rganish obyekti, tayanch

tushunchalari, dolzarb muammolari haqida ma'lumot berish ko'zda tutiladi.

Modulning maqsad va vazifalari

“Antroposentrik tilshunoslik” modulining maqsadi tinglovchilarga anroposentrik tilshunoslik va uning boshqa paradigmalardan farqi, ushbu paradigmaning shakllanishi, asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha nazariy ma'lumot berish va ularni til hodisalarini antroposentrik paradigma tamoyillari asosida tadqiq etishga o‘rgatishdan iborat.

“Antroposentrik tilshunoslik ” modulining vazifalari:

- tinglovchilarga antroposentrik tilshunoslikning yuzaga kelishi, o‘rganish obyekti, asosiy tushunchalari, yo‘nalishlari haqida ma'lumot berish;
- antoposentrik tilshunoslik yo‘nalishlarinining o‘rganish obyekti va predmeti, masalalari haqida ma'lumot berish;
- til va tafakkur, til va madaniyat, til va jamiyat munosabati masalalarini tahlil qilish;
- lisoniy va nutqiy hodisalarni antroposentrik tilshunoslik yo‘nalishlari tamoyillari asosida tahlil qilish malakasini shakllantirish.

Modul yuzasidan tinglovchilar bilim, ko‘nikma, malaka va kompetentliligi

darajasiga qo‘yiladigan talablar

“Antroposentrik tilshunoslik” modulini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida tinglovchi:

-tilni tadqiq etuvchi paradigmalar, ularning tavsifi va qiyosiy tahlili; tilshunoslikda antroposentrik paradigmaning shakllanishi va mohiyati; antroposentrik tilshunoslik yo‘nalishlari: kommunikativ tilshunoslik, kognitiv tilshunoslik, sotsiolingvistika, lingvokulturologiya, aksiolingvistika, psixolingvistika, lingvopersonologiyaning asosiy tushunchalari, tadqiqot yo‘llari, bu boradagi izlanishlar haqida nazariy **bilimga** ega bo‘lishi kerak; ilmiy paradigmalarni farqlash, til birliklarini antroposenrik paradigma asosida tavsiflash, til hodisalariga antroposentrik ilmiy paradigma tamoyillari asosida yondashish; lisoniy va nutqiy birliklarni kommunikativ, kognitiv, lingvokulturologik va

sotsiolingvistik aspektda o‘rganish; “lisoniy shaxs” tushunchasini farqlash **ko‘nikmalariga** ega bo‘lishi kerak; lisoniy va nutqiy hodisalarni lingvokulturologik, kognitiv, sotsiolingvistik aspektda tahlil qilish; lisoniy va nutqiy hodisalarni antroposentrik paradigma tamoyillari asosida baholash; kognitiv, lingvokulturologik, sotsiolingvistik aspektda tahlil qilish; lingvopersonologik tahlil tamoyillarini qo‘llash **malakalarini** egallashi lozim; modulni to‘liq o‘zlashtirish natijasida tinglovchilar til birliklarini lingvistik tahlil qilishning an’anaviy va yangicha usullarini farqlash, antroposentrik paradigma yo‘nalishlarining eng ilg‘or natijalarini pedagogik faoliyatda qo‘llash **kompetensiyasi** ega bo‘lishlari nazarda tutilgan.

Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar

“Antroposentrik tilshunoslik” moduli ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi. Kursni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, axborot texnologiyalari qo‘llanishi nazarda tutilgan:

- ma’ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida taqdimot va elektron-didaktik texnologiyalardan;
- amaliy mashg‘ulotlarda texnik vositalardan, test so‘rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, va boshqa interfaol ta’lim usullarini qo‘llash nazarda tutilgan.

Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi

“Antroposentrik tilshunoslik yo‘nalishlari” moduli o‘quv rejadagi birinchi blok va mutaxassislik fanlarining barcha sohalari bilan uzviy bog‘liq va pedagoglarning umumiy va maxsus fanlar bo‘yicha tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Modulning oliy ta’limdagi o‘rni

“Antroposentrik tilshunoslik” modulini o‘zlashtirish orqali tinglovchilar zamonaviy tilshunoslikning eng so‘nggi yutuqlari va yangi yo‘nalishlaridan

xabardor bo‘ladilar, jahon va o‘zbek tilshunosligida til hodisalarini yangicha yondashuv asosida tadqiq etish borasida olib borilayotgan ilg‘or tajribalar bilan tanishadilar, til birliklarini inson omili bilan bog‘liq holda tahlil qilishga, antroposentrik tilshunoslik tahlil usullari va tahlil natijalarini pedagogik faoliyatda qo‘llash kompetensiyasiga ega bo‘ladilar.

Modul bo‘yicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Auditoriya o‘quv yuklamasi		
		Jumlada n:	Nazariy	Amaliy
		Jami		
1.	Tilshunoslikdagi ilmiy paradigmalar.	2	2	
2.	Kognitiv tilshunoslik masalalari.	2	2	
3.	Sotsiolingvistika va uning asosiy tushunchalari	2		2
4.	Kommunikativ tilshunoslik.	4	2	2
5.	Psixolingvistika – nutqiy faoliyat haqidagi fan.	2		2
6.	Lingvokulturologiya: til va madaniyat.	2		2
	Jami:	14	6	8

NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu. Tilshunoslikdagi ilmiy paradigmalar

Ilmiy paradigma. Tilshunoslikning asosiy ilmiy paradigmalari. Qiyosiytarixiy tilshunoslik va uning tavsifi. Sistem-struktur tilshunoslik tavsifi. Antroposentrik tilshunoslikning vujudga kelishi. Antroposentrik tilshunoslik va o‘zbek tilshunosligi.

Tilga antroposentrik yondashuvning mohiyati. Antroposentrik tilshunoslikning vujudga kelishi, o‘rganish obekti, asosiy tushunchalari.

Antroposentrik tilshunoslik yo‘nalishlari. Til va tafakkur, til va madaniyat, til va jamiyat munosabati masalalari tahlili. Antroposentrik paradigmaning shakllanishi til egasi – so‘zlovchi shaxs omilini tadqiq etish bilan bog‘liqligi. Antroposentrizm – yunoncha antropos “odam” hamda lotincha centrum – “markaz” ma’nosini bildiruvchi so‘zlar birikuvidan hosil bo‘lgan termin. Antroposentrizm ildizlarining V.fon Gumboldt hamda L.Vaysgerberning nazariy qarashlaridan oziqlanishi. Antroposentrizmning qadimgi yunon falsafasidagi “Inson – koinot markazidir” degan qarashga munosabati. Tilni immanent tarzda tadqiq etish.

2-mavzu. Kognitiv tilshunoslik masalalari

Kognitiv tilshunoslik – antroposentrik tilshunoslikning yetakchi yo‘nalishi sifatida. Dunyonи bilish va idrok etish. Kognitiv tilshunoslik –kognitologiya va tilshunoslik integratsiyasi asosida yuzaga kelgan soha. Kognitiv tilshunoslik, uning asosiy tushunchalari. “Konsept” tushunchasining fanga kirib kelishi kognitiv tilshunoslik bilan bog‘liqligi. Konsept–tafakkur birligi. Konsept va uning turlari. Konseptlarning shakllanish omillari. Konseptual tizim birliklari: freym, skript, ssenariy, geshtalt.

Freym – insonning boshqa axborotlarni idrok etishi, qabul qilishi uchun zarur bo‘lgan bilimlar zahirasi. Har bir shaxs ongidagi freymlar to‘plamining mavjud

bilim va yangi ma'lumolarni idrok etish jarayonini ta'minlashi. Skript (ingl. script) – «qo'lyozma, yozuv» ma'nosidagi so'z. Skript –konseptual tuzilma, voqelikning inson tafakkurida aks etayotgan me'yoriy ketma-ketligi.

«Geshtalt» olmoncha gestalt (obraz, struktura, yaxlit shakl) so'zidan olingan bo'lib, ruhiy tuzilmalar, obrazlarning o'ziga xos yaxlitlikni ta'minlovchi belgi va xususiyatlari umumlashmasi.

Konseptual tahlil asoslari. Kognitiv tilshunoslik masalalarida semantika, psixolingvistika, etnolingvistika, pragmalingvistika, lingvokulturologiyaga oid bilimlarning zarurligi.

3-mavzu. Kommunikativ tilshunoslik masalalari

Kommunikativ lingvistikating asosiy masalalari. “Kommunikativ lingvistika” ning XX asrning ikkinchi yarmida AQSh hamda Yevropada shakllanishi va rivojlanishi. Kommunikativ lingvistika – til birliklarining muayyan sotsial vaziyatlarda va shaxslararo munosabatda, muayyan motivlar, maqsad bilan qo'llanishiga asoslangan muloqot jarayoni.

Kommunikativ lingvistika yo'nalishlari: protsessual semantika, kommunikativ sintaksis, matn lingvistikasi, pragmalingvistika, muloqot xulqi nazariyasi, nutqiy janrlar nazariyasi, madaniyatlararo muloqot nazariyasi, paralingvistika, psixolingvistika, sotsiolingvistika.

Diskurs va diskursiv faoliyat. Diskurs – pragmatik vaziyat, ijtimoiy-madaniy omil, ruhiy holat bilan bog'liq nolisoniy omillar bilan birgalikda namoyon bo'ladigan matn; jarayonda amalga oshgan matn; maqsadli ijtimoiy harakat sifatida qaraladigan nutq. Diskursiv faoliyat – nutq yaratish va uni idrok etish.

Matn lingvistikasi. Matn – tilning eng katta birligi sifatida. Matn va uning ta'rifi. Matn – muayyan tizim asosida tuzilgan, o'ziga xos semantikaga ega bo'lgan, tugallangan nutqiy faoliyat mahsuli. Matn birliklari. Matn tiplari. Matn mazmuni va matn ma'nosи tushunchalari.

Matnning tarkibiy qismlari: a) ifoda qobig‘i, b) matn semantikasi; v) matn grammatikasi.

AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu. Sotsiolingvistika va uning asosiy tushunchalari.

Sotsiolingvistikada savodxonlik muammosi. Til siyosati va lisoniy vaziyatlar. O‘zbekistonidagi til siyosatini davrlashtirish. Mustaqillik davridagi til siyosati.

Sotsiolingvistika – tilning jamiyat hayotidagi o‘rni, ijtimoiy tabiat, ijtimoiy funksiyalari, ijtimoiy omillarning tilga bo‘lgan ta’sir mexanizmi masalalarini o‘rganadigan tilshunoslik sohasi. Ijtimoiy sharoitlar: mazkur tildan foydalananayotgan kishilar jamiyat, bu jamiyatning ijtimoiy strukturasi, til egalarining yoshi, ijtimoiy mavqeyi, madaniyat va bilim darajasi, yashash joyi orasidagi farqlar, shuningdek, ularning muloqot vaziyatiga bog‘liq bo‘lgan nutqiy muomalasidagi farqlar.

Sotsiolingvistikaning ko‘rinishlari. turlari. Lisoniy hamjamiyat. Variativlik. Diglossiya. Bilingvizm. Interferensiya.

Sotsiolingvistikaga oid metodlar.

2-mavzu. Nutqiy akt nazariyasi

Nutqiy akt – individual nutqiy jarayon. Nutqiy akt ko‘rinishlari. Lokutiv akt – so‘zlash akti. Illokutiv akt – biror ifodani ma'lum kommunikativ maqsad bilan ifodalash. Perlokutiv akt – so‘zlovchining tinglovchiga nutqiy ta’sir ko‘rsatish akti.

Madaniyatlararo muloqot. Madaniyatlararo muloqot – nutq sohiblarining madaniy belgilari farqi orqali namoyon bo‘ladigan muloqot ko‘rinishi sifatida. Madaniyatlararo muloqotning lingvistik antropologiya, sotsiologiya, kognitiv lingvistika, kommunikatsiya nazariyasi, sotsial psixologiya, etnolingvistika yutuqlariga asoslanishi.

Paralingvistika. Paralingvistika – tilning verbal va noverbal vositalarini aloqadorlikda o‘rganuvchi soha sifatida. Nutqning noverbal vostalari: fonatsion, kinetik, grafik vositalar.

Lingvopersonologiya, uning asosiy tushunchalari. Badiiy matnni antpoposentrik tahlili. Lingvistik personologiya XXI asr tilshunosligining yangi yo‘nalishi sifatida shakllanish bosqichidadir. Shu bois mazkur yo‘nalishda o‘rganiladigan *lisoniy shaxs* muammosini tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari, tahlil usullarini ishlab chiqish nihoyasiga yetgan deb bo‘lmaydi.

3-mavzu. Psixolingvistika – nutqiy faoliyat haqidagi fan

Psixolingvistika fanining obyekti – u o‘rganadigan individual obyektlar majmuyidan iborat. Psixolingvistika omillari. Nutq mexanizmi. Nutqning shakllanishi va rivojlanishi. Nutq turlari tavsifi.

Shaxs muloqot xulqi va uning nutqiy shakllari, shaxs muloqot xulqi tahliliga oid yondashuvlar. “Kod”, “signal”, “ma’lumot”, “kodlash”, “dekodlash” tushunchalari. Bixevoirizm, neobixevoirizm, inson psixikasining ijtimoiyligi. Tafakkur va nutq, ong tuzilishining tizimliligi, Nutq modellari.

Nutq patologiyasi va uning asosiy ko‘rinishlari. Afaziya hodisasi, alaliya hodisasi.

Psixolingvistika metodlari

Matnning psixolingvistik tahlili. Muallif va retsipient munosabatini aniqlash. Psixolingvistik eksperimentlarni ishlab chiqish.

4-mavzu: Lingvokulturologiya: til va madaniyat

Lingvokulturologiya va uning tadqiqot obyekti va predmeti. Lingvokulturologiya, uning asosiy tushunchalari. Til va madaniyat tushunchasi. Muqobilsiz leksika va lakunalar. Lakuna va uning turlari. Ichki lakuna va tashqi lakuna. Mifologiyalashtirilgan til birliklari. Realiya tushunchasi. Ekzotik leksika.

Leksemalarda milliy-madaniy belgilarning ifodalaniishi.

Tilning paremiologik fondi. Tilning frazeologik fondi. Frazemalar etimologiyasi. Frazemalarda milliy-madaniy belgilar ifodasi. Maqollarning lingvokulurologik xususiyatlari.

O‘xshatishlar, stereotiplar, ramzlar. Tildagi metaforalari va timsollar.

O‘QITISH SHAKLLARI

Ushbu modul bo‘yicha quyidagi o‘qitish shakllaridan foydalaniladi:

- masofadan o‘qitish;
- ma’ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar (ta’lim texnologiyalarini anglab olish, nazariy bilimlarni amaliyatga qo’llash);
- suhabatlar orqali tinglovchida muayyan muammoga munosabat bildirish qobiliyatini shakllantirish, unda til ta’limiga doir masalani eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish xususiyatini qaror topdirish;

II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI



“SWOT-tahlil” metodi.

Metodning maqsadi: tilshunoslik paradigmalari yuzasidan mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo‘llarini topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil fikrlashni, tahlil qilishni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

S (strength)	- afzal jihatlar
W (weakness)	- cheklangan jihatlar
O (opportunity)	- imkoniyatlar
T (threat)	- to‘siqlar

Namuna: Lingvokulturologiya bo‘yicha “**swot-tahlil**” imkoniyatlarini jadvalga tushiring.

S	Tilni qadriyat sifatida o‘rganishning afzalligi.	Til birliklari xalq hayotining harakatdagи ishtirokchisi bo‘lib, ko‘p mimg yillik milliy-madaniy bilimlarni aks ettiradi.
W	Aksariyat bilimlar til birliklarini lungvistik nuqtayi nazardan o‘rganishga yo‘naltirilgan.	Til birliklarini faqat lingvistik nuqtayi nazardan o‘rganishda xalq qadriyatları va bahosini to‘liq ifodalash imkonii bo‘lmaydi.
O	Lingvistik birliklarning konsept asosidagi tahlili til sohibining idroki, lisoniy ongi, voqelikka munosabatini ifoda etadi.	Konsept asosidagi tahlilda tushuncha+ uning lingvistik ifodasi+bahoni aniqlash imkoniyati yuzaga keladi.
T	To‘siqlar (tashqi).	Konsept va uning turlari bo‘yicha tinglovchilarning nazariy bilimlari yetishmasligi.

“Xulosalash” (Rezyume, Veer) metodi

Metodning maqsadi: Bu metod antroposentrik tilshunoslikning murakkab, ko‘ptarmoqli, muammoli xarakterdagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan.

Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, kognitiv, lingvokulturologik, psixolingvistik, aksiolingvitik konseptlarning umumiyligi va farqli jihatlari, afzal hamda cheklangan tomonlari o‘rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda tinglovchilarning mustaqil g‘oyalari, fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “Xulosalash” metodidan ma’ruza mashg‘ulotlarida individual va juftliklarda ishlash tartibida, amaliy va ko‘chma mashg‘ulotlarda kichik guruuhlar shaklida bilimlarni mustahkamlash, tahlil qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

Metodni amalga oshirish tartibi:



trener-o‘qituvchi ishtirokchilarni 5-6 kishidan iborat kichik guruuhlarga ajratadi;



trening maqsadi, shartlari va tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirgach, har bir guruuhga umumiyligi muammoni tahlil qilinishi zarur bo‘lgan qismlari tushirilgan tarqatma materiallar tarqatadi;



har bir guruuh o‘ziga berilgan muammoni atroflicha tahlil qilib, o‘z mulohazalarini tavsiya etilayotgan sxema bo‘yicha tarqatmaga yozma bayon qiladi;



navbatdagi bosqichda barcha guruuhlar o‘z taqdimotlarini o‘tkazadilar. Shundan so‘ng, trener tomonidan tahlillar umumlashtiriladi, zaruriy axborotlar bilan to‘ldiriladi va mavzu yakunlanadi.

Konsept turlari					
Kognitiv konsept		Psixolingvistik konsept		Lingvokulturologik va aksiolingvistik konsepr	
Umumiy belgilari	O‘ziga xos belgilari	Umumiy belgilari	O‘ziga xos belgilari	Umumiy belgilari	O‘ziga xos belgilari
Xulosa:					

“Keys-studi” metodi

“Keys-stadi” – inglizcha so‘z bo‘lib (“case” – aniq vaziyat, hodisa, “stadi” – o‘rganmoq, tahlil qilmoq), aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Keysda antroposentrik tushunchalardan yoki aniq voqeа-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qayerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Faoliyat bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni

1-bosqich: Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka tartibdagi audiovizual harakat; ✓ lingvokulturologiyaga oid turli madaniyat vakillari videomuloqoti bilan tanishish; ✓ videomuloqot mavzusini aniqlash; ✓ verbal muloqot va noverbal vositalar tahlili; ✓ muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o'quv topshirig'ni belgilash	<ul style="list-style-type: none"> ✓ videomuloqotdagi gul sovg'a qilish va uni qabul qilish bilan bog'liq jarayonni izohlash; ✓ tushunish bilan bog'liq tafovutlarni aniqlash; ✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash.
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o'quv topshirig'ining yechimini izlash, hal etish yo'llarini ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muqobil yechim yo'llarini ishlab chiqish; ✓ har bir yechimning imkoniyatlari va to'siqlarni tahlil qilish; ✓ muqobil yechimlarni tanlash
4-bosqich: Keys yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka va guruhda ishlash; ✓ muqobil variantlarni amalda qo'llash imkoniyatlarini asoslash; ✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; ✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish

Keys. Kichikroq badiiy matn va uning tarjimasi tahlili uchun ko'rsatkich ishlab chiqiladi, realiyalar tarjimasi bilan bog'liq muammolar aniqlanadi, sabablari ko'rrsatiladi, turli yechim variantlari taklif etiladi.

Keysni bajarish bosqichlari va topshiriqlari:

- Videokeysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang (individual va kichik guruhda).

- Muammoni hal qilish ketma-ketligini belgilang (juftliklardagi ish).

“FSMU” metodi

Texnologiyaning maqsadi: Mazkur texnologiya tinglovchilardagi umumiyl fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o‘zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma’ruza mashg‘ulotlarida, mavzuni mustahkamlashda, topshiriqlar berishda hamda amaliy mashg‘ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish mumkin.

Texnologiyani amalga oshirish tartibi:

- qatnashchilarga mavzuga oid bo‘lgan yakuniy xulosa yoki g‘oya taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog‘ozlarni tarqatiladi;
- ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhiy tartibda taqdimot qilinadi.

F	- fikringizni bayon eting
S	- fikringizni bayoniga sabab ko‘rsating
M	- ko‘rsatgan sababingizni isbotlab misol keltiring
U	- fikringizni umumlashtiring

FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishiga asos bo‘ladi.

Namuna:

Fikr: “Savodxonlik darajasini oshirish uchun qonunlar, qoidalarning o‘zi yetarli emas”.

Topshiriq: Mazkur fikrga nisbatan munosabatingizni FSMU orqali tahlil qiling.

“Assesment” metodi

Metodning maqsadi: Mazkur metod tinglovchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o‘zlashtirish ko‘rsatkichi va amaliy ko‘nikmalarini tekshirishga yo‘naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta’lim tinglovchilarning bilish faoliyati turli yo‘nalishlar (test, amaliy ko‘nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo‘yicha tashxis qilinadi va baholanadi.

Metodni amalga oshirish tartibi: “Assesment”lardan ma’ruza mashg‘ulotlarida tinglovchilarning mavjud bilim darajasini o‘rganishda, yangi ma’lumotlarni bayon qilishda, amaliy mashg‘ulotlarda esa mavzu yoki ma’lumotlarni o‘zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o‘z-o‘zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, tinglovchining ijodiy yondashuvi hamda o‘quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo‘srimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

Namuna:

Har bir katakdagi to‘g‘ri javob 5 ball yoki 1-5 balgacha baholanishi mumkin.



Umumiy kommunikatsiya Nutqiy faoliyatning jarayonida tanlab olingan noverbal vositalari – va mustahkamlangan til jestlar, mimikalar, to‘xtam, sistemasining turg‘un ohang ham ... hosil qiladi?

an'anaviy realizatsiyalari deyiladi? A. Nutqiy vaziyatni majmuyi nima

A. Lisoniy me’yor C. Afaziyanı

B. Nutqiy me’yor D. Spontan nutqni

C. Afaziya

D. Adabiyy me’yor



A. Nutqiy vaziyatni majmuyi nima

B. Nutqiy xulqni



Miya nutq zonasining “Yozma nutq og‘zaki nutq zararlanishi va buning bilan chambarchas bog‘ligi, hatijasida nutqiy lekin yozma nutq bosib faoliyatning buzilishi o‘tgan yo‘l og‘zaki nutq masalasi



qaysi tarixida kuzatilmaydi?” mutafakkirlar asarlarida fikrlari kimga tegishli? qayd etilgan? A. L. Vigotskiy

- A. Ibn Sino, Beruniy
- B. Ibn Sino, Farobiy
- C. Beruniy
- D. Ibn Sino, Zamaxshariy

- B. A.R.Luriya
- C. I. A. Boduen de Kurtene
- D. Balonov-Deglin

“Tushunchalar tahlili” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod tinglovchilarni mavzu bo‘yicha tayanch tushunchalarni o‘zlashtirish darajasini aniqlash, o‘z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu bo‘yicha bilimlar darajasini tashxis qilish maqsadida qo‘llanadi. Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar mashg‘ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- tinglovchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo‘lgan so‘zlar, tushunchalar nomi aks etgan tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda);
- tinglovchilar mazkur tushunchalar qanday ma’no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo‘llanishi haqida yozma ma’lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga yetgach, professor-o‘qituvchi berilgan tushunchalarning to‘g‘ri va to‘liq izohini o‘qib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- har bir ishtirokchi berilgan to‘gri javoblar bilan o‘zining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o‘z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

Namuna:

“Moduldagi tayanch tushunchalar tahlili”

Tushunchalar	Sizningcha bu tushuncha qanday ma’noni anglatadi?	Qo‘srimcha ma’lumot
--------------	---	---------------------

Antroposentirizm	(grek. <i>anthropos</i> - odam + lot. <i>sentrum</i> - markaz). Tilshunoslikda: tilga inson omili nuqtai nazaridan yondashish	
Kognitiv tilshunoslik	(lot. <i>cognitio</i> – bilim) Til birliklarining axborotni qayta ishlashdagi rolini nutq yaratilishi va idrok etilishi nuqtayi nazaridan o‘rganuvchi fanlararo soha.	
Konsept	U yoki bu xalq madaniyatining o‘ziga xos jihatlarini ifodalaydigan lingvomadaniy birlik.	
Koyne	aholi turli guruqlarining ijtimoiy va lisoniy aloqalari jarayonida shakllangan dialektlararo og‘zaki muloqot vositasi.	
Sotsiolekt	umumiy ijtimoiy xususiyatlariga ko‘ra birlashgan ayrim guruhlarning lisoniy ehtiyojlarini qondirish uchun nutq amaliyotida ishlab chiqilgan til shakli.	
Diglossiya	bir milliy tilning turli subkodlarida gapira olish, sharoit va muloqot doirasiga bog‘liq holda, tilning bir subkodidan ikkinchi bir subkodiga ko‘chish, bir til doirasidagi turli uslublardan foydalana olish.	
Lingvopersonologiya	Til sohibi xususiyatlarining nutqida aks etishini, har bir so‘zlovchining alohida lisoniy shaxs ekanligini tadqiq etadigan soha.	

Izoh: Ikkinchi ustundaga tinglovchilar tomonidan fikr bildiriladi. Mazkur tushunchalar haqida qo'shimcha ma'lumot glossariyda keltirilgan.

"Venn diagrammasi" metodi


Metodning maqsadi: Bu metod grafik tasvir orqali o'qitishni tashkil etish shakli bo'lib, u ikkita o'zaro kesishgan aylana tasviri orqali ifodalanadi. Mazkur metod turli tushunchalar, asoslar, tasavvurlarning analiz va sintezini ikki aspekt orqali ko'rib chiqish, ularning umumiyligi va farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash imkonini beradi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- tinglovchilar ikki kishidan iborat juftliklarga birlashtiriladi va ularga ko'rib chiqilayotgan tushuncha yoki asosning o'ziga xos, farqli jihatlarini (yoki aksi) doiralar ichiga yozib chiqish taklif etiladi;
- navbatdagi bosqichda tinglovchilar to'rt kishidan iborat kichik guruhlarga birlashtiriladi va har bir juftlik o'z tahlili bilan guruh a'zolarini tanishtiradilar;
- juftliklarning tahlili eshitilgach, ular birgalashib, ko'rib chiqilayotgan muammo yohud tushunchalarning umumiyligi jihatlarini (yoki farqli) izlab topadilar, umumlashtiradilar va doirachalarning kesishgan qismiga yozadilar.

Namuna:

Sotsiolingvistikadagi sotsiolekt tushunchalarini farqlang.



“Blis-o‘yin” metodi


Metodning maqsadi: tinglovchilarda tezlik, axborotlar tizmini tahlil qilish, rejalahtirish, prognozlash ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Mazkur metodni baholash va mustahkamlash maqsadida qo‘llash samarali natijalarni beradi.

Metodni amalga oshirish bosqichlari:

1. Dastlab ishtirokchilarga belgilangan mavzu yuzasidan tayyorlangan topshiriq, ya’ni tarqatma materiallar alohida-alohida beriladi va ulardan materialni sinchiklab o‘rganish talab etiladi. Shundan so‘ng, ishtirokchilarga to‘g‘ri javoblarni tarqatmadagi “individual baho” kolonkasiga belgilash kerakligi tushuntiriladi. Bu bosqichda vazifa yakka tartibda bajariladi.
2. Navbatdagi bosqichda trener-o‘qituvchi ishtirokchilarga uch kishidan iborat kichik guruhlarni birlashtiradi va guruh a’zolarini o‘z fikrlari bilan guruhdoshlarini tanishtirib, bahslashib, bir-biriga ta’sir o‘tkazib, o‘z fikrlariga ishontirish, kelishgan holda bir to‘xtamga kelib, javoblarini “guruh bahosi” bo‘limiga raqamlar bilan belgilab chiqishni topshiradi. Bu vazifa uchun 15 daqiqa vaqt beriladi.
3. Barcha kichik guruhlar o‘z ishlarini tugatgach, to‘g‘ri harakatlar ketmакetligi trener-o‘qituvchi tomonidan o‘qib eshittiriladi, va tinglovchilardan bu javoblarni “to‘g‘ri javob” bo‘limiga yozish so‘raladi.
4. “To‘g‘ri javob” bo‘limida berilgan raqamlardan “individual baho” bo‘limida berilgan raqamlar taqqoslanib, farq bo‘lsa “0”, mos kelsa “1” ball qo‘yish so‘raladi. Shundan so‘ng “yakka xato” bo‘limidagi farqlar yuqoridan pastga qarab qo‘shib chiqilib, umumiy yig‘indi hisoblanadi.
5. Xuddi shu tartibda “to‘g‘ri javob” va “guruh bahosi” o‘rtasidagi farq chiqariladi va ballar “guruh xatosi” bo‘limiga yozilib, yuqoridan pastga qarab qo‘shiladi va umumiy yig‘indi keltirib chiqariladi.
6. Trener-o‘qituvchi yakka va guruh xatolarini to‘plangan umumiy yig‘indi bo‘yicha alohida-alohida sharhlab beradi.
7. Ishtirokchilarning olgan baholariga qarab, mavzu bo‘yicha o‘zlashtirish darajalari aniqlanadi.

Struktural tahlil ketma-ketligini aniqlash. O‘zingizni tekshirib ko‘ring!

Harakatlar mazmuni	Individual baho	Individual xato	To‘g‘ri javob	Guruh bahosi	Guruh xatosi
Matnning tashqi strukturasi					
Matnning ichki qurilishi					
Matnni asliyat tilida o‘qish					
Matnni o‘z tilida o‘qib tushunish (lug‘at va izoh)					
Matn mazmunining tarjimadagi talqini					
Qismlarga ajratilib tahlil qilingan matnning mantiqiy butunligi					



Grafik organayzer tinglovchilar tomonidan o‘zlashtirilgan o‘zaro yaqin nazariy bilim, ma’lumot yoki dalillarni qiyosiy tahlil etishga yordam beradi. Undan muayyan bo‘lim yoki boblar bo‘yich yakuniy darslarni tashkil etishda foydalanish yanada samaralidir.

Uni qo‘llash bosqichlari quyidagilardan iborat:

-
- 1 • Tinglovchilar ikki guruhga bo‘linadi.
 - 2 • Yozuv taxtasiga topshiriqni bajarish mohiyatini aks ettiruvchi sxema chiziladi.
 - 3 • Har bir guruhga o‘zlashtirilayotgan mavzu (bo‘lim, bob) yuzasidan alohida topshiriq beriladi.
 - 4 • Topshiriqlar bajarilgach, guruh a'zolari orasidan liderlar tanlanadi.
 - 5 • Liderlar guruh a'zolari tomonidan bildirilgan fikrlarni umumlashtirib, yozuv taxtasida aks etgan diagrammani to‘ldiradi

III. NAZARIY MASHG'ULOT MAZMUNI



1-mavzu

TILSHUNOSLIKDAGI ILMIY PARADIGMALAR

Reja:

1. *Qiyosiy-tarixiy, sistem-struktur paradigma.*
2. *Antroposentrik paradigmaning shakllanishi.*
3. *Antroposentrik paradigmaning asosiy yo‘nalishlari*

Tayanch tushunchalar: *paradigma, ilmiy paradigma, qiyosiy-tarixiy paradigma, sistem-struktur paradigma, antroposentrik paradigma, lingvistik semantika, til sohibi, immanentlik, lisoniy ong, shaxs omili*

“Paradigma” tushunchasi. Ilmiy paradigma (yunoncha “misol, namuna”) fan obyektini, uning muayyan davrda hokim bo‘lgan nazariy tushunchalarini o‘rganishga yo‘naltirilgan va shu asosda fanning turli bo‘limlarida o‘xshash bo‘lgan, o‘zaro bog‘langan muayyan tadqiqot metodikalarining majmuyidir. Ilmiy metodologiya va ilmiy metodlardan farqli o‘laroq, aniq tarixiy xususiyatga va ijtimoiy-madaniy tarqalish chegarasiga ega. Mazkur termin 1962-yilda amerikalik faylasuf va tarixchi T. Kunning mashhur “Ilmiy inqiloblar strukturasi” asarida muomalaga kiritilgan.

T. Kunga ko‘ra paradigma o‘z tadqiqot faoliyatiga va obyektiga ega bo‘lgan, mushtarak ilmiy va falsafiy g‘oyalar bilan birlashgan u yoki bu ilmiy yoki falsafiy hamjamiyatlar tomonidan qo‘llaniladigan o‘ziga xos metodlar va usullar yig‘indisidir. Masalan, XIX va XX asrlarning paradigmalari qiyoslanilganda, XIX asrni tarixiylik, XX asrni esa strukturalizm belgisi ostida kechganligini ko‘rish mumkin. T. Kun paradigmalarning bunday o‘zgarishini “ilmiy inqilob”, deb ataydi. Binobarin, ilmiy paradigma falsafa, fan, san’at, adabiyot, ijtimoiy hayot va

h.k.ning yetakchi tamoyillari va metodlarini birlashtirgan umummadaniy paradigmaning bir qismi hisoblanadi. Masalan, strukturalizmning ilmiy paradigmasi pozitivizmning madaniy paradigmasinga kiradi¹.

Ma'lumki, lingvistikada (umuman, ijtimoyi fanlarda) paradigmalar bir-birini o'zgartirmaydi, biroq biri boshqasini to'ldiradi, ayni paytda biri ikkinchisiga e'tibor bermagan holda birga yashaydi. An'anaviy tarzda ilmiy paradigma uch turga ajratiladi: qiyosiy-tarixiy, sistem-struktur va antroposentrik.

Tilshunoslikda ilk ilmiy paradigma qiyosiy-tarixiy paradigma sanaladi. Chunonchi, qiyosiy-tarixiy metod til tadqiqining dastlabki xususiy metodi bo'lgan.

Sistem-struktur paradigmada asosiy e'tibor predmetga, narsaga, otga qaratilgani uchun so'z diqqat markazida bo'lgan. Hozir ham tilni sistem-struktur paradigma doirasida tadqiq qilish davom etmoqda. Bu paradigma tarafdarlarining soni ham talaygina. Hali ham mazkur paradigma asosida darsliklar, akademik grammatikalar yozilmoqda. Shubhasiz, sistem-struktur paradigma doirasida amalga oshirilgan fundamental tadqiqotlar nafaqat hozirgi, balki kelajakda boshqa paradigmalar asosida izlanish olib boradigan tilshunoslар uchun ham qimmatli manba bo'lib xizmat qiladi.

Antroposentrik paradigmanning shakllanishi. Antroposentrik paradigma bu tadqiqtchilar qiziqishlarining obyektdan subyektga o'zgarishi, yo'naltirilishi, ya'ni insonning tilda, tilning esa insonda tahlil qilinishidir. I. A. Boduen de Kurtene ta'biri bilan aytganda, "til faqat til jamoasini tarkib toptirgan individual miyalarda, ko'ngillarda va individlarning psixikasida mavjud bo'ladi".

Hozirgi vaqtda tilshunoslikning yetakchi paradigmalaridan biri sifatida tan olinayotgan Antroposentrizmning ildizlari V.fon Gumboldt hamda L.Vaysgerberning nazariy qarashlaridan oziqlandi².

¹ Маслова В. А. Лингвокультурология. Учебное пособие для студентов высших учебных заведений. –М., 2001. –С. 6.

² Бу ҳақда қаранг: Маслова В.А. Лингвокультурология. – М.: Academia, 2001. – С. 17; Махмудов Н. Тилнинг мукаммал тадқиқи йўлларини излаб ... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – № 5. – Б. 3-16; Пименова

Antroposentrizm so‘zi yunoncha anthropos – odam hamda lotincha centrum - markaz ma’nosini bildiruvchi so‘zlar birikuvidan hosil bo‘lgan³. *Antroposentrizm* termini dastlab qadimgi yunon falsafasining "Inson - koinot markazidir" degan g‘oyani ilgari suruvchi qarashiga nisbatan qo‘llangan bo‘lib, bu g‘oya ayniqsa O‘rta asrlarda Evropada keng tarqaldi . Prof. Sh.Safarov Antroposentrik paradigmanning yuzaga kelishini quyidagicha izohlaydi: “Sistem-struktur paradigma o‘zidan oldin yuzaga kelgan qiyosiy-tarixiy paradigmanning “atomistik”, ya’ni til hodisalarini alohida-alohida, bir-biridan ajratgan holda tahlil qilinishi natijasida yuzaga kelgan nuqsonlarini bartaraf qilish yo‘lini tutdi. Sistem-struktur yo‘nalishning asosiy samarasi tilning tizimli hodisa ekanligini isbotlashdan iboratdir. Ammo bu ikki paradigmanning umumiy kamchiligi borligi ham ma’lum bo‘ldi: bu yo‘nalishlarda til o‘z egasi – insondan ajralib qoldi. Ushbu nuqsonni yo‘qotish yo‘lidagi urinishlar pragmatik va kognitiv tilshunoslik paradigmalarining yaratilishiga sabab bo‘ldi”³.

Prof. N.Mahmudov esa tilshunoslikda Antroposentrik paradigmanning shakllanishi haqida mulohaza yuritar ekan, quyidagi fikrlarini bayon qiladi: “Tilning ana shunday obyektiv xususiyatiga muvofiq ravishda Antroposentrik paradigmada inson asosiy o‘ringa chiqariladi, til esa inson shaxsini tarkib toptiruvchi bosh unsur hisoblanadi. Mutaxassislar taniqli rus adibi S.Dovlatovning “inson shaxsiyatining 90 foizini til tashkil qiladi” degan hikmatomuz gapini tilga oladilar. V.A.Maslova ta’kidlaganiday, inson aqlini insonning o‘zidan, tildan va nutq yaratish hamda nutqni idrok qilish qobiliyatidan tashqarida tasavvur etib bo‘lmaydi”⁵.

Tilning antroposentrik g‘oyasi zamonaviy tilshunoslikning asosini tashkil qiladi. Bugungi kunda lingvistik tahlilning maqsadi, til tizimlarining turli tavsifini

М.В., Кондратьева О.Н. Концептуальные исследования. Введение. – М.: Флинта, 2014. – С. 8. ³ http://ph.ras.ru//elib_0215.html: Новая философская энциклопедия.

³ Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2008. – Б. 35. ⁵ Махмудов Н. Тилнинг мукаммал тадқики йўлларини излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – № 5. – Б. 6-7.

shunchaki aniqlash bilan hisoblasha olmaydi. Til kishilik jamiyatida vujudga kelgan ko‘p qirrali hodisa: u sistema va antisistema, faoliyat hamda ushbu faoliyatning mahsuli, ruh va moddiyat va h.k. Yu. S.Stepanov tilning murakkab mohiyatini yortish uchun uni bir necha obrazlar ko‘rinishida taqdim etgan bo‘lsada, ulardan hech biri tilning barcha qirralarini to‘liq olib berolmaydi: 1) til *individning tilidir*; 2) til - *til oilalari a’zosi*; 3) til – *struktura*; 4) til – *tizim*; 5) til – *tur va xususiyat*; 6) til – *kompyuter*; 7) til – *fikrlar makoni va “ruhning uyi”* (M. Xaydegger), ya’ni til *insonning murakkab kognitiv faoliyatidir*. XX asrning oxiriga kelib bularga yana bir ta’rif qo‘shildi: til – *madaniyat mahsuli*, uning muhim tarkibiy qismi, yashashining sharti, madaniy kodlarning shakllanish omilidir.

Antroposentrik paradigmaning asosiy yo‘nalishlari. Antroposentrik paradigma nuqtayi nazaridan inson dunyoni o‘zini bilish, o‘zining nazariy va amaliy faoliyati orqali taniydi. Masalan, hech qanday mavhum nazariya nima uchun olov hissi haqida o‘ylaganda *sevgi olovi*, *yurak otashi*, *iliq do’stlik* va h.k. haqida gapirilishini izohlay olmaydi. Barcha narsalarning o‘z o‘lchovida anglash insonga uning ongida narsalarning antroposentrik tartibini ijod qilish huquqini beradi. Uni maishiy emas, balki ilmiy darajada tadqiq qilish mumkin bo‘ladi.

Insonning miyasida, ongida mavjud bo‘lgan bu tartib uning ma’naviyatini, qadriyatlarini va xatti-harakati motivlarini belgilaydi. Bularning barchasini inson nutqini, xususan, uning eng ko‘p qo‘llaydigan ifodalarini tadqiq qilish orqali tushunish mumkin.

Tilshunoslikda antroposentrik tilshunoslik (yoki antroposentrik paradigma; neolingvistika) sohasining shakllanishi til egasi – so‘zlovchi shaxs omilining tadqiq etish bilan bog‘liqdir. “Tilshunoslikda antroposentrik burilishning yuzaga kelishi shu bilan izohlanadiki, tadqiqotchilarining diqqati “til qanday qurilgan” degan masaladan “til qay tarzda amal qiladi” degan masalaga ko‘chdi... Tilning qay tarzda

amal qilishini tadqiq etish uchun esa tilni uning egasi bo‘lgan shaxs omili nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqish kerak bo‘ladi”⁴.

Zamonaviy tilshunoslikda til tizimini antroposentrik nuqtayi nazaridan o‘rganish, asosan, lingvistik semantika, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, pragmalingvistika hamda lingvokulturologiyaga oid tadqiqotlarda amalga oshiriladi.

Ayrim tilshunoslarning fikricha, antroposentrik paradigma o‘tgan asrda strukturalizm muvaffaqiyatlari natijasi sifatida yuzaga kelgan “o‘zida va o‘zi uchun” tamoyilini butunlay chetga surib qo‘ydi⁵. Bunda asosiy e’tibor nutqiy faoliyat bajaruvchisi, ya’ni nutq tuzuvchi va uni idrok etuvchi til egasiga qaratildi.

Ilmiy paradigmaga “til egasi” kategoriyasining kiritilishi tilshunoslarda, shaxs, lisoniy ong, tafakkur, faoliyat, mentallik, madaniyat kabi tushunchalarning yanada faollashuvini taqozo etadi⁶.

Keyingi yillarda, xususan, XXI asr boshlaridan til tizimini lingvokulturologik, pragmatik, sotsiolingvistik, kognitiv va psixolingvistik tamoyillar asosida tadqiq etish tendensiyasi kuchaydi. Tilga faqat semantik-sintaktik jihatdan bog‘langan gaplar yig‘indisi sifatida emas, balki ijtimoiy qimmatga ega bo‘lgan muloqot shakli, o‘zida muayyan til sohiblarining bilimlarini, lisoniy tafakkurini, milliy psixologiyasi va mentalitetini aks ettiruvchi mental qurilma sifatida qarala boshlandi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, o‘zbek tili tizimi ham dunyo tilshunoslida yetakchi paradigmalardan biri hisoblangan Antroposentrism asosida tadqiq etilishi lozim. Bu o‘zbek tilshunosligi rivojini yanada yuqori pog‘onaga ko‘tarishi bilan birga tilimizning jamiyat, madaniyat, milliy mentalitet va ruhiyat bilan uzviyligini ko‘rsatishga xizmat qiladi.

Nazorat savollari

1. Ilmiy paradigmaga ta’rif bering.
2. Ilmiy paradigma qachon va kim tomonidan muomalaga kiritilgan?

⁴ Дорофеев Ю. Антропоцентризм в лингвистике и предмет когнитивной грамматики // <http://www.NbuV.Cov.ua/portal/Sog-Gum/lS2008-17/dorofeev/pdf>.

⁵ Қаранг: Воркачев С.Г. Лингвокультурология, языковая личность, концепт: Становление антропологической парадигмы в языкоznании // Филологические науки. – 2001. – №1. – С. 64. ⁶ Седов К.Ф. Дискурс и личность. –С.5.

3. Tilshunoslikda qanday paradigmalar mavjud?
4. Antroposentrik paradigmanning boshqa paradigmalardan farqi nima?
5. Antroposentrik paradigmanning asosiy yo‘nalishlarini tavsiflang.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Азимова И.А. Ўзбек тилидаги газета матнлари мазмуний перцепциясининг психолингвистик тадқиқи: Филол. фан. ном. ... дис. автореф. – Тошкент: ЎзМУ, 2008. – 24 б.
2. Бегматов Э. Антропонимлар – антропоцентрик тадқиқ объекти // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2013. – № 3. – Б. 35-39.
3. Дейк Т.А. ван. Язык. Познание. Коммуникация. – М.: Прогресс, 1987. – 311 с.
4. Ибрагимова Р.С. Француз ва ўзбек тилларида *AЁЛ* концептининг лингвокогнитив тадқиқи: Филол. фан. ном. ... дис. автореф. – Тошкент: ЎзДЖТУ, 2012. – 24 б.
5. Йўлдошев М. Бадиий матн лингвопоэтикаси. – Тошкент, 2008. – 159 б.
6. Лакоф Дж., Джонсон М. Метафоры, которыми мы живем (Перевод Н.В. Перцова) // Теория метафоры. – М., 1990. – С 387-415.
7. Маматов А.Э. Тилга когнитив ёндашувнинг моҳияти нимада? / Ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари (проф. А.Нурмонов таваллудининг 70 йиллигига бағишилаб ўтказилган илмий-амалий анжуман материаллари. – Андижон, 2012. – Б. 212-220.
8. Маҳмудов Н. Ўхшатишлар – образли тафаккур маҳсули // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2011. – №3. – Б. 19-24.

9. Маҳмудов Н. Ўхшатишлар ва миллий образ // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2013. – № 1. – Б. 3-8.
10. Нишанов В.К. Феномен понимания: когнитивный анализ. – Фрунзе: Илим, 1990. – 228 с.
11. Нурмонов А. Имманентликдан когнитивликка // Ўзбек тили ва адабиёти. – 2009. – № 6. – Б. 104-107.
12. Салиева З.И. Концептуальная значимость и национально-культурная специфика сентенции в английском и узбекском языках: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 2010. – 24 с.
13. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – 91 б.
14. Курбонова М.А. Ўзбек болалар нутқи лексикасининг социопсихолингвистик тадқиқи: Филол. фан. ном. ... дис. автореф. – Тошкент: ЎзДЖТУ, 2009. – 25 б.
15. Худойберганова Д. Ўзбек тилида матннинг антропоцентрик тадқиқи (матн яратилиши ва мазмуний идроки мисолида): Филол. фан. д-ри ... дис. – Тошкент: ЎзР ФА ТАИ, 2015. – Б. 109.

2-mavzu

KOGNITIV TILSHUNOSLIK MASALALARI

Reja:

1. 1. *Kognitiv tilshunoslik ognitiv tilshunoslik – tilni umumiy kognitiv mexanizm sifatida*
2. *o‘rganuvchi sohaLingvokulturologiy.*
2. *Konsept – kognitiv tilshunoslik tushunchasi sifatida.*
3. *Kognitiv-semantik tahlil asoslari.*
- 4.

Tayanch tushunchalar: *kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, pragmatik tilshunoslik, lingvokulturologiya, pragmalingvistika, neyrolingvistika, etnolingvistika, konsept, kognitiv metaforalar, diskurs, lingvomadaniy birliklar, kognitiv-semantik tahlil.*

Tilshunoslikda til tizimini antroposentrik nuqtayi nazardan o‘rganish, asosan, lingvistik semantika, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, pragmatik tilshunoslik, lingvokulturologiyaga oid tadqiqotlarda namoyon bo‘lgan. Antroposentrik paradigma asosida yaratilgan ishlarda til tizimi shaxs omili bilan bog‘liqlikda tadqiq etilgan. O‘zbek tilshunoslarning lingvistik semantika, pragmatika, kognitiv tilshunoslikka oid tadqiqotlar o‘zida Antroposentrik yo‘nalish tendensiyalarini namoyon qilsa-da, bu boradagi tadqiqotlar hali etarli emas. Hozirgi vaqtida Antroposentrik paradigmanning yetakchi yo‘nalishlari sifatida quyidagilar e’tirof etiladi: kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, pragmatik tilshunoslik, lingvokulturologiya, lingvopersonologiya, pragmalingvistika, sotsiolingvistika, neyrolingvistika, etnolingvistika.

Antroposentrik paradigmanning yetakchi yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan kognitiv tilshunoslik tilni umumiyligi kognitiv mexanizm sifatida o‘rganuvchi sohadir. V.Z.Demyankov fikriga ko‘ra, unda til strukturalarining axborotni qayta ishlashdagi roli nutq yaratilishi va idrok etilishi nuqtayi nazaridan o‘rganiladi. Bunda nutq yaratuvchi va uni idrok etuvchi subyektlar – so‘zlovchi va tinglovchiga axborotni qayta ishlovchi tizim sifatida qaraladi. Axborotning verbal bosqichga o‘tishida mental tuzilma bo‘lgan konsept muhim o‘rinni egallaydi. Mazkur termin tilshunoslikda o‘tgan asrning 80-yillarigacha tushuncha so‘ziga sinonim sifatida ishlatilgan bo‘lsa , uning hozirgi vaqtdagi izohi kengroq ma’no kasb etganini ko‘rish mumkin.

Rus tilshunosi L.V.Adonina konsept terminiga bag‘ishlangan maqolasida bu terminning taniqli tilshunoslар tomonidan qayd etilgan 12 ta ta’rifini keltiradi. Shuningdek, uning ma’lumotiga ko‘ra, konsept termini o‘n nuqtayi nazardan tasnif

qilingan. Masalan, konsept standartlashishiga ko‘ra universal, etnik, guruhga oid va shaxsiy konseptlarga; qo‘llanishiga ko‘ra ilmiy, badiiy, maishiy konseptlarga; ifodalanishiga ko‘ra leksik-frazeologik, grammatik, sintaktik va matniy konseptlarga bo‘linadi va h.k.

Konsept termini borasidagi fikrlar o‘zbek tilshunoslari N.Mahmudov, Sh.Safarov hamda A.E.Mamatov tomonidan bat afsil izohlangan . Shu boisdan biz bu haqda o‘z qarashlarimiz bilan cheklanishni ma’qul hisoblaymiz.

Fikrimizcha, konsept ko‘p qirrali va ko‘p qatlamlı mental tuzilmadir. Shuningdek, u bir vaqtning o‘zida psixologik, kognitiv-semantic va lingvokulturologik jihatlarni namoyon etadi. Zero, konseptning kognitiv va lingvokulturologik tadqiqotlar obyekti sifatida tavsiflanayotgani ham shundan dalolat beradi. Shu sababli konseptning tadqiqotchilar tomonidan subyektiv, ijtimoiy, lingvomadaniy, badiiy konseptlar sifatida tiplashtirilganligini⁶ yagona mohiyatga turli jihatlardan yondashuv sifatida baholash mumkin. Zotan, til tizimi yuqoridagi sifatlarni o‘zida jamuljam etgan nihoyatda serqirra hodisalardan biri hisoblanadi.

N.Y.Shvedova konsept tushunchasi ortida ijtimoiy yoki subyektiv tarzda anglanuvchi, inson hayotining muhim moddiy, aqliy, ruhiy tomonini aks ettiruvchi, o‘z tarixiy ildizlariga ega bo‘lgan, xalqning umumiy tajribasini aks ettiradigan mazmun turishini qayd etadi⁷. Ma’lumki, tilshunoslikda konseptlar, asosan, leksik hamda leksik-frazeologik birliklar orqali ifodalanadi, degan fikr ustun. Keyingi davrlarda esa fanda sintaktik konseptlar haqidagi nazariy qarashlar, shuningdek, ushbu mavzuga bag‘ishlangan tadqiqotlar ham yuzaga keldi⁸. Ularning aksariyatida sintaktik konsept tipik propozitsiyaga tenglashtiriladi⁹.

S.E.Kuzminaning fikriga ko‘ra, sintaktik konsept bu – «predmetlar yig‘indisi va ularning munosabatini aks ettiruvchi tipik vaziyat haqidagi axborot bo‘lib, u

⁶ http://rtsu.slavist.t/index.php?option=com_content&task=view&id=149&Itemid=80

⁷ Шведова Н.Ю. Русский язык. Избранные работы. – М.: Языки славянской культуры, 2005. – С. 603.

⁸ Кузьмина С.Е. Понятие «синтаксический концепт» в лингвистических исследованиях / Вестник ЧелГУ. 2012. – № 17. Филология. Искусствоведение. Вып. 66. – С. 87-90.

⁹ Каранг: Кузьмина С.Е. Кўрсатилган мақола.

gapning struktur sxemasi orqali ifodalanadi hamda tipik propozitsiya (mazmunning strukturlashtirilgan yig‘indisi) orqali namoyon bo‘ladi»¹⁰.

Bevosita matn va konsept masalasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, aytish mumkinki, matn, xususan, badiiy matn konsept ifodachisi bo‘la oladi. Bunda individual-muallifiy yondashuv ham, shuningdek, milliy metallik belgilari ham o‘z aksini topishi mumkin.

Ma’lumki, tilshunoslikda badiiy konsept konsept tiplaridan biri sifatida baholanadi. Rus tilshunosi – I.G.Tkachenko konsept haqidagi maqolasida tadqiqotchilar tomonidan badiiy konseptga xos quyidagi belgilar qayd etilganini ta’kidlaydi: 1) mantiq qoidalariga bo‘ysunmaslik; 2) real voqelikka har doim ham mos kelmaslik; 3) potensial obrazga dinamik tarzda yo‘nalganlik; 4) obrazlilik; 5) estetiklik; 6) individuallik¹¹.

Yana bir tadqiqotchi – I.A.Tarasovaning fikriga ko‘ra, badiiy konseptni izohlashda ikki yondashuvni kuzatish mumkin: 1) badiiy konsept – individual-muallifiy, psixik hosiladir; 2) badiiy konsept – milliy va adabiy an'analar hosilasidir¹². Bizningcha esa, badiiy konsept yuqorida qayd etilgan har ikkala xususiyatni o‘zida mujassam etadi. Zero, konseptning o‘zida ushbu belgilar mavjuddir.

Kognitiv tilshunoslikka doir tadqiqotlarda kognitiv yondashuv asoslari ko‘rsatib berilgan. Kognitiv tilshunoslik kognitologiya va tilshunoslik integratsiyasi asosida yuzaga kelgan soha bo‘lib, uning masalalari semantika, psixolingvistika, etnolingvistika, pragmalingvistika, lingvokulturologiyaga oid bilimlarni qamrab oladi. Kognitiv tilshunoslik asosida konsept tahlili yotadi.

Konseptning o‘zi ham tafakkur birligi sifatida baholanmoqda¹³.

¹⁰ Кузьмина С.Е. Кўрсатилган мақола.

¹¹ Ткаченко И.Г. Подходы к трактовке текста и художественного концепта в современной лингвистике // И.Г.Ткаченко, Ю.Г.Мурка // Филологические науки в России за рубежом. Материалы международ.заоч.науч. конф. (г.Санкт-Петербург, февраль 2012 г.) – СПб.: Реноме, 2012. – С. 173-175.

¹² Тарасова И.А. Художественный концепт: диалог лингвистики и литературоведения // Лингвистика. Вестник Нижегородского ун-та. – 2010. – № 4(2). – С. 742-745.

¹³ Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах,2006. –Б.8.

Konsept – aqliy bilimga, ijtimoiy-siyosiy, lisoniy-madaniy munosabatlarga, olamni mental tafakkur orqali anglashga asoslangan xotira, bilim majmui, til va nutqda namoyon bo‘luvchi olam manzarasidir. Jahon va o‘zbek tilshunosligida lisoniy birliklar semantikasi va lisoniy hodisalarini konsept asosida tadqiq etish keng doirada amalga oshirilmoqda. *Konsept* termini uch xil semantikani namoyon etadi:

1. Kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazaridan – inson ongining milliy-madaniy imkoniyatlari, bilim va tajribasi asosida shakllangan axborot tizimi birligi sifatida;
2. Lingvokulturologiyada: mental belgilarga hamda lingvistik birlikkarda ifodalanadigan, etnomadaniy xususiyatlarga ega bo‘lgan ijtimoiy ong birligi sifatida;
3. Psixolingvistika nuqtai nazaridan – insonnning bilish va muloqot faoliyati natijasi bo‘lgan, tafakkur qonuniyatiga bo‘ysunuvchi pretseptiv-kognitivaffektiv tuzilma sifatida baholanadi¹⁴.

Konsept tushunchasining fanga kirib kelishi kognitiv tilshunoslik bilan bog‘liq. Konsept nazariyasi va uning yondosh tushunchalarga munosabati bir qator tadqiqotlarda yoritilgan. V.Karasik konseptni shaxs, diskurs bilan aloqadorlikda til sferasini tashkil etuvchilar sifatida talqin qildi¹⁵. Yu.Stepanov konseptni til va mentallik munosabatlarini ta‘minlovchi omil sifatida baholadi¹⁶. S.Ter-Minasova konseptni lingvokulturologiya doirasidagi masalalar negizida tavsifladi²⁰.

A. Abduazizov konsept ko‘lamining kattaligini, ma’no bilan birgalikda obrazni ham qamrab olishini qayd etadi¹⁷.

Konsept o‘zbek tilshunosligidagi tadqiqotlarning ham markaziy masalasi sifatida belgilandi. Sh.Safarov izlanishlarida kognitiv konseptning nazariy masalalari, uning ta’rifi, tavsifi tahlil qilingan bo‘lsa¹⁸, N.To‘xtaxo‘jaeva dissertatsiyasida lingvokulturologik konseptning tarjima qilingan badiiy matnlardagi

¹⁴ Худойберганова Д. Лингвокультурологик бирликларнинг қисқача изоҳли луғати. – Тошкент: Turon zamin ziyo, 2015. – Б.25.

¹⁵ Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – Волгоград: Перемена, 2002. – 477 с.

¹⁶ Степанов Ю.С. Язык и ментальность. – СПб: Петербурское введение, 2004. – 64 с. ²⁰Тер-Минасова С.Г. Язык и межкультурная коммуникация. – М.: Слово, 2008. –264 с.

¹⁷ Abduazizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. –Toshkent: Sharq, 2010.

¹⁸ Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – 91 б.;

tadqiqi amalga oshirilgan¹⁹. Lisoniy hodisalarini konseptual yondashuv asosida tahlil qilishga bag‘ishlangan tadqiqotlarda konseptning yana bir turi – aksiologik konsept haqida fikr yuritilgan²⁰. Mazkur tadqiqotlarga asoslanib, konsepning to‘rt turini fraqlash mumkin:

1. Kognitiv konsept – bilim va tajribaga asoslangan, inson aqli, idroki, liosniy ongining mental imkoniyatlari aks etgan fundamental tizim.

2. Psixolingvistik konsept – lisoniy ong imkoniyatlari bilan belgilanuvchi va muloqot jarayonida reallashadigan, tafakkur qonuniyatiga bo‘ysunadigan psixikfiziologik tizim.

3. Lingvokulturologik konsept – lisonda voqylanadigan, mental, etnomadaniy belgilarga ega bo‘lgan tafakkur birligi.

4. Aksiologik konsept – etik-estetik kategoriyalarning mahsuli sifatida derektiv xususitga ega bo‘lgan madaniy qadriyatlarni ifoda etuvchi konsept.

Kognitiv konsept barcha konseptlarga asosida turadigan idrok mahsulidir. Shu bois uni konsept turi sifatida ajratish ham nisbiydir. Psixolingvistik konsept nutq mexanizmi va nutq faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib, idrok etish va kognitiv qobiliyat orqali namoyon bo‘ladi. Aksiologik konsept tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllangan, lisoniy ongda aks etgan axloqiy-ma’naviy qadriyatlarni ifodalaydi. Lingvokulturologik konsept milliy-madaniy munosabatlar va mental idrok bilan bog‘liqdir²¹.

¹⁹ Тўхтахўжаева Н. Бадиий таржимада лингвокультуре маларнинг ифодаланиши (инглиз ва ўзбек тиллари мисолида). Филол. фан. фалс. д-ри дисс. (PhD). – Toshkent, 2017. – 124 б.

²⁰ Воркачев С. Концепт счастья: понятийный и образный компоненты // Известия РАН. 2001. № 6. С. 47–58; Привалова И. В. Языковое сознание: этнокультурная маркированность. Автореф. дисс...канд. филол. наук. – М., 2006. – С.9-17; Форофонтова Ю.Л. Аксиологический концепт сквозь таксономическую призму (на примере концепта судьба) // Вестник ТГУ, 2008. – С.141-145; Карасик В.И. Языковые ключи. –М., Гнозис, 2009; Попова З. Д., Стернин И. А. Когнитивная лингвистика. – М., 2010. – 314 с.

²¹ Муратходжаева Ф. Инглиз ва ўзбек тилларида сўз ва сўз биримлар маъноларининг когнитив-семантик таҳлили ва уларнинг таржима муаммолари. Филол. фан. фалс. док.(PhD) ...дисс. –Тошкент, 2022.-Б.14-16. ²⁶ Лакофф Дж., Джонсон М. Метафоры, которыми мы живем (Перевод Н.В. Перцова) // Теория метафоры. – М.: Прогресс, 1990. – С 387-415.

O‘tgan asrning so‘nggi choragida kognitiv tilshunoslikning taniqli vakili bo‘lgan J.Lakoff hamda mashhur faylasuf M.Jonson tomonidan yaratilgan metaforalar to‘g‘risidagi tadqiqot²⁶ bu boradagi qarashlarning tub burilishiga sabab bo‘ldi. Mazkur tadqiqotchilar kognitiv (konseptual) metaforalar nazariyasiga asos solib, metaforalar faqat til hodisasi bo‘libgina qolmay, inson tafakkurining ham ajralmas qismi ekanligini chuqur yoritib berdilar. J.Lakoff va M.Jonson: «Metaforalar nafaqat kundalik hayot, nafaqat til, balki tafakkur va faoliyatimizga ham kirib boradi. Bizning kundalik tushunchaviy tizimimiz ham o‘z mohiyatiga ko‘ra metaforikdir», – deb ta’kidlagan edilar²².

Kognitiv metaforalar haqidagi nazariyalarga asoslanib, bu hodisaga quyidagicha ta’rif berish mumkin: kognitiv metafora shaxs kognitiv faoliyatiga xos hodisa bo‘lib, bir tushuncha yoki hukm haqidagi bilim strukturalari asosida ikkinchi tushuncha yoki hukmni kategoriyalashtirishdir.

J.Lakoff va M.Jonson tadqiqotida tahlil etilgan *vaqt bu – pul*, *vaqt bu – cheklangan zaxira*, *vaqt bu – qimmatbaho buyum* kognitiv metaforalari o‘zbek tilida so‘zlashuvchi nutq egalari tezaurusida ham mavjudligi (Masalan: *Bu ishga ko‘p vaqt sarfladim; Vaqtim tugay deyapti; Behuda ishlar vaqt ni o‘g‘irlaydi*) bir qator kognitiv metaforalarning kognitiv-semantik universaliya ekanligidan dalolat beradi.

Kognitiv metaforalar implikatsiyani yuzaga keltiruvchi omillardan biri sifatida so‘z, so‘z birikmasi, jumla yoki matnda o‘z «izi»ni qoldiradi. Metafora asosida ma’nosи (mazmuni) ko‘chgan birliklar «kognitiv aysberg»²³ning yuza qismi bo‘lib, uning asosiy qismi bizning lisoniy ongimiz tubida yashirin holda mavjud bo‘ladi.

Tilda shaxs o‘rnini asosiy omillardan biri sifatida talqin etuvchi qarashlar ichida matn yaratilishining kognitiv talqini diqqatga sazovordir. Kognitiv talqinda

²² Лакофф Ж., Жонсон М. Кўрсатилган асар. – Б.387.

²³ Карап: Демьянков В.З. Когнитивная лингвистика как разновидность интерпретирующего подхода // Вопросы языкоznания. – М., 1994. – № 4. – С. 22. ²⁹ Комарова Л.И. Современные подходы к изучению художественного текста // Аналитика культурологии. Электронное научное издание. ISSN, 1990. – 4045. ³⁰ Чувакин А.А. Теория текста: объект и предмет исследования // Критика и семиотика. Вып. 7. – М., 2004. – С.88-90. ³¹ Карап: Седов К.Ф. Дискурс и личность. – М., 2004. – С. 45.

matn yaratilishiga «muallif – matn – matndan tashqaridagi voqelik» tamoyili asosida yondashilib, matnga bir vaqtning o‘zida bir necha nuqtayi nazar bilan qarash fikri ilgari suriladi²⁹. Jumladan: so‘zlovchi maqsadining ifodasi bo‘lgan matn, nutq yaratilishi mahsuli bo‘lgan matn, tushunish obyekti bo‘lgan matn, tushunish mahsuli bo‘lgan matn³⁰.

Matn yaratilishining kognitiv talqiniga binoan, matn mental tuzilmaning tilga transformatsiyasidir. Ushbu talqinga ko‘ra, botiniy nutqdagi bo‘lajak matnga ketma-ket joylashuvchi propozitsiyalar yig‘indisi sifatida emas, balki butundan qismlarga qarab harakatlanuvchi yaxlit shakl sifatida qaraladi. Ma’lumki, tilshunoslikda matnning tashqi (leksik-grammatik) va ichki (semantik) tuzilishga ega ekanligi e’tirof etiladi³¹. Matnning ichki tuzilishi o‘zida semantik konsentrat, yadroviy mazmunni namoyon etadi. Kognitiv tilshunosning vazifasi ana shu mazmunga kognitiv asos bo‘lgan mental tuzilmalarni aniqlashdan iboratdir. Tadqiqotchilar tomonidan «fanlar federatsiyasi»²⁴ deb ta’riflangan kognitiv tilshunoslik uchun eng muhim vazifa tafakkur birligi bo‘lgan konseptning tilda (aniqrog‘i, nutqda) aks etishini ta’minlovchi tuzilmalar, harakatlar, qoidalarni aniqlashdir²⁵. Konseptning lisoniy voqelanishini ta’minlovchi bunday tuzilmalar kognitiv tilshunoslikda freym, skript, ssenariy, propozitsiya, vaziyat modeli, obraz, sxema, ramz kabi nomlar ostida o‘rganib kelinmoqda. Ana shunday mental tuzilmalardan biri lingvistik geshtalt hisoblanadi. *Geshtalt* nemischa so‘z bo‘lib, «obraz, struktura, yaxlit shakl» ma’nolarini anglatadi²⁶. Ilmiy adabiyotlarda geshtaltga biror obyektni qismlar yig‘indisi sifatida emas, balki yaxlit holda idrok etish jarayoni deb ta’rif beriladi²⁷. Sh.Safarov geshtaltning kognitiv tilshunoslikdagi ahamiyati haqida gapirar ekan, uning, ayniqsa, matn tuzilishini o‘rganishda muhim ekanini qayd etadi²⁸. Darhaqiqat, muayyan obyektni (shu jumladan matnni ham)

²⁴ Демьянков В.З. Кўрсатилган мақола. – Б. 17-33.

²⁵ Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Санззор, 2006. – Б.27.

²⁶ Ўша ерда. – Б. 47.

²⁷ Каранг: Хрестоматия по истории психологии. – М.: Изд-во МГУ, 1980. – С. 84–89; Алефиренко Н. Спорные проблемы семантики. – М.: Гнозис, 2005. – С.326; Сафаров Ш. Кўрсатилган китоб. – Б. 47.

²⁸ Сафаров Ш. Кўрсатилган китоб. – Б.47.

yaxlit tuzilma sifatida idrok etish bu obyektni uni tashkil etgan qismlarning oddiy yig‘indisi sifatida emas, balki ularning o‘zaro munosabatlari sifatida tushunish va tasavvur etishga olib keladi. Bu esa real voqelikka oid biror predmetning ichki tuzilishi va mohiyatini chuqurroq anglash imkonini yaratadi. Psixologiyaga doir adabiyotlarda geshtalt hodisasini izohlash uchun ko‘pincha **daraxt** tushunchasidan foydalilaniladi. Bunda daraxtni predmet sifatida idrok etuvchi shaxs uni qismlar yig‘indisi, ya’ni tana, ildiz, shoxlar va barglardan iborat o‘simlik sifatida emas, shu qismlarga bo‘linuvchi yaxlit jism – daraxt sifatida idrok etishi muhimdir.

Hozirgi vaqtida kognitiv tilshunoslikda keng tarqalgan metodlardan biri freym tahlili hisoblanadi. Lingvokognitologiyaga ko‘ra, har qanday matn ma’lum bir freym ifodasidir. Freym nazariyasini yaratgan olimlardan biri M.Minskiy unga shunday ta’rif beradi: «....freym – stereotip vaziyatlarni namoyon qilish usullaridan biri hisoblanib, har qanday freymda ko‘pqirrali axborot o‘zaro bog‘langan bo‘ladi»²⁹. Binobarin, freym u yoki bu tipik vaziyatning keng hajmli prototipi bo‘lib, matn yaratilishi jarayonida kognitiv kontekst vazifasini bajaradi. Matn yaratilishi tadqiqida kognitiv tuzilmalardan biri bo‘lgan geshtalt ham muhim o‘rin tutadi. Hozirgi tilshunoslikda mavjud bo‘lgan *semantik geshtaltlar* nazariyasi tilning lug‘aviy sathini o‘rganishga tatbiq etilgan³⁰. Geshtalt hodisasini matn bilan bog‘lab o‘rganuvchi tadqiqotlar soni esa juda oz. Vaholanki, har qanday matn yaratilishi «butundan – bo‘lakka» jarayonini aks ettiradi. Prof. Sh.Safarov fikriga ko‘ra, geshtalt va matn yaratilishini uzviylikda tadqiq etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi³¹.

Kognitiv tilshunoslikka doir tadqiqotlarda kognitiv talqin asoslari o‘z ifodasini topgan. Z.D. Popova I.A.Sterninlar lingvokognitiv tadqiqotlarga yondashuvni takomillashtira borib, “kognitiv-semantik yondashuv” sifatida shakllantirganlar. Bu yondashuvni til semantikasi bilan xalq konseptosferasi,

²⁹ Минский М. Остроумие и логика когнитивного бессознательного // Новое в зарубежной лингвистике. Когнитивные аспекты языка. – М., 1988. Вып. XIII – С. 289.

³⁰ Карапг: Караплов Ю.Н. Русский язык и языковая личность. – М.: Наука, 2001. – 263 с.

³¹ Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – 91 6.

semantik jarayonlar bilan kognitiv jarayonlar munosabatini tadqiq qiluvchi yo‘nalish sifatida tavsiflaganlar.

Kognitiv tilshunoslik integrativ soha sifatida bevosita psixolingvistik yondashuvni ham talab etadi. Til birliklarining olam manzarasini ifoda etishi, so‘zlovchining fikrini kodlash jarayoni, tinglovchi tomonidan nutqning qabul qilinishi psixolingvistik tahlillar orqali ochib beriladi.

Psixolingvistikaning shakllanishi, masalalarining aniq belgilanishi, nazariy postulatlari qat'iy lashgandan keyin kognitiv tilshunoslikning imkoniyatlari kengaydi. Aynan psixolingvistlar noverbal fikrlash mavjudligini, insonlar ongida doimiy ravishda o‘zgarib va yangilanib boruvchi, kvant bilimlar – konseptlardan iborat koneptosfera mavjudligini asoslashdi. Psixolingvistik kuzatuvaridan til belgilarini insonlar tomonidan fikr almashish maqsadida, aniqrog‘i nisbatan keng ko‘lamga ega bo‘lgan va muloqot ehtiyojini shakllantiradigan konseptlar ifodasini ta‘minlashi ma'lum bo‘ldi. Til belgilarini olimlar tomonidan konseptlar olamidagi ma'lum bir kontur chiziqlar sifatida baholangan. Konseptosfera til belgilarini bilan ifodalash mumkin bo‘lgan qismdan ancha keng doirani qamrab oladi. Demak, til birliklari konseptosferaning ma'lum jihatining aks ettirar ekan. Psixolingvistika sohasida erishilgan yutuqlar kognitiv lingvistika metodologiyasi shakllanishi uchun asos vazifasini o‘tadi.

Z.D. Popova I.A.Sterninlar kognitiv tilshunoslik metodologiyasining asosiy pozitsiyasi til belgilarining semantikasini o‘rganish orqali konseptosferaga yorib kirishda namoyon bo‘lishini ta‘kidlaydilar. U yoki bu xalq vakili uchun ijtimoiy hayoti bosqichlari davomida nima muhimligini, boshqa bir xalq uchun ahamiyatli bo‘lgan qanday narsalar uning nuqtai nazaridan chetda qolganini va buning sabablarini bilib olish mumkin bo‘ladi.

Psixolingvistik metodologiya asosida nafaqat milliy, balki umumilliy tafakkur xususiyatlarini, individual-muallif konseptosferasining barcha belgilarini qamrab oluvchi kognitiv lingvistika metodologiyasi yuzaga keldi.

Z.D. Popova I.A.Sterninlar tomonidan kognitiv-semantik yondashuvni takomillashtiruvchi asosiy postulatlar sifatida quyidagilar keltirilgan:

1.Inson tafakkuri noverbaldir, u predmetning universal kodlari yordamida amalga oshadi; inson kod birliklari yordamida kodlangan va universal kod bazasini tashkil etuvchi konseptlar yordamida tafakkur qiladi (Vygotskiy 1982, Jinkin 1958, 1982, 1998, Gorelov 1980, 2003, Gorelov, Sedov 1998).

Konsept – lisoniy ong, tafakkur faoliyati mahsulidir. Konseptlarning inson ongidagi tartibli tizimi konseptosferani yuzaga keltiradi.

2.Til inson ongini, konseptosferasini, konseptning tafakkur birligi sifatidagi mazuniga kirish vositasidir. Til yordamida ongning konseptual mazmunini ma'lum bir jihatdan anglash mumkin bo'ladı.

3.Konsept tahliliда lingvistik metodlar lingvokognitiv tadqiqot metodlari sifatida maydonga chiqadi.

4.Kognitiv tilshunoslik u yoki bu konsept xususiyatlarini qamrab oluvchi, ob'ektivlashtiruvchi, verballashtiruvchi til birliklarining semantikasini yoritadi.

Til birliklarining semantikasini o'rganish orqali tafakkur birligi sifatida konseptlar mazmuniga kirish mumkin.

Til birliklari o'ziga xos lingvistik qiymatga ega bo'lib, bu belgilar semantik maydonini hosil qiladi. Konsept konseptosferaning birligi, ma'no esa tilning semantik maydoni birligidir. Ma'no – tafakkurga aloqadorlikda lisoniy ong elementi bo'lsa, konsept –kognitiv birlikdir.

Konsept va ma'no –tafakkurning kognitiv mazmundagi mahsulidir.

Ma'no konseptning til belgilariga kommunikatsiya maqsadida singdirilgan tafakkur birligidir³².

Ilmiy tadqiqotlarda ma'noning bir necha turi ajratilgan.

Til egasining ongi, idroki bilan bog'liq bo'lgan psixolingvistik ma'no va izohli lug'atlarda umumiyl planda beriluvchi leksikografik ma'no farqlanadi.

³² Попова З.Д., Стернин И.А. Семантико-когнитивный анализ языка. – Воронеж: Научное издание, 2007. – С.13.

Leksikografik ma'no leksik ma'noga asoslanadi. Leksik ma'no so'z ifodalagan asosiylar tushuncha hisoblanadi. Leksik ma'no tadqiqotlarda tavsiflangan³³. Xususan, M.Mirtojiyev leksik ma'noning quyidagi tiplarini keltirganlar:

1.Leksik ma'noning taraqqiyotiga ko'ra: *genetik ma'no, hosila ma'no*

2Leksik ma'nolarning o'z referentini ifodalashiga ko'ra: *nominativ ma'no, figural ma'no.*

3.Leksik ma'nolarning ifodalanishida u oid bo'lgan so'z birikuvchanligiga ko'ra (leksik ma'nolarning nutqda ifodalanish holatiga ko'ra): *erkin ma'no, bog'li ma'no.*

4.Leksik ma'noning so'z yasalishidagi tiplanishiga ko'ra: *o'zak ma'no, yasama ma'no.* Leksik ma'no miqdoriga ko'ra monosemiya, polisemiya farqlangan³⁴.

Konseptda psixolingvistik va leksikografik ma'no yaxlitlikda mujassamlangan bo'ladi, shuningdek, konseptda bu ikki ma'noda ifodalanmagan qism ham mavjud bo'ladi.

Konseptning so'z yoki boshqa til birliklari bilan ifodalanishi doimiy holat emas. Konsept til birliklari orqali ifodalanishi yoki ifodlanmasligi ham mumkin.

Muloqot jarayonida konseptning kommunikativ jihatga oid qismi og'zaki ravishda bayon qilinadi. Til birliklarining semantik tadqiqi konseptning verballahsgan qismini tavsiflashdir³⁵.

Z.D.Popova, I.A. Sterninlar semantik-kognitiv analiz boshqichlarini quyidagicha ajratishgan:

1. Konseptning nomlanish maydoni tuzilishi.

2. Konseptning nomlash maydoniga kiruvchi til birliklarini tahlil qilish va tavsiflash.

3. Til birliklari semantik tavsifi natijalarini, konseptni mental birlik sifatida shakllantiruvi kognitiv belgilarni kognitiv talqin qilish

4. Til egasining kognitiv tavsifiga doir natijalarni verifikatsiyalash.

³³ Уфимцева А.А. Лексическое значение: принцип семасиологического описания. – М.:Наука, 1986.

³⁴ Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: Mumtoz soz, 2010. – Б.98-115.

³⁵ Попова З.Д., Стернин И.А. Семантико-когнитивный анализ языка. – Воронеж: Научное издание, 2007. – С.13.

5. Konsept mazmunini kognitiv belgilar tizimi sifatida tavsiflash³⁶.

Konsept *yadro, yaqin, uzoq, chekka periferiya* so‘zlari orqali tavsiflanadi³⁷.

Kognitiv lingvistikaning bugungi kunda quyidagi asosiy yo‘nalishlari mavjud:

1. Bilishning biologik nazariyasi. U biosemiotika ma'lumotlariga asoslanadi. Biosemiotika tadqiqotchilari ishlarida nafaqat inson, balki boshqa aqlli mavjudotlarning tafakkur jarayoni haqidagi fikrlar bildirilgan.

2. Bilishning biomadaniy nazariyasi. Ushbu nazariyaga ko‘ra oddiy tirik mavjudotlar uchun borliq faqat jismoniy ahamiyat kasb etsa, inson uchun u ham jismoniy, ham madaniy ahamiyat kasb etadi.Ushbu nazariyaga ko‘ra inson to‘rt tipdagi qadriyatlarga ega bo‘ladi: 1) stimul; 2) assotsiativ; 3) taqlidiy; 4) ramziy.⁴⁶

Shu tariqa, ushbu yo‘nalishlarda til va bilishning biologik asoslari insonning qabul qilish, emotsional holati, empirik tajribasi nuqtai nazaridan ko‘rib chiqiladi.

3. Sun’iy intellekt yaratish nazariyasi. Bu nazariya asoslari informatika fanidan olingan bo‘lib, unda sun’iy intellekt va inson ongi, tili o‘rtasidagi bog‘liqliklar o‘rganiladi.

4. Kognitiv semantika yo‘nalishi. Kognitiv semantikani yana “tildagi konseptualizatsiya va kategorizatsiya nazariyasi” deb ham atashadi. Ushbu nazariyaga ko‘ra til birligining ma’nosи boshqa kognitiv strukturalar kontekstida aniqlanishi zarur, chunki ushbu bilimlar bloki mazkur ma’nolar ortida turadi va ularni tushunishni ta’minlaydi”.³⁸ Kognitiv strukturalar *kognitiv sferalar, kognitiv kontekstlar*

(R.Lenker), *mental makonlar* (J.Fakone, Dj.Lakoff) yoki *freymlar* (Ch.Filmor) deb ham ataladi. Kognitiv strukturalar “til analiziga til hamda tilga aloqasi bo‘lmagan

³⁶ Попова З.Д., Стернин И.А. Кўрсатилган манба. – С.112.

³⁷ Муратходжаева Ф. Инглиз ва ўзбек тилларида сўз ва сўз бирималар маъноларининг когнитив-семантик таҳлили ва уларнинг таржима муаммолари. Филол. фан. фалс. док.(PhD) ...дисс. –Тошкент, 2022.-Б.18-21.

⁴⁶Кравченко А.В. Когнитивная лингвистика сегодня: интеграционные процессы и проблема метода // Вопросы когнитивной лингвистики. –Тамбов, 2004. –С.45.

³⁸ Болдырев Н.Н. Концептуальное пространство когнитивной лингвистики. –С.26.

(ensiklopedik) bilimlarni jalb qilgan holda semantik nazariyaga ko‘p darajali xarakterni bahsh etishni” taqazo qiladi.³⁹ U yoki bu kognitiv strukturalarda aniqlanayotgan til birliklari ma'nolari u yoki bu konseptlar asosida shakllanadi. N.N.Boldirevning ta'kidashicha, konseptlar til kategoriyalari shakllanishining asosida yotadi. Shunga ko‘ra til birliklari va til kategoriyalari ma'nolarini kognitiv semantika doirasida tadqiq qilish konseptual analiz metodi asosida amalga oshiriladi. Konseptual analiz til birliklari va shakllarida ifodalangan dunyoni anglash, tushunish, fikrlash, bilish usullarini o‘rganishni taqazo qiladi. Bunda ma'nolar so‘zlar, so‘z birikmalari, jumlalar va, umuman, matnlar bilan ifodalanishi mumkin. Konseptual analiz konseptlar mazmunini va bu bilan bir qatorda yashirin, assotsiativ va b. konseptual xarakteristikalarini aniqlaydi.

Nazorat savollari

1. Kognitiv tilshunoslikda tilning qaysi jihatni o‘rganiladi?
2. Kognitsiya tushunchasi nimani anglatadi?
3. Kognitiv tilshunoslikningning o‘rganish obyektiga nimalar kiradi?
4. Kognitiv metaforalarni misollar asosida tushuntiring.
5. Konsept va uning turlarini tavsiflang.
6. Kognitiv-semantik tahlil asoslarini va turlarini izohlang.
7. Kognitiv tilshunoslikning asosiy xususiyatlarni yoriting.
8. Freym nima?
9. Konseptosferaga ta’rif bering

Foydalaniladigan adabiyotlar

1. Abduazizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. –Toshkent: Sharq, 2010.
2. Азимова И.А. Ўзбек тилидаги газета матнлари мазмуний перцепциясининг психолингвистик тадқиқи: Филол. фан. номз. ... дисс.

³⁹ Болдырев Н.Н. Концептуальное пространство когнитивной лингвистики. –С.26.

автореф. – Тошкент: ЎзМУ, 2008. – 24 б.

3. Бегматов Э. Антропонимлар – антропоцентрик тадқиқ обьекти // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2013. – № 3. – Б. 35-39.
4. Bublitz W. Englische Pragmatik. Eine Einführung. - Berlin, 2001.
5. Воркачев С. Концепт счастья: понятийный и образный компоненты // Известия РАН. 2001. № 6. С. 47–58;
6. Дейк Т.А. ван. Язык. Познание. Коммуникация. – М.: Прогресс, 1987. – 311 с.
7. Йўлдошев М. Бадиий матн лингвопоэтикаси. – Тошкент, 2008. – 159 б.
8. Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – Волгоград: Перемена, 2002. – 477 с.
9. Карасик В.И. Языковые ключи. –М., Гнозис, 2009;
10. Лакоф Дж., Джонсон М. Метафоры, которыми мы живем (Перевод Н.В. Перцова) // Теория метафоры. – М., 1990.
11. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: Mumtoz soz, 2010.
12. Муратходжаева Ф. Инглиз ва ўзбек тилларида сўз ва сўз бирикмалар маъноларининг когнитив-семантик таҳлили ва уларнинг таржима муаммолари. Филол. фан. фалс. док.(PhD) ...дисс. – Тошкент, 2022. 13. Попова З.Д., Стернин И.А. Семантико-когнитивный анализ языка. – Воронеж: Научное издание, 2007. – С.13.
14. Попова З. Д., Стернин И. А. Когнитивная лингвистика. – М., 2010. – 314 с.
15. Привалова И. В. Языковое сознание: этнокультурная маркированность. Автореф. дисс...канд. филол. наук. – М., 2006.
16. Салиева З.И. Концептуальная значимость и национально-культурная специфика сентенции в английском и узбекском языках: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 2010. – 24 с.
17. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – 91 б.

18. Степанов Ю.С. Язык и ментальность. – СПб: Петербурское введение, 2004.
– 64 с.
19. Тер-Минасова С.Г. Язык и межкультурная коммуникация. – М.: Слово, 2008. –264 с.
20. Тўхтахўжаева Н. Бадиий таржимада лингвокультуремаларнинг ифодаланиши (инглиз ва ўзбек тиллари мисолида). Филол. фан. фалс. д-ри дисс. (PhD). – Toshkent, 2017. –124 б.
21. Уфимцева А.А. Лексическое значение: принцип семасиологического описания. – М.:Наука, 1986.
22. Форофонтова Ю.Л. Аксиологический концепт сквозь таксономическую призму (на примере концепта судьба) //Вестник ТГУ, 2008. – С.141-145/
23. Chafe W. Discourse, consciousness and time. -Chicago, 1994. - 311 р.
24. Chomsky N. New Horizons in the study of Language and Mind. –Cambridge: Cambridge Univ. Press, 2000.
25. Человеческий фактор в языке. Язык и порождение речи. –М.: Наука, 1991. – 238 с.
26. Курбонова М.А. Ўзбек болалар нутқи лексикасининг социопсихолингвистик тадқиқи: Филол. фан. ном. ... дисс. автореф. – Тошкент: ЎзДЖТУ, 2009. – 25 б.

3-mavzu

KOMMUNIKATIV TILSHUNOSLIK

Reja:

- 1.Kommunikativ lingvistikaning asosiy masalalari.**
- 2.Kommunikativ lingvistika yo‘nalishlari.**
- 3. Matn lingvistikasi.**

Tayanch tushunchalar: *kommunikativ lingvistika, protsessual semantika, kommunikativ sintaksis, matn lingvistikasi, pragmalingvistika, muloqot xulqi*

nazariyasi, nutqiy janrlar nazariyasi, madaniyatlararo muloqot nazariyasi, paralingvistika, psixolingvistika, sotsiolingvistika, nutqiy akt nazariyasi.

Kommunikativ lingvistikaning asosiy masalalari. “Kommunikativ lingvistika” ning XX asrning ikkinchi yarmida AQSh hamda Yevropada shakllanishi va rivojlandi. Kommunikativ lingvistika – til birliklarining muayyan sotsial vaziyatlarda va shaxslararo munosabatda, muayyan motivlar, maqsad bilan qo‘llanishiga asoslangan muloqot jarayonini ifoda etadi.

Kommunikativ lingvistika yo‘nalishlari. Kommunikativ lingvistika bir necha yo‘nalishni o‘z ichiga oladi: protsessual semantika, kommunikativ sintaksis, matn lingvistikasi, pragmalingvistika, muloqot xulqi nazariyasi, nutqiy janrlar nazariyasi, madaniyatlararo muloqot nazariyasi, paralingvistika, psixolingvistika, sotsiolingvistika.

Diskurs va diskursiv faoliyat. Diskurs – pragmatik vaziyat, ijtimoiy-madaniy omil, ruhiy holat bilan bog‘liq nolisoniy omillar bilan birlashtirilgan namoyon bo‘ladigan matn; jarayonda amalga oshgan matn; maqsadli ijtimoiy harakat sifatida qaraladigan nutq hisoblanadi. Diskursiv faoliyat – nutq yaratish va uni idrok etishdir

Matn lingvistikasi. Matn – tilning eng katta birligi sifatida qaraladi. Ilmiy adabiyotlarda matnning xilma-xil tavsifi va ta’rifi keltirilgan. Matn – muayyan tizim asosida tuzilgan, o‘ziga xos semantikaga ega bo‘lgan, tugallangan nutqiy faoliyat mahsulidir. Matn birlklari, matn tiplari, matn mazmuni va matn ma’nosini tushunchalari sohaning asosiy masalalari hisoblanadi.

Matn quyidagi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi: a) ifoda qobig‘i, b) matn semantikasi; v) matn grammatikasi.

Nutqiy akt nazariyasi. Nutqiy akt – individual nutqiy jarayondir. Nutqiy aktning bir necha ko‘rinishlari farqlanadi: lokutiv akt – so‘zlash akti; illokutiv akt – biror ifodani ma’lum kommunikativ maqsad bilan ifodalash; perlokutiv akt – so‘zlovchining tinglovchiga nutqiy ta’sir ko‘rsatish akti.

Kommunikatsiyaga lingvokognitiv yondashish. Kommunikatsiyaga lingvokognitiv yondashishda o‘z nomidan ko‘rinib turganidek muloqotning nafaqat lingvistik, balki kognitiv jihatlari ham tahlil qilinadi. Lingvo-kognitiv yondashishda kommunikatsiyaning ikki asosiy tomoni: 1)umumlisoniy jihat (muloqot amalga oshiriladigan har qanday til, har qanday kommunikatsiya, har qanday diskurs uchun muhim bo‘lgan); 2)milliy-determinantli komponent (milliy diskrus uchun muhim bo‘lgan) ajratib o‘rganiladi. Boshqacha qilib aytganda, mazkur yondashuv bir tomon dan kommunikatsiyadagi umumiyligi tomonlarni, kommunikatsiyaga ta’sir qiladigan barcha omillarni kompleks tahlil qiladi. Boshqa tomon dan kommunikatsiyani tashkil qilgan milliy mental-lisoniy majmuuning asosiy belgilarini tadqiq etish orqali uning milliy o‘ziga xos xususiyatlarini yoritib beradi⁴⁰.

Kommunikatsiya ilmiy bilim tushunchasi sifatida uzoq tarixga ega bo‘lib, uning bir qancha talqinlari mavjud. Masalan, amerikalik psixolog Yu. Ryush (Jurgen Ruesch) kommunikatsiya tushunchasini antropologiya, sotsiologiya, siyosatshunoslik, psixologiya, tilshunoslik va h.k. sohalarda qirqdan ortiq talqini mavjud ekanligini qayd qilgan.

Turli sohalarda ilmiy izlanishlar olib borgan tadqiqotchilarning aksariyati (L.S.Vigotskiy, A.N.Leontev, A.A.Leontev, A.R.Luriya va h.k.) kommunikatsiyani o‘zaro munosabat, “intereaksiya” (o‘zaro ta’sir) sifatida talqin qilishgan va uning ijtimoiy xarakterini ta’kidlashgan.

Kommunikatsiya ikki yoki undan ortiq lisoniy shaxslarning xabarni uzatish, fikr va ma’lumotlar almashish, ya’ni suhbatdoshga u yoki bu shaklda ta’sir qilish maqsadida amalga oshirilgan muloqotdir. Kommunikatsiya ijtimoiy jarayon sifatida namoyon bo‘ladi. U jamiyatda aloqa o‘rnatuvchi vazifani bajaradi.

Kommunikatsiyaning subyekti so‘zlovchi inson bo‘lib, u o‘zining nutqiy faoliyatida 1) lisoniy, 2) nutqiy va 3) kommunikativ shaxs sifatida namoyon qiladi.

⁴⁰ Красных В.В. Этнопсихолингвистика и лингвокультурология. Лекционный курс. –М.: Гнозис, 2002. –С. 21.

Lisoniy shaxs – muayyan bilimlar va tasavvurlar majmuyiga ega bo‘lgan nutqiy faoliyatni namoyon qiluvchi shaxs. *Nutqiy shaxs* – kommunikatsiyada muloqotning u yoki bu strategiya va taktikasini tanlab amalga oshiradigan, u yoki bu lisoniy va nolisoniy vositalardan foydalanadigan shaxs. *Kommunikativ shaxs* – real kommunikatsiyada real harakat qiladigan aniq kommunikativ akting aniq ishtirokchisidir.

Ma’lumki, psixolingvistikada har qanday so‘zlovchi shaxs individual kognitiv makon (IKM), o‘sha jamoaga taalluqli kollektiv kognitiv makon (KKM) majmuyi va o‘zi a’zo bo‘lgan milliy-lingvo-madaniy hamjimiyatning kognitiv bazasiga (KB) ega bo‘ladi. Kommunikatsiya jarayoniga (IKM), (KKM) va (KB) bevosita ta’sir ko‘rsatadi. (KM) va (KB) kodlash va informatsiyani saqlashning mazmuniy shakli sifatida tushuniladigan kognitiv strukturalar bilan shakllantiriladi. Kognitiv strukturalar o‘z navbatida fenomenologik (FKS) va lisoniy kognitiv strukturalar (LKS)ga ajraladi. Kognitiv strukturalar “vositachi” strukturalar orqali namoyon bo‘lgani uchun ularning o‘zini to‘laligicha o‘rganish qiyin. Kognitiv strukturalar so‘zlovchining qobiliyati asosida yotadi va kognitiv strukturalar bilan qobiliyat turlari o‘rtasidagi muayyan o‘zaro munosabatlarni aniqlash imkoniyati mavjud bo‘lib ko‘rinadi. Darhaqiqat, lisoniy va nutqiy qobiliyat shubhasiz, birinchi navbatda lisoniy kognitiv strukturalar, predmet qobiliyat – fenomenologik, madaniy va kommunikativ esa ham unisi, ham bunisi vositasida shakllanadi. LKS olamning lisoniy manzarasini shakllantirishda bevosita ishtirok etadi, olamning obrazli (konseptual) manzarasini shakllantirishda birinchi navbatda FKS “material” bo‘lib xizmat qiladi⁴¹.

Kommunikativ modelning “qutblari” N. G. Komlev qayd qilganidek, so‘zlovchi tafakkuri (“kirish”da) va tinglovchi tafakkuri (“chiqish”da) orqali namoyon bo‘ladi. Tafakkur (lisoniy tafakkur) esa milliy bo‘lib, u fenomen sifatida har doim madaniyat bilan chambarchas bog‘liqdir.

⁴¹ Красных В.В. Этнопсихолингвистика и лингвокультурология. Лекционный курс. –М.: Гнозис, 2002. –С. 23-24.

Madaniyatlararo muloqot. Madaniyatlararo muloqot – nutq sohiblarining madaniy belgilari farqi orqali namoyon bo‘ladigan muloqot ko‘rinishi sifatida. Madaniyatlararo muloqotning lingvistik antropologiya, sotsiologiya, kognitiv lingvistika, kommunikatsiya nazariyasi, sotsial psixologiya, etnolingvistika yutuqlariga asoslanishi.

Fanda madaniyatlararo muloqotga nisbatan Robert Lado tomonidan ilgari surilgan “tili o‘rganilayotgan mamlakat madaniyatiga munosabat”, deb nomlanadigan metodik tamoyil mavjud. Ushbu tamoyilning mazmuni: “Ikki xalqning madaniyati bir-biriga mos kelmaganda (masalan, urush vaqtida) til o‘rganuvchilarni mazkur xalq tilini sevish, bu tilda gapiradigan xalq bilan do‘stona munosabatda bo‘lish, bu xalqqa nisbatan befarq yoki salbiy munosabatda bo‘lmaslik va uning madaniyatiga nisbatan hurmat ruhida tarbiyalash”dan iborat. Biroq hayotda turli til va madaniyatlarga mansub kishilar o‘rtasida talaygina to‘qnashuvlar mavjud.

Madaniyatlararo to‘qnashuvlarning ko‘rinishlaridan biri madaniy shokdir. **Madaniy shok** (cultural shock) termini 1955-yilda Raverl Ober tomonidan taklif qilingan. U xorijiy tilni o‘rganuvchining ajablanish, hayron bo‘lish yoki tili o‘rganilayotgan madaniyat omillarining qabul qilmaslik holatini ifodalaydi. *Madaniy shok* til o‘rganuvchining noto‘liq akkulturatsiyasi yoki u uchun yangi bo‘lgan madaniyat me’yorlarini bilmasligi, tushunmasligidir. Har qanday xorijlik o‘z boshidan madaniy shok holatini kechiradi. O‘z yurtida yashayotgan odam ham begona muhitga tushib qolganda madaniy shokka duch kelishi mumkin. Madaniy shok o‘zga madaniyat bilan tanish bo‘lishiga qarab va yangi faktlarni qiyoslash oqibatida o‘zining madaniyatini unuta borgan sari barham topadi⁴².

Madaniy shok holatini o‘z tajribamdan kelib chiqqan holda ba’zi misollar yordamida izohlashga harakat qilaman. 2000-yili Busan chet tillari universitetining taklifiga binoan koreys talabalariga o‘zbek tilidan dars berish uchun Janubiy Koreyaga bordim. Janubiy Koreyadagi hayotimning dastlabki haftasida bir koreys

⁴² Кавинкина И.Н. Психолингвистика. Пособие для студентов педагогических специальностей высших учебных заведений. –Гродно: ГрГУ, 2010. –С. 162-163; Белянин В. П. Психолингвистика. –М., 2004. –С. 163

talabaga saqich berdim. U saqichni chapillatib chaynashga tushdi. Talaba qiz juda odobli, tarbiyali va nazokatli edi. Bunday qizning madaniyatning oddiy qoidalaridan bexabar ekanligi meni hayratga soldi. Bu voqeadan 3-4 kun o‘tgach, o‘zbek tili kabinetida choy tashkil qilib, bir guruh talabalarni choyga taklif qildim.

Ularni o‘zbek shirinliklari bilan mehmon qildim. Talabalarning aksariyati shirinliklarni chapillatib yeyishga boshlashdi. Men madaniy shok holatiga tushdim. Toqatim toq bo‘lib, koreys talabalarini “tarbiyalab” qo‘ymoqchi bo‘ldim va chapillatib yeyish madaniyasizlik ekanligi, boshqalarda yaxshi tasavvur qoldirmasligini tushuntirdim. Talabalar juda noqulay ahvolga tushishdi, uzr so‘rashdi. Keyin xijolatomuz ohangda chapillatib yeyishning Koreyada biron yegulik bilan mehmon qilgan kishiga nisbatan hurmat, minnatdorchilik, qolaversa, yegulikning juda mazaliligiga ishora ekanligini aytishdi. Men juda noqulay ahvolga tushib qoldim. Shundan so‘ng koreys xalqiga, madaniyatiga hurmatim oshdi.

Akkulturatsiya – madaniyatlarning o‘zaro ta’sir jarayoni bo‘lib, u biron bir xalq yoki biron bir xalq vakili tomonidan boshqa xalq madaniyatining to‘liq yoki qisman qabul qilinishini ifodalaydi.

Akkulturatsiya quyidagi bosqichlarga ajraladi:

1. Boshlang‘ich bosqich – inson chet elga ketish arafasida hayajon, quvonch yoki xavotir va tashvishga tushadi. Boradigan mamlakat haqida ma’lumotlar to‘playdi, til bilan chuqurroq tanishadi.

2. Insonning yangi mamlakatga kelganining dastlabki kunlarida bu mamlakat madaniyatiga ko‘nikish bosqichi. Bu davrda inson o‘zini musofir his qilib, mazkur mamlakat madaniyatining o‘ziga xos xususiyatlarini umuman qabul qilmasligi mumkin.

3. Moslashuv bosqichi. O‘zini musofir his qilgan inson o‘zga madaniyat bilan murosa qilishga boshlaydi.

4. Osoyishtalik bosqichi ba’zan xorijiy davlatga kelganiga 2-3 yil bo‘lganidan so‘ng boshlanishi mumkin. Insonda mazkur mamlakat haqida u yoki bu darajada obyektiv fikrlar shakllanadi.

5. Uyga ketish arafasidagi moslashuv bosqichi. Bu davrda uyiga qaytishi kerak bo‘lgan insonda bir xillik muammolari bilan bog‘liq qattiq hayajon alomatlari rivojlanadi. Ya’ni u hali xorijlik bo‘lgani holda xayoli uyida bo‘ladi.

6. So‘nggi bosqich – qaytishga moslashuv. Xorijdan uyiga qaytgan insonning holati, ya’ni uyiga qaytgan inson o‘z yurtida o‘zini begonadek his qiladi. Ko‘pincha, xorijdagi xotiralar bilan yashaydi, u yerda ko‘rganlarini hozir ko‘rayotganlari bilan qiyoslaydi.

Madaniyatlararo muloqotda madaniy shokka o‘xhash bo‘lgan lingvistik shok hodisasi ham kuzatiladi. **Lingvistik shok** ona tili uchun kulgili, g‘alati va odobdan tashqari hisoblangan lisoniy birliklar qo‘llanilgan xorijiy nutqni eshitgan insonning hayratlanish, kulish yoki xijolat bo‘lish holati. Masalan, turk tilida *düşmek* “yiqilmoq”ni, o‘zbek tilida *tushmoq* “yuqoridan, balandlikdan pastga tomon yo‘nalmoq; biron transportdan tushmoq va h.k.” yoki *zor* “juda qiyin”, *zo‘r* “juda yaxshi” ma’nolarni ifodalaydi. Koreys tilida *oppa* akani, o‘zbek tilida bunga qarama-qarshi ma’nodagi so‘zni anglatadi. Tillararo bunday omonimiya hodisasi “tarjimonning aldoqchi do‘satlari” muammosi sifatida tasvirlanadi.

Paralingvistika. Paralingvistika – tilning verbal va noverbal vositalarini aloqadorlikda o‘rganuvchi sohadir. Nutqning noverbal vostalariga fonatsion, kinetik, grafik vositalar kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Аҳмедова Н. Ўзбек тилида мурожаат бирликларининг семантик-коннотатив тадқиқи: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2008. – 25 6.;
2. Бурханов З. Ўзбек тилида қўмакчилар ва уларга вазифадош келишиклар прагматикаси (пресуппозицион аспект): Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2008. – 27 б.
3. Гальперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования. – М.: Наука, 1981. – 24-25.

4. Гонгало Е.Ф. Теория речевых актов Дж.Остина и Дж.Серля // Материалы V Международной научной конференции «Культура, наука, образование в современном мире». – Гродно, 2011. – С. 45-49.
5. Дейк Т.А. ван. Язык. Познание. Коммуникация. – М.: Прогресс, 1989.
6. Маҳмудов Н. Пресуппозиция ва гап // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1986. – №6. – Б. 28-31;
7. Nurmanov A. va boshqalar. O‘zbek tilining mazmunni sintaksisi. – Toshkent 1992.
8. Новиков А.И. Семантика текста и её формализация: –М.: Наука, 1983.
9. Почепцов О. Основы прагматического описания предложения. – Киев: Вища школа, 1986.
10. Раҳимов У. Ўзбек тилида юкламалар пресуппозицияси: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Самарқанд, 1994. – 25 б.;
11. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008.
12. Седов К.Ф. Дискурс и личность. – М., 2004.
13. Щербакова О.В. Прагматические пресуппозиции как основание интерпретации газетно-публицистического дискурса (на материале интернетверсий британских газет). Автореф. ... дисс. канд. филол. наук. – Ставрополь. 2009.
14. Қурбонова М. Ўзбек болалар нутқи лексикасининг социопсихолингвистик тадқиқи:– Тошкент: Фан ва технология, 2014.
15. Ҳакимов М. Ўзбек тилида матннинг прагматик таҳлили. Филол. фан. док. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2001.
16. Ҳакимов М. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини. Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2011.
17. Ҳакимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. – Тошкент: Академнашр, 2013.

18. Ҳайназарова М. Сўроқ гапларда шакл ва мазмун номувофиқлиги.
Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1999. – 25 б.;

Elektron ta’lim resurslari

19. www.ziyonet.uz
20. www.edu.uz
21. www.Infocom.uz elektron jurnali
22. www.tdpu.uz
23. www.pedagog.uz
24. www.nuuz.uz
25. www.bimm.uz
26. www.literature.uz

IV. AMALIY MASHG‘ULOT MAZMUNI



1-amaliy mashg‘ulot

SOTSIOLINGVISTIKA VA UNING ASOSIY TUSHUNCHALARI

Reja:

1. *Sotsiolingvistika – til va jamiyat munosabatatlari haqidagi fan.*
2. *Sotsiolingvistikaning asosiy tushunchalari.*
3. *Lingvopersonologiya antroposentrik tilshunoslikning yangi yo‘nalishi sifatida.*

Tayanch iboralar: *sotsiolingvistika, lingvopersonologiya, til va jamiyat munosabati, lisoniy shaxs, diskurs tahlili, til me’yori, variantlilik, diglossiya, sotiolekt, argo, jargon, sleng, koyne, interferensiya.*

Sotsiolingvistika tilshunoslikning alohida sohasi sifatida. tilshunoslikning tilni va uning mavjud bo‘lgan ijtimoiy sharoitlar bilan bog‘liqligini o‘rganadigan sohasidir. Ijtimoiy sharoitlar deganda, amaldagi til rivojlanayotgan tashqi shartsharoitlar majmuyi: mazkur tildan foydalanayotgan kishilar jamiyati, bu jamiyatning ijtimoiy strukturasi, til egalarining yoshi, ijtimoiy mavqeyi, madaniyat va bilim darajasi, yashash joyi orasidagi farqlari, shuningdek, ularning muloqot vaziyatiga bog‘liq bo‘lgan nutqiy muomalasidagi farqlar tushuniladi. Demak, ***sotsiolingvistika*** tilning jamiyat hayotidagi roli, uning ijtimoiy tabiat, ijtimoiy funksiya(vazifa)lari, ijtimoiy omillarning tilga bo‘lgan ta’sir mexanizmi bilan bog‘liq masalalarni o‘rganadigan tilshunoslik sohasidir.

Sotsiolingvistikaning dastlabki ilmiy asoslari XIX–XX asrlardagi bir qator olimlarning ishlarida bo‘y ko‘rsatgani e’tirof etiladi, ammo “sotsiolingvistika” termini anchayin keyin, xususan, 1952-yilda (dastlab amerikalik tadqiqotchi

X.Karri tomonidan qo‘llangan) paydo bo‘lganligi qayd etiladi. Til xalqning turmushi, moddiy va ma’naviy madaniyati, jamiyat a’zolarining ijtimoiy munosabatlarini o‘zida xolis aks ettiradiki, bu haqiqat deyarli barcha mutaxassislar tomonidan e’tirof etilganiga ancha bo‘lgan. Tilning murakkab mohiyati va muntazam intizomini xalqning, jamiyatning yaxlit mohiyati va muntazam intizomisiz tushunish ham, tushuntirish ham nomumkin yumushdir, sotsiolingvistikating bosh vazifasi esa ayni shu murakkab muammoni tadqiq va talqin qilishdan iborat. Tilshunoslikning bu yo‘nalishi bilan jiddiy shug‘ullangan aksar mutaxassislar ayni yo‘nalishga, masalan, quyidagicha tavsif beradilar: “Sotsial lingvistika (sotsiolingvistika) til paydo bo‘lishi, taraqqiyoti va yashashining, jamiyatning tilga va tilning jamiyatga bo‘lgan ta’sirining ijtimoiy shartlanganligini o‘rganuvchi tilshunoslik yo‘nalishidir”.⁴³ Tilning ijtimoiy mohiyatga egaligini hech kim inkor etmaydi. Uning paydo bo‘lishining o‘ziyoq, avvalo, ijtimoiy zaminga ega, u jamoa, jamiyat bag‘rida tug‘ilgan va shu jamoaga, jamiyatga, shu jamiyatning xilma-xil ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi.

Shuning uchun ham sotsiolingvistika faqat jamiyatning tilga ta’siriniga emas, ayni paytda tilning jamiyatga ta’siri muammosiga ham asosiy e’tiborni qaratadi⁴⁴.

Sotsiolingvistikating manbalari. Tilning ijtimoiy turli-tumanligi haqidagi dastlabki fikrlar XVII asrning boshlarida vujudga kelgan edi. Jumladan, Ispaniya Salaman universiteti professori Gonsalo de Korreas tilning ijtimoiy turli-tumanligi xususida shunday yozgan: “Tilda viloyatlardagi dialektlardan tashqari, mazkur viloyatlarda yashovchilarning yoshi, mavqeyi, mol-mulki bilan bog‘liq ayrim shakllar ham mavjud bo‘ladi. Bular: qishloq aholisi, avom xalq, shaharliklar, zodagonlar, saroy ahli, tarixchi olimlar, din arboblari, qariyalar, erkaklar, ayollar va hatto, bolalarning tillaridir”⁴⁵.

⁴³ Бондалетов В.Д. Социальная лингвистика. –М.: Просвещение, 1987. –С.10.

⁴⁴ Mahmudov N. O‘zbek sotsiolingvistikasining dolzarb muammolari. “Ўзбек тилшунослигини ривожлантиришнинг долзарб муаммолари”. Respublika olmiy-amaliy konferensiya materiallari. –Toshkent, 2020 -B. 3-14.

⁴⁵ Степанов Г. В. Типология языковых состояний и ситуаций в странах романской речи. –М., 1976. –С. 22.

J.A.Fishmanning “Til jamiyatidagi ma’ruzalar” (“Readings in the Society of Language”) nomli to‘plamiga kirgan 50-yillarning lingvistlari, sotsiologlari, madaniyat antropologlari, dialektologlari va kommunikatsiya (muloqot) sohasi turli mutaxassislarining maqolalarida sotsiolingvistikaga oid muammolar ko‘tarib chiqildi. Kitobning “So‘zboshi”sida J.A.Fishman “til sotsiologiyasi” va “sotsiolingvistika” terminlarining sinonim sifatida qo‘llanishiga e’tibor qaratadi.

Ayrim sotsiolingvistlarning fikricha, sotsiolingvistikaning ildizlarini Amerika tilshunosligidan emas, balki Yevropa, xususan, rus tilshunosligidan izlash kerak⁴⁶.

Sotsiolingvistikaning shakllanishida I.A.Boduen de Kurtenening til hodisalarining ijtimoiy shartlanganligi, shuningdek, tilning qo‘llanishi va rivojlanishiga ekstraliningvistik ijtimoiy omillar ta’siri borasidagi tadqiqotlari katta rol o‘ynagan.

XX asrning birinchi yarmida Fransiya, Rossiya, Chexiya tilshunoslik maktablarida tillarning ijtimoiy tabiatiga katta ahamiyat berilgan. Rus tilshunoslari I.A.Boduen de Kurtene, Y.D.Polivanov, L.P.Yakubinskiy, V.M.Jirmunskiy, B.A.Larin, A.M. Selishev, G.O.Vinokur, fransuz tilshunoslari F.Bruno, A.Meye, P.Lafarg, M.Koen, shved tilshunoslari Sh.Balli, A.Seshe; belgiyalik tilshunos J.Vandries, chek tilshunoslari B.Gavranek, A.Mateziuslarning ilmiy g‘oyalari sotsiolingvistikaning fan sifatida shakllanishiga turtki bo‘ldi. Binobarin, A.Meyening til – jamiyat hayoti bilan bevosita aloqada bo‘lgan ijtimoiy hodisa bo‘lgani uchun uning rivojlanishida differensiatsiya va unifikatsiya jarayonlari mavjudligi; Sh.Ballining tilning barcha vositalari muloqot doirasiga ko‘ra taqsimlanishi, bunday taqsimlanishda ijtimoiy o‘zaro bog‘liqlikning salmoqli o‘rin tutishi; rus va chek tilshunoslaring yagona milliy til egalarining ijtimoiy mavqeyiga bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy differensiatsiya; Y.D.Polivanovning jamiyatning tilga ta’siri to‘g‘ridan to‘g‘ri bo‘lmasligi, jamiyatdagi o‘zgarishlarning til evolyutsiyasini tezlashtirishi yoki sekinlashtirishi mumkinligi haqidagi,

⁴⁶ Беликов В. И., Крысин Л. П. Социолингвистика. –М., 2001. –С. 6-7.

shuningdek, hududiy dialektologiya bilan birga, ijtimoiy dialektologiyaning ham muhimligini asoslash; B.A. Larin, V.M.Jirmunskiy, D.S.Lixachevlarning milliy til ichki tizimini tushunishda jargonlar, argolar va tilning boshqa kodlashmagan sohalarini o‘rganishning muhimligi to‘g‘risidagi g‘oyalari shular jumlasidandir⁴⁷.

XX asrning birinchi yarmidagi sotsiolingvistika diaxron jihatdan talqin qilingan bo‘lsa, ya’ni unda til evolyutsiyasi bilan jamiyat rivojlanishining bog‘liqligiga e’tibor qaratilgan bo‘lsa, XX asrning ikkinchi yarmidagi sotsiolingvistik tadqiqotlar sinxron xarakterga ega bo‘lib, ularda til strukturasi unsurlari bilan jamiyat strukturasi unsurlari orasidagi bog‘liqlik tahlil qilindi.

O‘zbek tilshunosligida tilning ijtimoiy tabiat, jamiyatning tilga ta’siri masalasiga o‘tgan asrning 80-yillarida “Tilshunoslikka kirish” qo‘llanmasida⁴⁸ alohida to‘xtalingan bo‘lsa ham, til va jamiyat muammolari ancha avvalroq tilga olina boshlagan. Fitrat, Elbek, Botu singari jadidlarning asarlarida ozmi-ko‘pmi shunga oid qaydlar bor. M.Mirtojiyev va N.Mahmudovlarning “Til va madaniyat” risolasida ham tilning ijtimoiyligi, davlat tili va til siyosati haqida so‘z ketgan o‘rinlar mavjud. Mutaxassislar S.Mo‘minovning “O‘zbek muloqot nutqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari” nomli doktorlik dissertatsiyasini sotsiolingvistik aspektagi ilk ish sifatida qayd etadilar. Keyingi yillarda bu boradagi tadqiqotlarning sirasi bir qadar kengaydi⁴⁹.

Butun dunyoda kechayotgan globallashuv jarayonlari sotsiolingvistik tadqiqotlarning naqadar zarurligini milliy tillar va ingliz tili ekspansiyasi misolida ayon etib qo‘ydi. Milliy tillar lug‘at tarkibiga katta miqdordagi inglizcha so‘zlarning

⁴⁷ Беликов В. И., Крысин Л. П. Социолингвистика. –М., 2001. –С. 7.

⁴⁸ Содиков А., Абдуазизов А., Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. – Тошкент: Ўқитувчи, 1981. 17–19бетлар

⁴⁹ Сулаймонов М. Ўзбек тилидаги дастхатларнинг социолингвистик хусусиятлари: Филол.фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 2009; Курбонова М. Ўзбек болалар лексикасининг соционихолингвистик тадқики: Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 2009; Раупова Л. Диалогик дискурсдаги полипредикатив бирликларнинг соционпрагматик тадқики: Филол. фан. ...д-ри. дисс. автореф. – Тошкент, 2012; Дадабоев Х., Усманова Ш. Хорижий социолингвистика. Ўқув кўлланма. – Тошкент: Университет, 2014; Йўлдошева Х. Ўзбек тарихий романларининг социолингвистик тадқики: Филол.фан.б.фалс.д-ри. дисс. – Тошкент, 2018; Кўшоқова Б. Тил функционал ривожланишининг социолингвистик таҳлили: Филол.фан.б.фалс.д-ри автореф. – Фарғона, 2019.

kirib borishi til siyosatida o‘zgarishlar qilish zarurligini ham ko‘rsatmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi maqomi va nufuzini tubdan oshirish chora-tadbirlari” to‘g‘risidagi Farmoni o‘zbek tilining davlat tili sifatida qaddini ro‘y-rost tiklashini, ijtimoiy maqomining yanada barqarorlashuvini ta’minladi. Ana shu farmonning amaliy ifodasi sifatida Vazirlar Mahkamasining qarori bilan O‘zbek tili, adabiyoti va folklori institutida “Sotsiolingvistika” bo‘limining tashkil etilishi esa davlat tili va jamiyat munosabatlarini o‘rganishga yo‘naltirilgan tadqiqotlarni kengayishi va kuchayishini ta’minladi. Bu bo‘lim o‘z faoliyatida “o‘zbek tilining rivojlanishi bilan bog‘liq fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlarni amalga oshirish va kengaytirish; o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish borasidagi ilmiy izlanishlarni kuchaytirish; o‘zbek tilining yozma matni meyor va qoidalarni ishlab chiqish; o‘zbek tilining izohli lug‘atlari, davlat tilida ish yuritish bo‘yicha qo‘llanma va adabiyotlar tayyorlash; davlat tilini rivojlantirishga oid normativ-huquqiy hujjatlar loyihamalarini ishlab chiqishda faol ishtirok etish”ga alohida e’tibor beradi. **Sotsiolingvistikaning asosiy tushunchalari.**

Adabiy til (standart) umumxalq tilining ishlangan, sayqal berilgan, grammatik qonun-qoidalarga rioya qilinadigan, ma’lum me’yorga solingan, umummajburiy va qonuniy to‘g‘ri qo‘llanadigan, xalqning turli madaniy ehtiyojlariga xizmat qiluvchi tildir. *Adabiy til* jamiyatning ilm-fan, ta’lim, adabiyot, diplomatiya, xuquqshunoslik, ish yuritish, turli tashkilotlar va ziyolilarning kundalik hayotida ishlatiladigan milliy til ko‘rinishidir. Adabiy tilga muomala jarayonida qo‘llanadigan shevaga, so‘zlashuvga xos bo‘lgan so‘zlarning ishlatilmasligi xosdir.

Ingliz tilshunosligi an’analariiga ko‘ra, adabiy til *standard language, standard English* deb yuritiladi. Shuningdek, *standartlashgan adabiy til* termini ham qo‘llaniladi. K. Naringzning fikricha, standartlashgan adabiy tilning mavjudligi har qanday rivojlangan jamiyat uchun xosdir. Til uchta asosiy vazifani bajaradi: 1) birlashtiruvchi – mazkur til dialektlarida so‘zlashuvchilar orasidagi

tushunmovchilikni oldini oladi; 2) chegaralovchi – tilni boshqa tillardan chegaralash imkoniyatini beradi; 3) nufuzli - tilning hamma variantlaridan ustun turadi.

Adabiy til milliy tilning boshqa shakllaridan quyidagi o‘ziga xos xususiyatlari bilan farqlanadi:

1) *kodlashgan tarmoq*: u barcha adabiy tilda so‘zlashuvchilar uchun yagona va umummajburiy bo‘lib, unga turg‘un me’yor xosdir va bu me’yor ma’lum maqsadda madaniylashadi;

2) *yarim funksional tarmoq*: undan inson faoliyatining turli sohalarida foydalilanadi. Adabiy til har xil sohalarda turli vazifalarda ishlatalishiga ko‘ra a) badiiy-adabiy (proza, poeziya, dramaturgiya) tili; b) adabiy tilning og‘zaki shakli; a) funksional uslublar (ilmiy, rasmiy, publitsistik, diniy)ga ajraladi.

3) adabiy til hududiy dialektlar, sodda so‘zlashuv, ijtimoiy va kasbiy jargonlarga nisbatan *ijtimoiy jihatdan nufuzli* hisoblanadi. Madaniyatning tarkibiy qismi bo‘lgan adabiy tilda milliy til kommunikativ tarmoqlarining barcha vakillari so‘zlashadi.

Adabiy til tarqalishining yetakchi manbalari ta’lim (maktab, o‘quv yurtlari va h.k.) hamda ommaviy axborot vositalari (matbuot, radio va televide niye) hisoblanadi.

Tarixan dialektlar kishilarning bir-biridan uzoqda bo‘lishi, bir-birlari bilan muloqot qilishga halaqit qiladigan turli masofalarda joylashishi natijasida shakllangan. Tabiiyki, bir-biridan uzoqda, shuningdek, iqlimi har xil bo‘lgan hududlarda yashaydigan kishilarning turli ehtiyojlari va tevarak-atrofdagi endemik (turfa) hodisalar nomlashni talab qiladi.

Norasmiy nutq modeli hisoblangan dialektlar hududiy va ijtimoiy turlarga bo‘linadi. ***Hududiy dialektlar*** ma’lum hududning o‘ziga xos hududiy belgilari, binobarin, o‘ziga xos lug‘at, grammatik yoki fonetik xususiyatlariga ega bo‘lgan so‘zlashuv tilidir.

Ijtimoiy dialektga ***sotsiolekt*** deyiladi (bu haqda quyiroqda batafsil to‘xlamiz). Angliyada ijtimoiy dialekt muhim bo‘lib, u hududiy dialektdan ustuvorligi bilan

ajralib turadi. AQShda esa aksincha, hududiy dialekt ijtimoiy dialektga nisbatan salmoqli o‘ringa ega.

Tabiiyki, hududiy yoki mahalliy dialektlar tilning geografik jihatdan bo‘linishini ifodalaydi. Biroq hududiy mahalliylik mazkur til shaklining faqat o‘ziga xos bir tomoni xolos. “Hududiy dialekt” tushunchasi ijtimoiy dialektologiyaning asosiy kategoriyasi hisoblanadi. Dialektning ijtimoiy variantlilagini tahlilga tortilishi sof dialektologik tadqiqotlardan ijtimoiydialektologik tadqiqotlarga o‘tish sanaladi.

Rus sotsiolingvistlari V. I. Belikov va L. P. Krisinlar hududiy dialektlarni milliy til va uning boshqa ko‘rinishlaridan farqlovchi xususiyatlarini quyidagicha belgilashgan:

- 1) dialekt egasi (bu asosan qishloq aholisining keksa avlod vakillari)ning ijtimoiy, yosh va qisman jins jihatdan cheklanganligi;
- 2) dialekt qo‘llanish doirasining oilaviy va maishiy cheklanganligi;
- 3) turli shevalarning o‘zaro ta’siri va dialektlar tizimi o‘rtasidagi aloqalarning qayta qurilishi bog‘liqligi natijasida yarim dialektlarning shakllanishi;
- 4) adabiy til ta’siri ostida o‘ziga xos dialekt nutqining tenglashtirilishi⁵⁰.

Sotsiolingvistikaning tamoyili dialektlar mavjudligining geografik va ijtimoiy-psixologik sabablarini o‘rganishdir. Geografik sabab, bu – tabiiy masofalar va to‘silar, ijtimoiy-psixologik sabablar – obro‘ (ya’ni dialektning nufuzi, ta’siri) va hamfikrlikni ifodalaydi.

Bugungi kunda til egalarining o‘qimishli qismi orasida shaxsning o‘zligini anglash, uning ma’lum mintaqaviy jamoatga tegishlilik belgisi, milliy an'analar bilan munosabatda bo‘lish va h.k. vositasi sifatida dialektlarga bo‘lgan qiziqish borgan sari kuchaymoqda. Dialektlar shu dialekt egasi yoki u mansub bo‘lgan biron guruhning obro‘yi va hamfikrligining ko‘rsatkichiga aylanib bormoqda. Masalan, Rossiyaning janubidagi kazaklikka mansublik obro‘ sanaladi va bu kishining

⁵⁰ Беликов В. И., Крысин Л. П. Социолингвистика. –М., 2001. –С. 30.

o‘tmishi o‘ziga to‘q bo‘lganligini assotsiatsiyalaydi. Yoki Yaponiyada dialekt muayyan ma’noda mintaqaviy, ba’zan ijtimoiy guruhlarning birlashish vositasi sanaladi. Dialekt – “o‘zinikilar” bilan tabiiy muloqot qilish shakli; suhbatdoshga “o‘ziniki” deb qarash qanchalik kuchli bo‘lsa, unga shunchalik keng darajada dialektda murojaat qilinadi. Biroq notanishga, ayniqsa, chet elliklarga adabiy tilda murojaat qilinadi⁵¹.

Dialektlarning muayyan ijtimoiy vazifalarni bajarishini ham kuzatish mumkin: ayrim mamlakatlarda dialektlar nafaqat kundalik muomala va folklor dastalarida, balki ba’zi radioeshittirishlar hamda teatr sahnalarida ham qo‘llanilmoqda.

Sotsiolekt termini lingvistikada XX asrning ikkinchi yarmida paydo bo‘lgan. U *sotsio-* jamiyatga bo‘lgan munosabat va *dialekt* so‘zlaridan tashkil topgan bo‘lib, rus tilidagi “социальный диалект” (ijtimoiy dialect) birikmasining qisqargan shaklidir.

Sotsiolekt – umumiyligi ijtimoiy xususiyatlariga ko‘ra birlashgan ayrim guruhlarning lisoniy ehtiyojlarini qondirish uchun nutq amaliyotida ishlab chiqilgan til shakli. Standart tildan farqli o‘laroq, sotsiolektda ba’zi o‘rinlarda chetga chiqish mumkin. Til ham xuddi tashqi ko‘rinish singari sinflar haqida guvohlik beradi. Sotsiolekt verbal hulq va ijtimoiy ahvolning muvofiqligini ifodalaydi.

Ko‘pchilik davlatlarda mansab pog‘onalaridan ko‘tarilish uchun sotsiolektni bilish zarurdir. Ayniqsa, Buyuk Britaniyada amaldorlik va mavqe sotsiolektga bog‘liq bo‘lgan. Bu yerda U (Upper class “yuqori sinf”) nutqi no-U nutqiga qarama-qarshi qo‘yilgan. Tabiiyki, sotsiolektlar ham oliy zodagonlar, o‘rta (oliy, o‘rta, quyi), ishchilar (oliy, o‘rta, quyi), quyi, past (avom xalq) singari sinflarga ko‘ra farqlangan.

⁵¹ Алпатов В. М. Япония: язык и общество. – М.: «Муравей», 2003 (электрон вариант).

G‘arbda *sotsiolekt* tushunchasi ijtimoiy sinflar, tabaqalarning nutqini ifodalasa, ayrim hududlarda sotsiolekt kasbiy leksika: dengizchilar, konchilar va h.k. tili sifatida izohlangan.

Hozirgi rus sotsiolingvistikasida sotsiolektga quyidagicha ta’rif berilgan: Milliy til doirasidagi biron ijtimoiy guruh (kasbiy, tabaqaviy, yosh va h.k.)ga xos bo‘lgan lisoniy xususiyatlар majmuyiga *sotsiolekt* deyiladi. Masalan, askarlar (askarlar jargoni), o‘quvchilar (maktab jargoni) nutqi, jinoyatchilar jargoni, xippilar argosi, talabalar slengi, turli sohalarda ishlovchilarning kasbiy “tili”, argolari va h.k. sotsiolektlarga misol bo‘la oladi⁵².

“Sotsiolekt” termini turli-tuman, bir-biriga o‘xshamaydigan, ayni paytda umumiy xususiyatlarga ega bo‘lgan lisoniy shakllarni ifodalash uchun qo‘llaniladi. Mazkur shakllar ijtimoiy chegaralangan kishilar guruhining kommunikativ ehtiyojlariga xizmat qiladi.

Sotsiolektlar kommunikatsiyaning butun bir tizimini ifodalamaydi. Chunonchi, u so‘zlar, so‘z birikmalari, sintaktik konstruksiyalar, urg‘u xususiyatlari va h.k. ko‘rinishidagi nutqning o‘ziga xosligidir. Sotsiolektlar asosini milliy tildan deyarli farq qilmaydigan lug‘at va grammatika tashkil qiladi. Masalan, jinoyatchilar argosida o‘ziga xos ma’no, xusan, metaforik ma’no kasb etgan so‘zlar mavjud: *ment* – “militsioner”, *etap qilish* – “qamoqqa jo‘natish”, *narkota* – “narkotik, giyohvand moddalar bilan shug‘ullanish” va h.k. Biroq mazkur so‘zlarning turlanishi, tuslanishi va gapdagi bog‘lanishi umumtil qoliplari va qoidalariga muvofiq amalga oshiriladi. Hatto, so‘zlar ham umumtil leksikasiga mansub bo‘ladi.

“Argo”, “jargon” fransuzcha (argot, jargon)dan kelib chiqqan, “sleng” inglizcha (slang)dan olingan. Bu uch termin ko‘pincha sinonimlar sifatida qo‘llaniladi. Biroq mazkur terminlar ortidagi yashirin tushunchalarni chegaralab olish maqsadga muvofiqdir.

⁵² Беликов В. И., Крысин Л. П. Социолингвистика. –М., 2001. –С. 30.

Jargon – biron ijtimoiy guruh vakillarining o‘z nutqi bilan ko‘pchilikdan ajralib turish maqsadida, o‘zicha mazmun berib ishlatadigan so‘z va iboralari.

Nemis sotsiolingvistikasida yoshlarning ayrim guruhlari tomonidan qo‘llaniladigan, turli sabablar ta’sirida vujudga kelgan maxsus shakllarga jargon deyilgan. H. Lofflerning ta’biricha, bu til makon va zamonda chegara bilmaydi. Har bir avlod o‘zining yoshligida o‘ziga xos u yoki bu shakldan foydalangan⁵³.

Rus tilida bir qator leksemalarning turli ijtimoiy guruh jargonlari ta’sirida yangi ma’no kasb etganini ko‘rish mumkin: *базар* (suhbat), *баян* (shpris), *гнать* (yolg‘on gapirmoq), *грузить* (ongiga singdirmoq), *доход* (zaif odam), *кинуть* (aldamoq), *майкоп* (militisioner)

Tilshunoslikka oid aksariyat adabiyotlarda “jargon” bilan “argo” termini farqlanmasdan, aralashtirib yuborilgan. Aslida argo va jargon o‘ziga xos xususiyatlari va qo‘llanish doirasi ko‘ra bir-biridan farqlanadi.

Argo – jargondan farqli o‘laroq, biron ijtimoiy guruh tomonidan boshqalar uchun atayin tushunarsiz qilib qo‘llaniladigan u yoki bu darajadagi *yashirin*, *yasama* til. Masalan, o‘g‘rilar argosida *shmon qilmoq*, *gopstop qilmoq* iboralari “o‘g‘irlamoq” ma’nosida, giyohvandlar argosida *dori* “giyohvand modda” ma’nosida ishlatiladi. Argolar jargonga nisbatan o‘zining *yashirinlik* xususiyati bilan ham ajralib turadi. Shuning uchun ular ko‘proq jamiyatning yashirin tabaqalari hisoblangan josuslar, jinoyatchilar, o‘g‘rilar, giyohvandlar, fohishalar va h.k.lar nutqida uchraydi.

Sleng - G‘arb tilshunosligi an’analariga xos termin sanaladi. “Sleng” terminiga haligacha aniq ta’rif berilmagan. Turli lug‘atlarda va sotsiolingvistikaga oid adabiyotlarda uning “jargon” (guruhlar jargoni, yoshlar jargoni) terminiga yaqin turishi qayd qilingan⁵⁴.

⁵³ Löffler H. Germanistische Soziolinguistik. - Berlin, 1985. -Р. 133.

⁵⁴ Большой энциклопедический словарь. Языкоznание. - М.: Российская энциклопедия, 1988. -С. 161; Словарь-справочник лингвистических терминов. - М.: Российская энциклопедия, 1985. -С. 287; Беликов В. И., Крысин Л. П. Социолингвистика. -М., 2001. -С. 33.

Sleng so‘zining qachon paydo bo‘lgani noma’lum, biroq u ilk bor yozma ravishda XVIII asrda Angliyada qayd qilingan va o‘sha davrda “haqorat” ma’nosini anglatgan. 1850-yillarga kelib, mazkur termin “noqonuniy” oddiy leksikaning ifodasi sifatida keng qo‘llanila boshladи. Ayni paytda uning jamiyatning quyi tabaqalari qo‘llaydigan *slang-lingo* va “rang-barang” aholi foydalanadigan *argot* singari sinonimlari ham paydo bo‘lgan⁵⁵.

Sleng – muayyan kasb egalari yoki ijtimoiy guruhlarning og‘zaki nutqida qo‘llaniladigan, emotsiyonal-ekspressiv bo‘yoqqa ega bo‘lgan so‘z va iboralar. Slenglar ko‘proq yoshlarning nutqida uchraydi. Masalan, *olmaxon* “o‘zini oladigan, nozlanadigan odam”, *g‘isht* “xunuk”, *sindirdi* “lol qoldirdi” va h.k.

Sleng – jonli, harakatdagi til shakli bo‘lib, u mamlakat va jamiyat hayotidagi har qanday o‘zgarishdan ta’sirlanadi. Sleng qo‘llanish doirasiga ko‘ra: hammaga ma’lum va barcha tomonidan qo‘llanuvchi *umumiyl sleng* (general slang) va muayyan guruhlarga ma’lum bo‘lgan, tor doirada qo‘llanuvchi *xususiy sleng* (special slang)ga ajraladi.

Slenglarning ko‘p so‘zлари va iboralari (ayniqsa, ularning dastlabki shakllanishi davrida) keng ommaga tushunarsiz bo‘ladi. Chunki aksariyat slenglar ko‘chma ma’noda ishlatiladi. Shuningdek, slengizmlar ko‘pincha chet tillardan, ularning dialektlaridan va jargonlaridan o‘zlashtirilgan bo‘ladi. Masalan, “tusovka”, “telejka”, “tachka”, “stukach” rus tilidan, “yuzer” (user), “chat” (chat), ingliz tilidan o‘zlashtirilgan.

Umuman, argo, jargon va sleng – sotsiolektning turlari hisoblanadi. Mazkur til shakllarining har biridagi o‘ziga xos xususiyat u yoki bu guruhlarning kasbiy alohidaligi yoki ularning boshqa jamoalardan ijtimoiy cheklanganligiga bog‘liqdir. Kompyuter jargoni (sleng) kasbiy cheklangan subkodga, o‘g‘rilar argosi, talabalar slengi ijtimoiy cheklangan subkodlarga misol bo‘ladi. Ba’zan guruh ham kasbiy, ham ijtimoiy alohidalik kasb etadi. Bunday guruhning nutqi ham kasbiy, ham

⁵⁵ Partridge E. Slang Today and Yesterday. - London: Routledge and Kegan Paul, 1979. -P.3.

ijtimoiy jargonning xususiyatlariga ega. Masalan, askarlar jargonini olsak, binobarin, harbiylik kasb sanaladi, bu kasb bilan shug‘ullanuvchilar esa boshqa jamoalardan alohida, o‘z holicha yashaydi.

Koyne termini (yunoncha “umumiyl til”) birinchi marta eramizdan avval IV-III asrlarda shakllangan umumyunon tiliga nisbatan qo‘llanilgan. Zamonaviy sotsiolingvistikada *koyne* aholi turli guruhlarining ijtimoiy va lisoniy aloqalari jarayonida shakllangan dialektlararo og‘zaki muloqot vositasi hisoblanadi.

Turli hududiy dialektlarning xususiyatlarini o‘zida mujassamlashtirgan qurama dialektlar yoki ushbu mintaqada mavjud bo‘lgan tillardan biri koyne rolini bajarishi mumkin. Koynelar oldi-sotdi, harbiy, iqtisodiy va madaniy aloqalar maqsadida qo‘llaniladigan, muayyan dialektlar yoki tillar asosida shakllangan dialektlararo yoki millatlararo muloqot tili sifatida namoyon bo‘ladi.

Koynelarni shahar va qishloq koynesiga ajratish mumkin. “Koyne” tushunchasi ayniqsa, ko‘pchilikning turli nutqiy malakalari aralashgan katta shaharlarning lisoniy hayoti uchun dolzarb hisoblanadi. Shahar sharoitidagi guruhlararo muloqot hamma uchun tushunarli bo‘lgan kommunikatsiya vositalarini ishlab chiqishni talab qiladi. Shahar aholisi turli guruhlarining kundalik muloqot ehtiyojiga xizmat qiluvchi shahar koynelari ana shunday paydo bo‘ladi.

Shuningdek, koynelar mintaqalarga, ya’ni muayyan til (yoki tillar) tarqalgan ma’lum hududlarga ko‘ra ham ajratiladi. Masalan, ko‘p tillilik mavjud bo‘lgan Mali Respublikasida (Afrikada) qurama dialektlar shakliga ega bo‘lgan baman tili koyne sifatida qo‘llaniladi.

“Koyne” tushunchasi, odatda, og‘zaki muloqot vositasini ifodalasa-da, ba’zan bu tushuncha tilning yozuv shakllariga nisbatan ham qo‘llaniladi. Masalan, London koynesi ham kundalik so‘zlashuvda, ham shahar boshqaruvi, mahkama tizimida ishlatilgan. Yoki “koyne” termini o‘rta asrlarda G‘arbiy Yevropa davlatlarida ilm, din, huquqshunoslik, san’at sohalarida millatlararo muloqot vositasi vazifasini o‘tagan lotin yozuviga nisbatan ham qo‘llanilgan.

Shuni ham ta'kidlash joizki, muayyan koynelar ayrim adabiy tillarning shakllanishiga asos bo'lishi mumkin. Masalan, London koynesi ingliz adabiy tiliga, Pekin koynesi xitoy adabiy tiliga, Edo koynesi esa yapon adabiy tiliga asos bo'lib xizmat qilgan. Shu bilan birga, butun boshli adabiy tillar ham koyne rolini bajarishi mumkin. Masalan, "Ispan tili o'qituvchilari Yevropa Assotsiasiyasi" (AEPE)ning ma'lumotlariga ko'ra, ispan tili hozir dunyoda o'r ganilayotgan xorijiy tillar orasida birinchi o'rinni egallaydi, ingliz tili chet tili sifatida emas, balki bir "koyne" sifatida qabul qilinadi.

Interferensiya. Ikki tilni biladigan shaxs (bilingv)larning nutqida u qo'llaydigan tillarning o'zaro ta'siri kuzatiladi. Bu o'zaro ta'sir nutqda, tilda, shuningdek, har qanday til osti tizimlarida: fonetikada, grammatikada, leksikada namoyon bo'lishi mumkin.

Interferensiya keng ma'noda ikki tillilik sharoitida til sistemalarining o'zaro ta'sirini; ikki tilli shaxslar nutqida u yoki bu til me'yorining buzilishini ifodalaydi. Tor ma'noda ikki tilli shaxsning og'zaki va yozma nutqida ona tili ta'sirida ikkinchi til me'yorlarining buzilishini anglatadi⁵⁶.

Umuman, ikki tilni biladigan shaxsning bir tilining ikkinchi tilga ko'rsatgan har qanday ta'siri va bu ta'sirning natijasi **interferensiya** deyiladi. Odatda, interferensiya deganda, faqat nazorat qilib bo'lmaydigan jarayonlar tushuniladi, ongli ravishdag'i o'zlashmalar unga taalluqli bo'lmaydi.

Interferensianing yo'nalishlari turlicha bo'lishi mumkin. Ona tilining ikkinchi tilga interferensiyasi ko'proq kuzatiladi. Biroq ikkinchi til asosiy tilga aylanganida u ham ona tiliga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Masalan, o'zbek bolasi ruslar yashovchi hududga ko'chib boradi va rus mакtabida o'qiy boshlaydi. Astasekin rus tili uning ona tilsiga ta'sir qila boshlaydi va u ko'proq rus tilida gapira boshlaydi. Masalan, uning nutqida "*Mam, ujin qilamizmi?*", "*Ponedelnik kuni fizkultura bor*". Yoki ko'p yillar davomida

⁵⁶ Словарь социолингвистических терминов. –М., 2006. –С. 82.

chet elda muhojir bo‘lib yashagan o‘zbeklarning nutqida ham bu ta’sirni ko‘rish mumkin. Masalan, “*Hammasi okey bo ‘ladi*”, “*O, yes! Zo ‘r bo ‘ldi*”.

Rossiyadagi bozorlardan biridagi savdogarlar nutqida “*Такой прайс только за лейбл что ли?*” tarzidagi inglizcha leksik interferensiya asosida qurilgan ruscha jumlanı kuzatish mumkin. Mazkur matnda ruscha *цена* leksemasining o‘rniga inglizcha *price* so‘zi individual qo‘llanilgan bo‘lib, unda yosh (yosh-molodoy), mavzu (tijorat), holat (bozor) va maqom (“chelnok”) singari ijtimoiy omillar ishtirok etgan.

Interferensiya lisoniy aloqalar nazariyasida markaziy tushunchalardan biri hisoblanadi. U til darajasiga muvofiq ravishda quyidagi ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi:

- 1) fonetik interferensiya;
- 2) grammatik interferensiya;
- 3) sintaktik interferensiya;
- 4) leksik-semantik interferensiya.

Fonetik interferensiya ikki tilli shaxs nutqida aloqadagi tillarning fonetik tizimidagi o‘zaro ta’sir hodisasi bo‘lib, talaffuzdagi aksentda namoyon bo‘ladi. Masalan, koreyslarning o‘zbekcha nutqida <r> va <l> undoshlarining farqlanmasligi (karavot → kalavot, marta → malta), <z> undoshining <j> (Zuhra → Juhra, zo‘r → jo‘r, zirak → jirak), <f> undoshining <p> deb talaffuz qilinishi (hafta → hapta, fasl → pasl) yoki ruslarning o‘zbekcha nutqida <q> ning <k> (qiz → kiz, qara → kara), <g> ning <g> (tog‘ → tog, og‘rimoq → ogrimoq) deb talaffuz h.k.

Grammatik interferensiya – ikki tilli shaxs nutqida ona tili grammatik tuzilishining ta’siri. Bu kelishiklarni qorishtirish (uyga boradi → uyda boradi), fe’l zamonlarini nomuvofiq qo‘llash (ertaga keldi), son+ot+-lar qolipini qo‘llash (ikki kishilar) va h.k.

Sintaktik interferensiya – ikki tilli shaxs nutqida ona tili sintaksisi ta’sirida sintaktik qoidalarining buzilishi (Keldi u biznikiga kecha).

Leksik-semantik interferensiya – aloqadagi tillarning leksik-semantik darajadagi o‘zaro ta’siri, so‘zdagi ma’nolar farqliligi natijasida ikki tilli shaxs nutqida me’yorlarning buzilishi; so‘zlarning bog‘lanishidagi buzilish; parafaziya (nutqda biron so‘zni boshqa so‘z o‘rnida noto‘g‘ri qo‘llash) va h.k. Masalan, *dugonam uylandi; og‘aynim turmushga chiqdi*.

Lingvopersonologiya antroposentrik tilshunoslikning yangi yo‘nalishi sifatida. Lingvistik adabiyotlarda til va jamiyat munosabati, tilning sotsial farqlanishi, jamiyatdagi lisoniy vaziyat, til ijtimoiyligi, til va ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy omillarning tilga ta’siri, ikkitillilik va ko‘ptillilik, til siyosati, millat va milliy til muammolari sotsiolingvistikaning muhim vazifalari deyiladi. Shu jihatdan tilning sotsial farqlanishi turli maslak, turlicha kasb-kor, turfa aqliy-ruhiy imkoniyatdagi jamiyat a’zolaridan tashkil topganligidan kelib chiqadi va bunga “mos ravishda har qaysi ijtimoiy guruhning faol hamda nofaol lug‘at tarkibi bo‘ladi⁵⁷”. Jamiyat a’zolarining hududiy mansubligi ham, tabiiyki, har xil. Binobarin, sotsial va hududiy dialektlar ijtimoiy guruhlarning maslak, kasb-kor, aqliy-ruhiy imkoniyat va hududiy kelib chiqishga ko‘ra tildan foydalanish tarzlaridir.

Shu ma’noda hozirgi zamon sotsiolingvistikasidan sotsial va hududiy dialektlarni shunchaki qayd qilish, lingvistik tabiatini tushuntirishgina emas, balki ulardan unumli foydalanish yo‘llarini ko‘rsatish ham talab etiladi. Zero, adabiy tilni boyitish, o‘zlashma terminlarga milliy muqobillarni topishda sotsial va hududiy dialektlar muhim leksik-semantik manba bo‘lishi aniq. Birgina sud-huquq tizimi leksikasida *afv, vaj, garov, gumondor, gumonlanuvchi, ijrochi, ish, tadbir, o‘zlashtirish* so‘zlarining ixtisoslashgan, maxsusslashgan yangi ma’nolaridan adabiy tilni boyitish va rasmiy uslub imkoniyatini kengaytirishda foydalansa bo‘ladi⁵⁸.

⁵⁷ Нурмонов А. Таңланган асарлар. III жилдлик. I жилд. – Тошкент: Akademnashr, 2012. –Б. 172.

⁵⁸ Odilov Y. Til va jamiyat: o‘zaro ta’sirlashuv va takomillashuv. “O‘zbek tili taraqqiyoti va xalqaro hamkorlik masalalari”. Respublika olmiy-amaliy konferensiya materiallari. -Toshkent, 2020.

Sotsiolingvistikaning obyektini belgilashda tilshunoslarni ikki guruhgaga ajratish mumkin. Tilshunoslarning bir guruhi butun tilga tegishli bo‘lgan ijtimoiy jarayonlarni, til va jamiyat munosabatlarini o‘rganishadi. Biroq nutq so‘zlovchisiga, tilning kelib chiqishiga, uning umumiy xususiyatlariaga munosabat bildirishmaydi. Boshqa bir guruh tilshunoslar esa turli tillarning individual variantliliga va mikrojarayonlar (shaxslararo muloqot, kichik guruhlar muloqoti)ga e’tibor qaratishadi.

Zamonaviy sotsiolingvistikaning asoschilaridan biri bo‘lgan amerikalik tadqiqtchi U.Labov sotsiolingvistikani “tilni uning ijtimoiy kontekstida” o‘rganadigan fan sifatida belgilagan. Boshqacha qilib aytganda, sotsiolingvistlar tilga ham, uning ichki tuzilishini o‘rganishga ham e’tibor qaratmaydilar. Ular, asosan, u yoki bu jamiyatdagi insonlarning tildan qanday foydalanishlarini tadqiq etadilar. Bunda tilga ta’sir qiluvchi barcha ijtimoiy omillar: muloqotga kiruvchilarning yoshi, jinsi, madaniyati va bilim darajasi, kasbidan tortib, to aniq nutqiy aktning xususiyatlarigacha hisobga olinadi⁵⁹.

U.Braytga ko‘ra, sotsiolingvistik tadqiqtolar til va jamiyat munosabatlari bilan bog‘liq bo‘ladi. Biroq bunday qarash ham noaniqlikni keltirib chiqaradi.

Agar biz bunga aniqlik kiritadigan bo‘lsak, unda til va jamiyat shunchaki qandaydir birliklarning majmuyi emas, balki ular struktura hisoblanadi. Mazkur holatda sotsiolingvistning vazifasi til strukturasidagi va ijtimoiy strukturadagi o‘zaro munosabatlar tizimini ochib berish bo‘ladi. Ya’ni sotsiolingvistlarning vazifasi lingvistik strukturaning sistematik qo‘shma variatsiyalashuvini ko‘rsatib berish, hatto, u yoki bu yo‘nalishning tasodifiy aloqasini ochib berishdan iboratdir. Sotsiolingvistikaning asosiy vazifalaridan biri mazkur variatsiyalarning haqiqatan ham “erkin” emasligi, ularni sistematik, sotsial farqlar bilan o‘zaro aloqada

⁵⁹ Labov W. Phonological correlates or social stratification. AA, 66 (6), part 2, 1964. –P. 170.

ekanligini ko'rsatib berishdir. Til farqlilagini ana shunday keng planda tushunish sotsiolingvistikaning asosiy obyekti sanaladi⁶⁰.

Fransuz tilshunoslarining fikricha, diskurs tahlili, til me'yori, variantlilik, diglossiya kabi muammolar sotsiolingvistikaning obyekti hisoblandi.

Sotsiolingvistika tilning ijtimoiy tabiatini, uning ijtimoiy funksiyalarini, shuningdek, ijtimoiy omillarning tilga ta'sirini o'rganadigan fandir. Ikki yoki uch til amal qilayotgan jamiyatlarda sotsiolingvist quyidagi savollarga javob olishi uchun bir necha til funksiyalari mexanizmini ularning o'zaro ta'sirida tadqiq qilishi lozim. Ular ijtimoiy hayotning qaysi sohalarida qo'llaniladi? Mavqeyi va funksiyalariga ko'ra ular orasidagi o'zaro munosabat qanday bo'ladi? Qaysi til "hukmronlik qiladi", ya'ni qaysi til davlat tili yoki asosiy muloqot vositasi sifatida rasman qabul qilingan va qaysi tillar so'zlashuv tili hisoblanadi? Ikki tillilik qanday sharoitlarda va qaysi shakllarda yuzaga keladi? Bunga o'xhash savollarga javob berish sotsiolingvistikaning salohiyatiga kiradi⁷⁰.

Demak, sotsiolingvistikaning *obyekti* til yoki tillarning ijtimoiy faoliyatidir. Til muayyan ijtimoiy strukturaga ega bo'lgan jamiyatda faoliyat ko'rsatadi, shunga ko'ra, sotsiolingvistikani tilni ijtimoiy kontekstda o'rganadigan fan deyish mumkin.

Sotsiolingvistikaning predmetini belgilashda nemis sotsiolingvistlari quyidagi fikrlarni bildirishgan. Jumladan, A.N. Dittmar sotsiolingvistikaning predmetini shunday izohlagan: "Sotsiolingvistika predmetini tilshunoslik va ijtimoiy fanlarning metodlaridan foydalanib: Kim kim bilan qaysi tilda, qanday ijtimoiy muhitda va qanday maqsadda gaplashyapti, nutq aktining oqibati qanday bo'ladi? degan qator savollarga javob beruvchi tarzida tushuntirish mumkin" ⁶¹. D.Vunderlix sotsiolingvistikada alohida kommunikativ jarayonlarning ichida bevosita kuzatiladigan turli omillarning o'zaro aloqasini tadqiq etilishi, ya'ni jamiyatning

⁶⁰ Брайт У. Введение: параметры социолингвистики // Новое в лингвистике. Вып. VII. - М., 1975. - С. 34-41. ⁷⁰ Беликов В. И., Крысин Л. П. Социолингвистика. -М., 2001. -С. 9.

⁶¹ Dittmar N. Soziolinguistik. Exemplarische und kritische Darstellung ihrer Theorie, Empiric und Anwendung. – Frankfurt: Main, 1973. –P. 389.

ijtimoiy differensiatsiyasining qandaydir asos sifatida o‘rganishilishini, uni nutqiy muomalaning rol, vaziyat va mavzu turlariga ajraladigan sotsiologik o‘lchovlari bilan bog‘lanishini istiqbolli yondashuvlardan biri, deb hisoblagan⁶².

Amerika sotsiolingvistikasining tadqiqtchisi S.M.Ervin-Tripp kommunikatsiya jarayonidagi partner (muloqot ishtirokchi)larning verbal muomalasiga sotsiolingvistikaning asosiy predmeti sifatida qaraydi:

“Sotsiolingvistika ishtirokchilarining holatga, mavzuga, o‘zaro ta’sir funksiyalariga, shakl va baholarga ko‘ra verbal muomalasi bilan ish ko‘radi. Mazkur ta’rifning markazi verbal muomala (so‘zlashuv va uning muqobillari) hisoblanadi. Bu o‘rinda sistemani to‘liq tavsiflash uchun lingvistik belgilarning funksional muqobillari sanalgan ishoralar va tasvirlarni ham kiritish lozim bo‘ladi. Biroq verbal muomala yuqori darajadagi to‘liq sistema sifatida o‘zini har joyda namoyon qiladi. Shunga ko‘ra, uni qulay boshlang‘ich nuqta deyish mumkin”⁶³.

Buyuk Britaniya sotsiolingvistikasining predmeti, asosan, turli qatlamlar va sinflarning til qo‘llashini o‘rganish bilan cheklanadi. Binobarin, “til to‘siqlari”, “yoysi va yig‘iq kod”, “kompenzatsiyali ta’lim” kabi masalalar keng tadqiq etiladi. Mazkur muammolar sotsiolingvistik xususiyatga ega bo‘lsa-da, hodisalarning asl mohiyati ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan bog‘liq.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda, sotsiolingvistikaning ***predmetini*** qisqacha “inson va jamiyat”, deb belgilash mumkin.

XX asr oxirlarida lingvopersonologiyaning alohida fan yo‘nalishi sifatida shakllanishining zaruriyati haqida ko‘p gapirilgan bo‘lsa-da, faqat XXI asr boshlariga kelib, bu ilmiy yo‘nalishning tayanch tushunchalari, terminologik apparati, tadqiq usullari ishlana boshlandi. Xususan, personologiyani shakllantirish g‘oyasini ilk bor N. S. Trubetskoy ilgari surgan, uning fikricha, «shaxs (lichnost) bo‘linmas va takrorlanmas sifat, shu bois inson aql-idroki orqali uni to‘la bilib

⁶² Wunderlich D. Zum Status der Soziolinguistik // Aspekte der Soziolinguistik. - Frankfurt, 1971. –P. 316-317.

⁶³ Эрвин-Трипп С. М. Язык. Тема. Слушатель. Анализ взаимодействия // Новое в лингвистике. Вып. VII. Социолингвистика. - М., 1975. - С. 336.

bo‘lmaydi⁶⁴, lingvopersonologiya haqidagi fikrlar Boduena de Kurtene, A. A. Potebnya, F.I.Buslayev, P.O.Afanasevlarning qarashlarlarida ham ilgari surilgan. Jumladan, P.O.Afanasev o‘quvchi bolalar shaxsi tipologiyasini yaratgan, 1996-yilda bu yangi yo‘nalishning shakllanganligi haqida V.P.Neroznak ma’lumot berdi,⁶⁵ G.I.Bogin nutqiy faoliyat subyekti va nutq (matn)ni shakllantirish va qabul qilishga tayyor til egasi sifatidagi lisoniy shaxs modelini yaratdi. N.V.Melnik esa lingvopersonologik tadqiqotlarning ikki aspekti: personologik o‘lchovdagi lingvistika va lingvistik o‘lchovdagi personologiyani ajratdi. Jahon tilshunoslarining shu kabi tadqiqotlarida lingvopersonologiyaning turli muammolari hal etilgan. O‘zbek tilshunosligida lingvopersonologiya bugungi kunda alohida o‘rganilishi taqozo etilayotgan yo‘nalish ekanligi soha vakillariga ochiq ayon bo‘lib turibdi.

Y. V.Goritskayaning qayd etishicha, lingvopersonologiya arsenalida umumnazariy metodlar, jumladan, lingvistik metodlar hamda tilshunoslikning bu yo‘nalishida faoliyat olib borayotgan olimu mutaxassislar: struktur modellashtirish asosini yaratgan Y.N. Karaulov, V.V.Drujinin, A.A.Vorobjitov (lingvoritorik konstruksiyalar metodikasi), O.S.Issers (kommunikativ portretlashtirish metodikasi), K.F. Sedov (kelib chiqishni portretlashtirish metodikasi)lar tomonidan ilgari surilgan metodikalar bilan ish ko‘rmoqda. Lisoniy shaxs va uning konsepsiyasini aniqlashga turlicha yondashuv, yuzaga kelgan variativlik *lisoniy shaxs fenomenining* mavjud tadqiq metodlarini tizimlashtirishni taqozo etadi.⁶⁶

Y.V. Goritskaya lisoniy shaxsni o‘rganishda qo‘llanilayotgan asl lingvistik metodlar sifatida quyidagilarni ko‘rsatgan: 1) yozma matn, xususan, o‘tmish lisoniy shaxsi va umumlashma lisoniy shaxs uchun qo‘llanilayotgan badiiy personajlar diskursi asosida lisoniy shaxsni tiklash metodi; 2) og‘zaki nutq materiallari asosida

⁶⁴ Трубецкой Н. С. История. Культура. Язык. – М.: Прогресс, 1995. – С. 106-107.

⁶⁵ Нерознак В. П. Лингвистическая персонология: к определению статуса дисциплины // Сборник науч. трудов Моск. гос. лингв. ун-та. – М., 1996. Вып. № 426. Язык. Поэтика. Перевод. - С. 112-116.

⁶⁶ Горицкая Ю.В. Лингвоперсонология: обзор методов и методик // http://www.irbis-nbuv.gov.ua/cgi-bin/irbis_nbuv/cgiirbis_64.exe?

zamondoshlarimiz lisoniy shaxsida qo‘llanilayotgan nutqiy, kam miqdorda nutqiy bo‘lgan hodisalar, portretlashtirishni aniqlash metodi.⁶⁷

Lingvopersonologiyada til nafaqat o‘zaro ziddiyat va aloqa-bog‘lanishdagi birliklar yig‘indisidan tashkil topgan ochiq sistema sifatida, balki inson omilisiz voqelana olmaydigan, uning ruhiyati, ijtimoiy mavqeい, jinsi, etnik kelib chiqishi, milliy-madaniy qarashlari kabi tashqi omillar bilan bog‘liq holda nutqda reallashuvchi imkoniyat tarzida o‘rganilmoqda.

Bugungi kunda lingvopersonologiya (yoki lingvistik personologiya) alohida fan yo‘nalishi sifatida rivojlanish yo‘lidan bormoqda. Garchi lingvopersonologiya tilshunoslikning mustaqil fan yo‘nalishi sifatida tilshunoslikka to‘la kirib bormagan bo‘lsa-da, uning o‘rganish obyekti, maqsad, vazifalarining ma’lumligi, bu sohada olib borilayotgan tadqiqot ishlari uning mustaqil fan tarmog‘i sifatida shakllanish bosqichida ekanidan dalolat beradi.

Olamning lisoniy manzarasi tahlilida lisoniy shaxs masalasini o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Mazkur muammoning echimi tashqi olamning verbal ifoda topishida lisoniy shaxsning o‘rni masalasiga doir nazariy qarashlarni yangi bilimlar bilan boyitishi muqarrar. Tashqi olamning tilda aks etishi, bunda lisoniy shaxsning o‘rni masalasi tahlili tilga lingvopersonologik aspektida yondashuvni taqozo etadi.

Tilni o‘rganishga lingvopersonologik aspektida yondashuv til birliklarini uning egasidan ayri holda o‘rganishga imkon qoldirmaydi. Tilga lingvopersonologik yondashuv asosida til egalarining tildan foydalanishi jarayonida unga ta’sirini va bu jarayonda ishtirok etuvchi tashqi omillarni aniqlash imkoniyati tug‘iladi.

Lingvopersonologiyaning maqsadi lisoniy shaxs xususiyatlari (yoshi, kasbkori, ruhiyati, mavqeyi kabilalar)ning tilga, aniqrog‘i nutqqa ta’sirini o‘rganishdan iborat. Bu sohada lingvopersonologiya sotsiolingvistika, psixolingvistika, gender lingvistikasi bilan bir nuqtada kesishadi.

⁶⁷ Горицкая Ю.В. Кўрсатилган мақола.

Lingvopersonologik tadqiqot obyekti sifatida jamoaviy lisoniy shaxslar bilan birga, jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘lgan alohida lisoniy shaxs (adiblar, san’atkorlar, jamoat arboblari va h.k.lar) ham olinishi mumkin.

Ba’zi tadqiqotlarda muayyan kasb-kor egalari lisoniy shaxs sifatida tadqiq obyekti sifatida olingan bo‘lsa, ayrim tadqiqot ishlarida jins jihatdan farqlanuvchi lisoniy shaxslar tahlilga tortilganligini kuzatish mumkin. Masalan, A.G.Fomin tomonidan gender belgisiga ko‘ra farqlanuvchi lisoniy shaxslarning nutqi o‘rganilgan. V.D. Lyutikova lisoniy shaxsni dialekt egasi sifatida o‘rganib, uning nutqiga xos dialektal belgilarni tahlil qilgan. O.V. Lutovinova virtual lisoniy shaxsni tadqiq obyekti sifatida tanlagan.⁶⁸

Tilshunoslikda lisoniy shaxs muammosini turli tomondan o‘rganuvchi mustaqil ilmiy paradigma - lingvopersonologiyaning shakllanishi ham tilda inson omili muammosini o‘rganish bilan bog‘liq.

Bugungi kunda lingvopersonologiyaning muhim vazifasi lisoniy shaxs nazariyasini ishlab chiqish, lisoniy shaxs tipologiyasini yaratishdan iboratdir. Lingvopersonologiyaning tadqiq obyekti vazifasini alohida olingan lisoniy shaxslarning nutqiy portreti bajaradi.

TOPSHIRIQLAR MAZMUNI

1-topshiriq. Ushbu savollarga javob bering.

1. Sotsiolingvistikaning manbalarini ayting.
2. Sotsiolingvistikaning asosiy masalalari haqida fikr-mulohazalariningizni bayon eting.
3. Sotsiolingvistikaning obyekti va predmeti haqida so‘zlang.
4. Lingvopersonologiya yo‘nalishining asosiy xususiyatlarini ayting.

⁶⁸ Фомин А.Г. Психолингвистическая концепция гендерной языковой личности: Автореф. дисс. ... док. филол. наук. - Барнаул, 2004. - 46 с.; Лютикова В. Д. Языковая личность: идиолект и диалект: Автореф. дисс. ... док. филол. наук. - Екатеринбург, 2000. - 41 с.; Лутовинова О. В. Языковая личность в виртуальном дискурсе: Автореф. дисс. ... док. филол. наук. - Волгоград, 2013. - 42 с.

5. Shaxs haqidagi ta’limot, ya’ni personologiyani shakllantirish g‘oyasi ilk bor qaysi tilshunos tomonidan qo‘llangan?
6. Sotsiolekt haqida fikr bildiring.
7. Interferensiya hodisasini tavsiflang.

2-topshiriq. Qiyidagi tushunchalarni izohlang.

Hududiy dialektlar –

Sotsiolekt –

Jargon –

Argo –

Sleng – Koyne

—

So‘zlashuv tili –

Interferensiya –

Diglossiya –

3-topshiriq. Test.

1. Shaxs haqidagi ta’limot, ya’ni personologiyani shakllantirish g‘oyasini ilk bor qaysi tadqiqotchi olim ilgari surgan edi.
 - A. N. S. Trubetskoy
 - B. Y.E.Proxov
 - C. V.V.Vinogradov
2. Tilshunoslikda kim o‘quvchi bolalar shaxsi tipologiyasini yaratgan va o‘quvchilarning tavsif bilan cheklanuvchi, kuzatuvchi, his qiluvchi, olim (rasmiy) kabi tiplarini farqlagan.
 - A. N. S. Trubetskoy
 - B. Y.E.Proxov
 - C. P.O.Afanasev
3. Qaysi tilshunos lingvopersonologik tadqiqotlarning ikki aspekti: personologik o‘lchovdagi lingvistika va lingvistik o‘lchovdagi personologiyani ajratdi.

- A. V.A.Maslova
 - B. N. V. Melnik
 - C. P.O.Afanasev
4. G.I.Bogina lingvopersonologiya sohasiga uch parametr (til ko‘nikmalari-fonetik, leksik, grammatik qoidalari)ni ko‘paytirish yo‘li bilan qancha komponentlarni kiritadi?
- A. 60 ga yaqin
 - B. 40 ta
 - C. 20 ga yaqin
5. “Asadbeklarining menga qulluq qilib kelsin. Istasham, oldiga bir burda non qo‘yaman, istasham, suyak tashlayman”. Ushbu jumlalar Tohir Malikning “Shaytanat” asarida qaysi qahramon nutqidan olingan?
- A. Salimboyvachcha
 - B. Xongirey
 - C. Sadirqimorboz
6. ...U ba’zida o‘zicha: “Bunaqa qo‘rqib kutgandan urib yuborganlari yaxshi edi”, deb qo‘yardi. Ushbu jumla qaysi asar qahramoniga tegishli?
- A. “O‘tgan kunlar” asarida Oftoboyim
 - B. “Shaytanat” asarida Manzura
 - C. “Kecha va kunduz” asarida Qurvonbibi
7. ...Mana ko‘ring, mana shu g‘o‘zalarga shira tushgan....Ushbu jumla qaysi kasb egalariga tegishli?
- A. agronom nutqiga
 - B. shifokor nutqiga
 - C. sotuvchi nutqiga
8. “-Qani, beriroq kel-chi, -dedi... barmog‘i bilan jurnaldagi bahoni ko‘rsatib,-bu baholarni kim qo‘ydi?” Ushbu jumla qaysi asardan va qaysi qahramon nutqidan olingan?
- A. Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” asarida Solih Maxdum

- B. Xudoyerberdi To‘xtaboevning “Sariq devni minib” asarida Otajon Azizovich
- C. Habibulla Qodiriyning “Otam haqida” asaridan

4-topshiriq. Tarqatma materiallar bilan ishlash.

1-tarqatma

- 1.*Antroposentrism* so‘zi qaysi tildan olingan va lug‘aviy ma’nosi nima?
- 2.*Antroposentrism* termini dastlab qanday g‘oyaga nisbatan qo‘llangan.
- 3.O‘zbek tilshunosligida antroposentrik yo‘nalishdagi qanday til sohalari mavjud?

2-tarqatma

- 1.“Har qanday matn ortida lisoniy tizimlarni egallagan muayyan shaxs turadi” degan fikrni izohlashga harakat qiling?
- 2.Matn tadqiqida so‘zlovchi – matn – tinglovchi (matn muallifi – matn – retsipient) dan iborat uchlik deganda nima nazarda tutilgan?
- 3.Tilshunos olim Sh.Safarovning antroposentrik paradigmaning yuzaga kelishi haqidagi fikrlarini qanday tushundingiz? **3-tarqatma**

1.S.Dovlatov “inson shaxsiyatining 90 foizini til tashkil qiladi” deganda nimani nazarda tutadi?

2.Bugungi kunda lisoniy faoliyat bajaruvchisi bo‘lgan shaxs omilini o‘rganayotgan tilshunoslik sohalari qaysilar?

3.Tilshunoslikka “til egasi” kategoriyasining kiritilishi tilshunoslikda qanday tushunchalarning yanada faollashishini taqozo etdi. **4-tarqatma**

1.Struktur tilshunoslikdagi “inson faktori” tushunchasi bilan pragmalingvistik talqindagi “inson faktori” tushunchasi nimasi bilan farqlanadi.

2.Shaxs haqidagi ta’limot, ya’ni personologiyani shakllantirish g‘oyasini ilk bor N. S. Trubetskoy ilgari surgan edi. Uningcha lingvopersonologiya....

3.Lisoniy shaxs va uning konsepsiyasini aniqlashga turlicha yondashuv, yuzaga kelgan variativlik *lisoniy shaxs fenomenining* mavjud tadqiq metodlarini tizimlashtirishni taqozo etadi. Fikringizni bildiring?

5-tarqatma

- 1.Lingvopersonologiyada induktiv metod nimani anglatadi?
- 2.Tilni o‘rganishga lingvopersonologik aspektida yondashuv til birliklarini uning egasidan ayri holda o‘rganishga imkon qoldirmaydi. Mazkur fikrni izohlang.
- 3.Lingvopersonologiyaning sotsiolingvistika, psixolingvistika, gender lingvistikasi bilan bir nuqtada kesishgan ko‘rinishiga o‘zbek badiiy asarlaridan parchalar keltiring.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Алпатов В. М. Япония: язык и общество. – М.: «Муравей», 2003 (электрон вариант).
2. Беликов В. И., Крысин Л. П. Социолингвистика. –М., 2001. –С. 30.
3. Большой энциклопедический словарь. Языкоznание. - М.: Российская энциклопедия, 1988.
4. Брайт У. Введение: параметры социолингвистики // Новое в лингвистике. Вып. VII. - М., 1975. - С. 34-41.
5. Wunderlich D. Zum Status der Soziolinguistik // Aspekte der Soziolinguistik. - Frankfurt,1971. –P. 316-317.
6. Горицкая Ю.В. Лингвоперсонология: обзор методов и методик // http://www.irbis-nbuv.gov.ua/cgi-bin/irbis_nbuv/cgiirbis_64.exe?
7. Dittmar N. Soziolinguistik. Exemplarische und kritische Darstellung ihrer Theorie, Empiric und Anwendung. – Frankfurt: Main, 1973.

8. Labov W. Phonological correlates or social stratification. AA, 66 (6), part 2, 1964.
9. Löffler H. Germanistische Soziolinguistik. - Berlin, 1985. –Р. 133.
10. Лутовинова О. В. Языковая личность в виртуальном дискурсе: Автореф. дисс. ... док. филол. наук. - Волгоград, 2013. - 42 с.
11. Лютикова В. Д. Языковая личность: идиолект и диалект: Автореф. дисс. ... док. филол. наук. - Екатеринбург, 2000. - 41 с.;
12. Нерознак В. П. Лингвистическая персонология: к определению статуса дисциплины // Сборник науч. трудов Моск. гос. лингв. унта. – М., 1996. Вып. № 426. Язык. Поэтика. Перевод. - С. 112-116.
13. Нурмонов А. Танланган асарлар. III жилдлик. I жилд. – Т.: Akademnashr, 2012.
14. Нурмонов А. Парадигма ва унинг оламнинг лисоний манзараси (ОЛМ)га муносабати. Танланган асарлар. III жилд. - Тошкент: Akademhashr, 2012.
15. Odilov Y. Til va jamiyat: o‘zaro ta’sirlashuv va takomillashuv. “O‘zbek tili taraqqiyoti va xalqaro hamkorlik masalalari”. Respublika olmiy-amaliy konferensiya materiallari. -Toshkent, 2020.
16. Partridge E. Slang Today and Yesterday. - London: Routledge and Kegan Paul, 1979. –Р.3.
17. Русский ассоциативный словарь. В 2 т. Т. I. От стимула к рекции: Ок. 7000 стимулов / Ю.Н. Караполов и др. - М.: ACT-Астрель, 2002. -784 с.
18. Слобин Д., Грин Дж.. Психолингвистика. – М., 1976. – С.141.
19. Словарь-справочник лингвистических терминов. - М.: Российская энциклопедия, 1985.
20. Словарь социолингвистических терминов. –М., 2006. –С. 82.
21. Трубецкой Н. С. История. Культура. Язык. – М.: Прогресс, 1995.

22. The Associative Thesaurus of English (ATHAЯ) (Ed.: Kiss, G., Amstrong C., Milroy, R.) Univ. Of Edinb., 1972.
23. Фомин А.Г. Психолингвистическая концепция гендерной языковой личности: Автореф. дисс. ... док. филол. наук. - Барнаул, 2004. - 46 с.;
24. Эрвин-Трипп С. М. Язык. Тема. Слушатель. Анализ взаимодействия // Новое в лингвистике. Вып. VII. Социолингвистика. - М., 1975. - С. 336.
25. English Associative Thesaurus [Электронный ресурс]. URL: <http://www.thesaurus.ru/dict/dict.php>.
26. Experimental Psychology. Vol. II. / Ed. by J.W. King and L.A. Riggs. Holt, Rinehart and Winston Inc., 1972. - 740 p.

2-amaliy mashg‘ulot:

KOMMUNIKATIV TILSHUNOSLIK **Reja:**

- 1. Matnning mazmuniga ko‘ra turlari.**
- 2. Matn ko‘rinishlari va ularning belgilari**
- 3. Matnda badiiy aktuallashgan lingvistik vositalar.**

Tayanch tushunchalar: kognitologiya, konsept, matn, diskurs, kognitiv yondashuv, semasiologik nazariya, semasiologik grammatika nazariyasi, tilni mantiqiy analiz qilish nazariyasi, nutqiy tafakkur nazariyasi, nominatsiya nazariyasi yoki onomasiologik nazariya, germenevtika, nutqiy faoliyatning psixologik konsepsiyalari .

1-topshiriq. Ifoda maqsadi va mazmuniga ko‘ra matn tiplarini tavsiflang.

1.Hikoya mazmunli matnlar (Le texte narratif - narrativ matn):

“hikoya qilish, bayon berish” Monologik
nutq
xotiralar
esdaliklar
ertak
rivoyatlar

2. Tasviriyl matnlar (Le texte descriptif - deskriptiv matn):

“tasvirlash”

Monologik nutq, partonimik tasvir – birlamchi xususiyat – unga aloqador boshqa jihatlarni tasvirlash tinglovchiga noma'lum bo'lgan biror kishi, joy, hayvonot va nabotot olamiga mansub mavjudot , narsa-buyum, voqe-a-hodisa batafsil tasvirlab berish maqsadida tuzilgan matn

3. Izoh mazmunli matnlar (Le texte argumentatif – argumentli matn):

“izohlash, asoslah, isbotlashga, o‘zini oqlashga urinish, himoya maqsadida turli sabab keltirish

Dalil va izohlar

4.Didaktik matnlar (Le texte explicatif – eksplikativ matn):

“pand-nasihat qilish, tarbiyalash”

Shunday maqol bor, mashoyihlar demishlarki, ulug‘lar (qadimgilar)da shunday gap bor, derlarkim, shunday rivoyat (o‘git, voqe-a, masal) eshitganman

Pand-nasihat qilish, turli hayotiy voqealar vositasida tarbiyalash yoki aytilganlardan xulosa chiqarishga o‘rgatish istagi asosida tuzilgan matn.

Maqsadga erishish uchun maqol, matal, aforizm, turli hayotiy voqealar, rivoyatlar, masallardan namuna sifatida foydalanish .

Didaktik maqsadda keltirilgan tayyor matnlar *didaktemalar* deyiladi.

5. Xabar mazmunli matnlar (Le texte informatif – informativ matn):

“xabar berish, ma’lumot uzatish”

Narrativ, deskriptiv, argumentli, didaktik kabi matn tiplari tarkibida keladi. biror voqea-hodisa haqida xabar berish maqsadida tuzilgan yoki havola qilingan matn.

6. Buyruq mazmunli matnlar (Le texte injonctif – injonktiv matn):

“buyurish, da’vat, undash” buyruq hamda maslahat ohangi yetakchilik qiladigan, buyruq maylidagi
gaplardan tuzilgan, biror ishni bajartirish yoki turli taqiqlashlarni ifoda etadigan matn

7. Hissiy ifoda mazmunli matnlar(Le texte expressif - ekspressiv matnlar):

“hissiy ifoda”
insonning ichki kechinmalarini, voqelikka munosabatini, o‘ziga xos pafos bilan ifodalash maqsadida tuzilgan matnlar

2-topshiriq. Jadvalda keltirilgan tushunchalarga mos matn turini yozing.

Nº	Matn belgilari	Matn turi
1 .	“hikoya qilish, bayon berish” monologik nutq xotiralar esdaliklar ertak rivoyatlar	

3	<p>“tasvirlash”</p> <p>Monologik nutq, partonimik tasvir – birlamchi xususiyat – unga aloqador boshqa jihatlarni tasvirlash “izohlash, asoslah, isbotlashga, o‘zini oqlashga urinish, himoya maqsadida turli sabab keltirish”; dalil va izohlar</p>	
4	<p>“pand-nasihat qilish, tarbiyalash”</p> <p><i>Shunday maqol bor, mashoyihlar demishlarki, ulug‘lar (qadimgilar)da shunday gap bor, derlarkim, shunday rivoyat (o‘git, voqeа, masal) eshitganman</i></p>	
5	“xabar berish, ma’lumot uzatish”	
.	Narrativ, deskriptiv, argumentli, didaktik kabi matn tiplari tarkibida keladi.	
6	<p>“buyurish, da’vat, undash”</p> <p>buyruq hamda maslahat ohangi yetakchilik qiladigan, buyruq maylidagi gaplardan tuzilgan, biror ishni bajartirish yoki turli taqiqlashlarni ifoda etadigan matn</p>	

7	<p>“hissiy ifoda” insonning ichki kechinmalarini, voqelikka munosabatini, o ‘ziga xos pafos bilan ifodalash maqsadida tuzilgan matnlar</p>	
---	--	--

3-topshiriq. Badiiy aktuallashgan vositalarni misollar asosida tushuntiring.

Iboralar:

Aftini burishtirmoq – qimirlasam, biqinim sanchadi, – dedi Saidiy xuddi hozir sanchadiganday aftini burishtirib. (41-bet)

Bo‘yniga olmoq – Saidiy xayrlashib chiqdi, qishloqqa borishni bo‘yniga olib qo‘ydi. (83-bet)

Dami ishiga tushmoq – Saidiy Yoqubjonning aytganini qilganida Kenjaning dami ichiga tushdi. (124-bet)

Oqizmay-tomizmay yetkazmoq – So‘z o‘rni kelganda, u Saidiyda zakovat belgilari ko‘rganini, bu yigit oddiy studentlardan yuqori turishini so‘zlar, buni esa Munisxon oqizmay-tomizmay Saidiyga yetkazar edi. (67-bet)

Ta’bi ochilmoq – U qishloqqa kelganida dastlab yangi muhitga o‘rganolmay ko‘p qiynalgan edi, ammo o‘rganganidan so‘ng, ta’bi ochilib ketdi. (89-bet)

Yuragi dov bermaslik – Munisxon paltosining yoqasini ko‘tardi-yu, eshikdan chiqishga yuragi dov bermay, turib qoldi. (43-bet)

Uhda qilolmaslik – Shef bilan ishlab ham uhda qilolmayotirsizmi? (82-bet)

Qulog bermoq – Qiz uning so‘ziga o‘zi ustidan chiqarilgan hukmni tinglaganday quloq berar edi. (35-bet) **Metaforalar:**

Shervachcha – Assalomu alaykum, shervachcha, – dedi bir keksa tovush va bu tovushning egasidan ilgari «to‘q» etib hassa kirdi. (88-bet) – *Shervachcha, – dedi chol ikkala qo‘lini ko‘kragiga qo‘yib, xirillab, - gazetaga bersalar...* (89-bet)

Dori – Yo bosh og‘rig‘ini dori bilan bosaylikmi? Bir ryumka-bir ryumka...
(129bet)

Yaqinlik iplari – Bora-bora ikki oradagi Ehson tug‘dirgan yaqinlik iplari uzila boshladi. (42-bet)

To‘ngak - «To‘ngak» bilan professor o‘rtasida o‘tgan bu gap butun universitetga dovruq bo‘ldi. (43-bet) **Metonimiylar:**

Zal – Yana qarsak zalni ko‘targuday bo‘ldi. (94-bet) Butun zal domлага qaradi (94-bet)

Katta, mayda – U «katta» yozish uchun avval «mayda» bilan o‘quvchi orttirish kerak, dedi. (136-bet)

Oshiqlar – Xususan, Kenja Saidiyning «Oshiqlar»i ochiqdan-ochiq sho‘ro hukumatining xotin-qizlar ozodligi to‘g‘risidagi siyosatiga zarba berish, (...) Abbosxonning o‘zi tasalliga muhtoj bo‘lib qoldi. (139-bet)

Fakultet – Fakultetni tashlashga o‘zingizda bu qadar majburiyat sezsangiz noiloy davom etmang, chunki bu narsa fakultetdan haydalishga olib keladi. (106bet)

Firqa – Shunda, albatta firqa ko‘rsatgan yo‘ldan boramiz. (94-bet)

Universitet – Universitet chaqirtirayotir. (91-bet) «To‘ngak» bilan professor o‘rtasida o‘tgan bu gap butun universitetga dovruq bo‘ldi. (43-bet) **Shisha** – Buni esa ko‘proq shisha osonlashtiradi. (112-bet)

Foydalaniladigan adabiyotlar

1. Боймирзаева С. Матн мазмунида темпораллик семантикаси. –Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2009.
2. Гальперин И.П. Текст как объект лингвистического исследования. – М.:Наука, 1981. - 140 с.
3. Каримов С. Ўзбек тилининг бадиий услуби. -Самарқанд, 1992.
4. Йўлдошев М. Бадиий матннинг лингвопоэтик таҳлили асослари. -Т., 2007.
5. Йўлдошев М. Бадиий матн лингвопоэтикаси. Т.: Фан, 2008.

6. Йўлдошев М. Бадиий матннинг лисоний таҳлили. –Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2010.
7. Мамажонов А. Текст лингвистикаси. -Т., 1989.
8. Мамажонов А. Матн синтаксиси. –Фарғона, 2016.
- 9.Мукаррамов М. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг илмий стили. –Т.: Фан, 1984.
- 10.Muhamedova S., Saparniyazova M. Matn lingvistikasi. O'quv qo'llanma. -Т., 2016
- 11.Тожиев Ё., Маллабоев А. Нутқ маданияти ва услубият асослари. -Т.: Иқтисодиёт университети, 2006.
- 12.Хожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент, 2002.
– 168 б.
- 13.Қурбонова М. Йўлдошев М. Матн тилшунослиги. –Тошкент: Университет, 2014.

Internet saytlari

14. Қурбонова М. Матн тилшунослиги. Ўқув-услубий мажмуа. Т., ЎзМУ кутубхонаси, 2015.
15. <http://en.wikipedia.com>
16. <http://www.brocku.ca/english/courses/4F70/struct.html>
17. <http://www.twirp.cs.com>
18. www.ziyo-net.uz

3-amaliy mashg'ulot

PSIXOLINGVISTIKA – NUTQIY FAOLIYAT HAQIDAGI

FAN

Reja:

- 1. Psixolinguistikaning psixologik va lingvistik manbalari**
- 2. Psixolinguistikaning mustaqil fan sifatida shakllanishi**
- 3. L.S.Vigotskiy – rus psixolinguistikasining asoschilaridan biri**

Tayanch tushunchalar: *individ, kommunikatsiya, nutq subyekti, nutq obyekti, motiv, ehtiyoj, niyat, nutqiy maqsad, nutqiy faoliyat, nutqni yaratish, nutqni qabul qilish, inson omili, vaziyat omili, eksperiment tamoyili, til sistemasi, til materiali.*

Psixolinguistikaning asosiy tadqiqot **obyekti** nutqiy faoliyat subyekti bo‘lgan shaxs, til egasidir. Rus tilshunosligida mazkur soha rivojiga katta hissa qo‘shgan A.A.Zalevskaya psixolinguistikaning vazifasini “tilning amal qilinishini psixik fenomen sifatida tavsiflash va tushuntirish” bo‘lishi kerakligini ta’kidlagan edi⁶⁹.

Psixolinguistika fanining **obyekti** – u o‘rganadigan individual obyektlar majmuyidan iborat. Turli fanlarda umumiy, bir tadqiqot obyekti bo‘lishi mumkin. Biroq ularning predmeti bir-biridan farq qilishi, ya’ni ayni obyektga bo‘lgan qarashi turlicha bo‘lishi mumkin. Jumladan, inson ham tibbiyot, ham psixologiyaning tadqiqot obyekti sanaladi. Lekin har bir fan unga o‘zining qarashidan kelib chiqqan holda yondashadi. Til va til belgilarining tizimi lingvistika, adabiyotshunoslik, antropologiya, dasturlash va psixolinguistika fanlarining tadqiqot obyekti bo‘lishi mumkin. Ya’ni mazkur fanlarning umumiy obyekti – turli maqsadlarda va turli vaziyatlarda qo‘llaniladigan inson tili va nutqi bo‘lishi mumkin⁷⁰.

Psixolinguistika fanining obyektini aniqlashtirishda A.A.Leontev qayd qilgan *freym* tushunchasini keltirish maqsadga muvofiqdir. Freym u yoki bu obyekt yoxud hodisani tasvirlovchi o‘lchovlar tizimini ifodalaydi. Masalan, “Ishlovchining

⁶⁹ Залевская А.А. Введение в психолингвистику. Учебник для студентов высших учебных заведений. – М., 1999. –С.25.

⁷⁰ Белянин В. П. Психолингвистика. –М., 2004. –С. 8.

shaxsiy varaqasi” (o’lchovlari aniq shaklda keltirilgan)da mazkur shaxsnинг eng kamida uni ishga qabul qilinishi bilan bog‘liq xususiyatlarini tasvirlovchi freym mavjud bo‘ladi. Fanda modellashtirilgan aniq hodisalar, odatda, freym tamoyiliga ko‘ra tavsiflanadi. Masalan, psixologiyada aksariyat hollarda “faoliyat freymi” ishlatiladi. Unda hodisalarga muayyan savollar (Maqsad? Motiv? Sharoit? Qanday faoliyat turi? va h.k.) beriladi va mazkur o’lchovlar asosida hodisalar tavsiflanadi. Psixolingvistikadagi turli yo‘nalishlar uning obyekti bo‘lgan aniq nutq hodisalariga turli freymlarning “prizmasi” orqali yondashishadi⁷¹⁷².

Biroq har qanday holatda, nutqqa har qanday metodologik yondashuvda ushbu freymning tuzilishida nutq subyekti, nutq obyekti yoki adresat, motiv yoki ehtiyoj, niyat yoki nutqiy maqsad, nutqiy muloqotning mazmuni va predmeti, lisoniy yoki semiotik vositalar tavsifi e’tiborga olinadi.

Xullas, psixolingvistikaning obyekti qanday tushunilishidan qat’iy nazar, har doim nutqiy hodisalar yoki nutqiy vaziyatlar majmuyidan iborat bo‘ladi. Bu obyekt tilshunoslik va boshqa nutqiy faoliyat bilan bog‘liq fanlar bilan umumiy hisoblanadi.

Nutqiy faoliyatning tuzilishi. Insonning barcha boshqa faoliyatlari kabi nutqiy faoliyat ham darajali yoki bosqichli tuzilishga ega. I.A.Zimnayaning fikricha, nutqiy faoliyat *qo‘zg‘atuvchi-motivasion*, *yo‘naltiruvchi-tadqiqot* va *ijro* kabi uch bosqichdan tuzilgan bo‘ladi.

Birinchi bosqichda faoliyat ehtiyojlar, motivlar va maqsadlarning o‘zaro ta’sirida amalga oshadi. Bunda faoliyatning asosiy manbasi ehtiyojdir. Umumiyligi psixologiyada ehtiyoj shaxsni faoliyatni amalga oshirishga bo‘lgan xohishi, intilishi, urinishi, deb izohlanadi. Buni nutqiy faoliyatga “gapishtini xohlayman” yoki “jim turolmayman” ko‘rinishida tatbiq qilish mumkin.

Nutqiy faoliyatning barcha ko‘rinishlarida uning asosiy manbasi kommunikativ-bilish ehtiyoji va unga mos bo‘lgan kommunikativ-bilish motivi

⁷¹ Леонтьев А.А. Основы психолингвистики: Учебник для студ. высш. учеб. заведений. –М.: Смысл, 1999. –С. 15-

⁷² .


hisoblanadi. Bu ehtiyoj nutqiy faoliyatning predmetida o‘z o‘rniga ega bo‘lgandagina fikrlar mazkur faoliyatning motiviga aylanadi.

Nutqiy faoliyat birinchi bosqichining muhim tarkibiy qismlaridan biri *nutq niyati* bo‘lib, u ehtiyojni nutqning turg‘un motiviga aylanishida katta rol o‘ynaydi. Nutq niyati nutqiy faoliyat subyektining bu faoliyatni amalga oshirishga qaratilgan ongi, irodasi va hissidir.

Nutqiy faoliyatning *ikkinch bosqichini* faoliyatni amalga oshirish sharoitlarini o‘rganishga, faoliyat predmetini aniq belgilashga va uning xususiyatlarini yoritishga qaratilgan yo‘naltiruvchi-tadqiqot (yoki analitik) qism tashkil qiladi. Ayni paytda bu bosqich nutqiy faoliyatning rejalahtirilishi, dasturlanishi va ichki-ma’noviy tuzilishidir.

Bu bosqichning birinchi unsuri nutqiy faoliyat subyektining bu faoliyatni sharoitlarda amalga oshirishdagi (birinchi galda nutqiy kommunikatsiya sharoitida) turlicha plandagi yo‘nalishini ko‘zda tutadi. U nutqiy faoliyat subyekti yo‘nalishining quyidagi savollar bo‘yicha “Kim bilan”, “Qayerda”, “Qachon”, “Qaysi vaqt oralig‘ida” nutqiy faoliyat amalga oshishini ko‘zda tutadi. Ikkinci bosqichdagi mazkur unsurning sxemasini quyidagicha ko‘rsatish mumkin:

Nutqiy muloqotning holati



Mazkur bosqichning ikkinchi unsuri nutqiy faoliyat doirasidagi muhim ongli harakatlar – nutqiy ifodalarni rejalashtirish va dasturlashga asoslanadi. Psixologiyada rejalashtirish faoliyatning (nutqiy harakatlar va ularni tarkib toptiruvchilar) asosiy bosqichlarini ajratishga va ularni amalga oshirishdagi ketmакetlikni aniqlashga qaratilgan aqliy harakat sifatida tushuniladi. Umuman, harakatlar ikki xil tashqi (masalan, amaliy) va ichki (aqliy) bo‘ladi. Genetik jihatdan aqliy harakatlar (faoliyat tizimidagi) tashqi harakatlardan (masalan, nutq organlarining faolligi) kelib chiqqan bo‘lib, ular oxirgi interiorizatsiya (lot. interior—ichki; tashqi ijtimoiy strukturalarni o‘zlashtirish natijasida inson psixikasining ichki strukturasining shakllanishi) jarayonining natijasi sanaladi.

O‘z navbatida faoliyatni dasturlash tuzilgan rejani kengaytirish, faoliyat dasturiga aylantirishni bildiradi. Bu o‘rinda rejalashtirish sifatida nutqning turli shakllari va ko‘rinishlari, dasturlash sifatida til belgilari ishtirok etadi.

Nutqni rejalashtirishga yoyiq nutqiy ifodaning (to‘liq matnning) rejasini tuzish, unda bayon qilinajak asosiy ma’noviy qismlarni (matn tarkibidagi ost sarlavhalar, abzaslarni) aniqlash misol bo‘la oladi. Bunga matnning kompozision tuzilishida ishtirok etadigan kirish, asosiy qism, xulosa va ularning asosiy ma’nosini umumlashtirish va aniqlash ham kiradi. Keyin ifodani dasturini tuzishda bu asosiy ma’noviy qismlar predmetlik mohiyati nuqtayi nazaridan (matnni mikromavzularga, ma’noli axborot unsurlarga va h.k. ajratish asosida) batafsil aniqlashtiriladi; shuningdek, nutqiy faoliyatdagi nutq predmetining ifoda shakli tanlanadi, nutq uslubi aniqlanadi, ba’zi til ifoda vositalari tanlanadi.

Uchinchi bosqich ijro bosqichidir. Bu bosqich nutqiy ifodalarni amalga oshirish (yoki qabul qilish va tushunish)ni, shu bilan birga, faoliyatni amalga oshishini va uning natijalarini nazorat qilish amallarini o‘z ichiga oladi.

Nutqiy faoliyatning psixologik mexanizmi. So‘nggi yillarda “mexanizm” so‘zi falsafa, psixologiya, psixolingvistika va lingvistika sohalarida keng qo‘llanib kelinmoqda. Biroq tadqiqotchilarning hech biri mazkur so‘zga aniq ta’rif bermagan. Uning ma’nosini faqat kontekstga qarab chiqarib olish mumkin. Ayrim

tadqiqotchilar *mexanizm* ostida biron narsaning tuzilishini, uning struktura xususiyatlarini tushunishsa, boshqalari ayrim harakat va amallar yoki jarayonlar majmuyini, yana bir guruh mualliflar esa struktura va jarayonlarning o‘zaro munosabatini, struktura, jarayon va uning natijalari, funksiyalari va ijtimoiy sharoitlarni tushunishadi. I.A.Zimnayaning ta’kidlashicha, “*miya mexanizmi*”, *nutq mexanizmlari*” va h.k. metaforik ma’noda qo’llaniladi. Aslida “mexanizm” tushunchasi “biron narsani biron nima vositasida harakatga keltirish”ni ifodalaydi⁷³.

Nutq oliy psixik funksiyalarning eng murakkab shakllaridan biri sanaladi. Nutqiy faoliyat ko‘p ma’nolilik, ko‘p darajali struktura, harakatchanlik va boshqa psixik funksiyalar bilan aloqadorligi bilan tavsiflanadi. Nutqiy faoliyatning amalga oshishi qator murakkab psixologik mexanizmlar bilan ta’minlangan bo‘ladi.

Nutqni anglash nutqiy faoliyatning asosiy mexanizmi hisoblanadi. Bu mexanizm nutqning mazmun (birinchi navbatda) hamda tuzilish tomonini fikrlash analizi bilan ta’minlaydi. Nutqni anglash mexanizmi miya katta yarim shari qobig‘ining analitik-sintetik faoliyati vositasida – barcha asosiy aqliy harakatlar va amallarning ta’siri (qiyoslash, taqqoslash, to‘ldirish, tasniflash, analiz va sintez) orqali amalga oshiriladi. Anglash uchun birinchi navbatda nutq predmeti (nutqiy faoliyatda borliqdagi fragment, hodisa, voqealarni aks ettiradigan) lozim bo‘ladi. Mazkur mexanizm asosida nutq kommunikatsiyasining motivi va maqsadi to‘liq ravishda tushuniladi. Nutqiy faoliyat va uning natijalarini nazorat qilish mumkin bo‘ladi. Shuningdek, bu mexanizmning ishtirokisiz nutqiy faoliyatni rejalashtirish va dasturlashni amalga oshirib bo‘lmaydi.

Nutqni xotirada tutish, shuningdek, nutqiy xotira mexanizmining ahamiyati ham nutqni anglash mexanizminikidan qolishmaydi. U nutq jarayonining barcha tomonlarini, xususan, nutqning “mazmun jihatni” va uning lisoniy ifodasini ta’minlaydi. Nutqda uning predmetining aks etishi, ya’ni borliqdagi u yoki bu hodisani – inson xotirasidagi bilimlari va atrofni o‘rab olgan dunyo haqidagi

⁷³ Зимняя И. А. Психология обучения неродному языку. –М., 1989. –С. 166.

tasavvurlarining faollashuviziz mavjud bo‘lishi mumkin emas. Shuningdek, uning ongda mavjud bo‘lgan til belgilari haqidagi obrazlar tasavvuri va ularni nutqiy muloqot jarayonida qo‘llash qoidalarining faollashuviziz ham bo‘lishi mumkin emas.

Nutqni oldindan aytish mexanizmi psixolingvistikada hali to‘liq o‘rganilmagan. Bu o‘rinda N.A.Bernshteyn tomonidan harakatni psixofiziologik tashkil qilish nazariyasi doirasida yaratilgan “kelajakning modellari”dan foydalanish maqsadga muvofiqli. N.A.Bernshteyn erkin harakatni yuzaga kelishi va amalga oshishini tadqiq qilar ekan, uning ketma-ketligini quyidagi bosqichlarda ko‘rsatib beradi:

- 1) vaziyatni idrok qilish va baholash;
- 2) faollanduv natijasida vaziyat qanday bo‘lishini aniqlash;
- 3) buning uchun nima qilish kerak; 4) buni qanday qilish lozim.

Shunday qilib, nutqiy faoliyatning har qanday turi murakkab mexanizm vositasida amalga oshadi.

Nutqiy faoliyat turlari. Nutqiy faoliyat so‘zlash, eshitish, yozish va o‘qish vositasida amalga oshiriladi. Mazkur vositalar kishilarning o‘zaro munosabat turlari sifatida verbal muloqot jarayonida yuzaga chiqadi.

Nutqiy faoliyatning barcha turlari umumiy jihatlarga ega bo‘lish bilan birga, bir qator mezonlarga ko‘ra bir-biridan farqlanadi. I.A.Zimnayaning fikricha, bunday o‘lchovlarning asosiylariga: a) verbal (nutqiy) muloqotning xarakteri; b) verbal muloqotda nutqiy faoliyatning roli; d) xabarni qabul qilish va uzatishda nutqiy faoliyatning biror maqsadga qaratilganligi; e) fikrni shakllantirish usuli bilan aloqasi; f) tashqi ifodalashning xarakteri; g) nutqiy faoliyatning qaramaqarshi aloqadorlik jarayonidagi o‘zaro ta’sir xarakteri kabilar kiradi.

Nutqiy faoliyat turlarining o‘ziga xos xususiyatlarini qayd qilingan mezonlardan kelib chiqqan holda quyidagicha tahlil qilish mumkin:

Nutqiy faoliyat nutqiy muloqotning o‘ziga xosligiga ko‘ra og‘zaki muloqot va yozma muloqot vositasida amalga oshiriladi. Nutqiy faoliyatning birlamchi

turlariga so‘zlash va eshitish kiradi. Nutqiy faoliyatning mazkur turlari ontogenetika insonni boshqalar bilan muloqot qilish usullari sifatida birinchi shakllanadi. Nutqiy faoliyatning bu turlariga nisbatan insonda “tug‘ma tayyorgarlik” mavjud bo‘ladi.

Birinchidan, ushbu “tug‘ma tayyorgarlik” insonda psixik intellektual faoliyatni amalga oshirishga mo‘ljallangan maxsus apparat – bosh miya qobig‘i katta yarim sharlarining mavjudligi bilan belgilanadi. Insonni nutqiy faoliyatni egallash imkoniyati bilan ta’minlovchi miyaning ustki qobig‘ining qismlari tug‘ilishgacha ma’lum darajada (taxminan uchdan ikki) shakllangan bo‘ladi. U bola hayotining dastlabki yilida faol rivojlanadi va nutqiy faoliyatning “nutqgacha bo‘lgan davri”, deb nomlanadi.

Ikkinchidan, “tug‘ma tayyorgarlik” ko‘pincha inson organizmining muayyan anatomik qismlari, xususan, nutq apparatining periferik (sirtqi) tuzilishi bilan belgilanadi. Bolaning tug‘ilish vaqtida nutqning mazkur anatomik-fiziologik apparati ma’lum darajada shakllangan bo‘ladi. Bolaning “nutqgacha bo‘lgan davri”da uning “psixofiziologik tayyorgarligi” yuz beradi.

Nutqiy faoliyatning ikkilamchi turlariga o‘qish va yozish kiradi. Nutqiy faoliyatning ushbu turlari eshitish va so‘zlash asosida shakllanadi. Kelib chiqishiga ko‘ra ikkilamchi bo‘lgan o‘qish va yozish nutqiy faoliyatning murakkab turlari hisoblanadi. Pedagogik amaliyotning ko‘rsatishicha, bola nutqiy faoliyatning mazkur turlarini egallashi uchun aniq bir maqsadga qaratilgan maxsus ta’lim kerak bo‘ladi.

Muloqot jarayonida bajarayotgan roliga ko‘ra nutqiy faoliyat reaktiv va inisial turlarga bo‘linadi. So‘zlashish va yozish nutqiy muloqotning initsial jarayoni bo‘lib, ular eshitish va o‘qishni qo‘zg‘atuvchi omil hisoblanadi. O‘z navbatida, bunga javoban eshitish va o‘qish nutqiy muloqotning reaktiv jarayonini ifodalab, so‘zlashish va yozish jarayoni uchun zaruriy shartlardan sanaladi.

Nutqiy faoliyatning har xil turlari turfa fikrlarning shakllanish yo‘llari, nutq shakliga mos bo‘lgan nutqiy muloqot turli shakllarining yuzaga kelishini talab qiladi.

I.A.Zimnayaning aniqlashicha, bunday shakllar uch xil: tashqi og‘zaki, tashqi yozma va ichki nutq ko‘rinishida bo‘ladi.

O‘ylashni fikrning ichki nutq vositasida shakllanish jarayoni sifatida, so‘zlash va yozuvni esa muloqotning og‘zaki va yozma shakllarida fikr yuzaga kelishining tashqi usullari sifatida talqin qilish mumkin.

Og‘zaki ekspressiv nutqning monologik, dialogik va guruhiy shakllari mavjud.

Nutqiy faoliyatning turlari mazkur jarayonlarni boshqaruvchi qaramaqarshi aloqa xususiyatiga ko‘ra ham bir-biridan farq qiladi. Masalan, nutqiy faoliyatning so‘zlash va yozuv turlarida ijrochi organ (artikulyasion organ, yozadigan qo‘llar)dan bu faoliyatni “tashkil qiluvchi” dasturga, bosh miya qismiga qaratilgan asab-mushakli qarama-qarshi aloqa amalga oshiriladi. Ushbu qarama-qarshi aloqa ichki nazorat va tahrir vazifasini bajaradi. **Savol va topshiriqlar**

1-topshiriq. Quyidagi namuna asosida assotsiativ eksperiment o‘tkazing.

Assotsiativ eksperiment (associative experiment) semantikaning psixolingvistik tahlili eng ko‘p ishlangan texnika hisoblanadi.

Assotsiativ eksperimentning o‘tkazish tartibi. Tajriba o‘tkaziluvchilarga yoki respondentlarga muayyan stimul so‘zlarning ro‘yxati beriladi va ulardan xayollariga birinchi kelgan reaksiya so‘zlarni aytish so‘raladi. Odatda, har bir respondentga 100ga yaqin so‘z beriladi va ularga 7-10 daqiqa ichida javob berish so‘raladi. Assotsiativ lug‘atlardagi reaksiya so‘zlarning aksariyati universitet va kollejlardagi stimul til ona tili bo‘lgan 17-25 yosh orasidagi talabalardan olingan.

Eksperiment maqsadi: respondentning internet haqidagi tasavvurlarini, xususan, internet bilan bog‘liq o‘rtacha assotsiativ qatorlarni tushunishi; so‘zlar orasidagi assotsiativ munosabatlarning joylashuvi va tahlili, ularning obyektiv qonuniyatlarga asoslanganligini aniqlash.

Eksperiment sharti: Auditoriyaga anketa ko‘rinishidagi internetga oid stimul-so‘zlar ro‘yxatini o‘z ichiga olgan stimul material tarqatiladi. Anketani olgan respondentlar stimul-so‘zlarni o‘qishadi va bu so‘zlarni o‘qish jarayonida

xayollariga birinchi kelgan bitta reaksiya-so‘zni darhol stimul-so‘zlarning qarshisiga yozishadi.

Eksperiment vaqtি: 3 daqqa.

ANKETA

1. Ismi-sharifi _____

2. Kursi _____

3. Yoshi _____

Nº	Stimul-so‘zlar	Reaksiya-so‘zlar
1	internet	
2	kompyuter	
3	tarmoq	
4	chat	
5	forum	
6	e-mail	
7	veb-sahifa	
8	informatsiya	
9	kommunikatsiya	
10	blog	
11	skype	
12	parol	

Assotsiativ eksperimentning quyidagi turlari mavjud:

Erkin assotsiativ eksperimentda respondentlarning reaksiyasiga hech qanday chegara qo‘yilmaydi.

Yo ‘naltirilgan assotsiativ eksperimentda respondentlardan ma’lum grammatik yoki semantik guruhdagi assotsiatsiyalarni (masalan, otlarga mos sifat topish) berish so‘raladi.

Zanjirli assotsiativ eksperimentda respondentlardan bir qancha stimul so‘zlarga (masalan, 20 soniya ichida 10 ta reaksiya so‘z berish) assotsiatsiyalar berish so‘raladi.

Xullas, assotsiativ eksperiment ishonarli lingvistik va psixolingvistik informatsiya beradi. Ommaviy eksperiment materiallari tilning ma’lum assotsiativ guruhlari, madaniy xususiyatlari, ijtimoiy differensiatsiyasini aniqlashda, sotsiologik va ijtimoiy-psixologik tadqiqotlarni amalga oshirishda qo‘l keladi.

2-topshiriq. Noam Xomskiy transformatsion-generativ grammatikasining mazmun-mohiyatini izohlang.

Transformalar:

Qushlar sayrashyapti → Qushlarning sayrashi

(Kimdir) til o‘rganyapti → Til o‘rganish

(Kimdir) yozuvchini taklif qilyapti → yozuvchini taklif qilish

Qayd qilingan barcha transformatsiyalarda fe’l harakat nomiga aylangan, ya’ni otlashish amali vujudga kelgan.

Modelning 1-variantiga leksika ham fonetika ham kiritilmagan edi.

Bularning barchasi bir necha yildan keyingi ikkinchi modelda paydo bo‘ladi.

Ushbu modelda bevosita kuzatishdan yashirin bo‘lgan – *botiniy* struktura g‘oyasi ilgari suriladi⁷⁴. N.Xomskiy transformatsion tahlil doirasida til tizimidagi har qanday jumlanı *botiniy* va *zohiriyy* strukturaga ajratadi. *Botiniy* strukturani tushunchalarning ma’no tomoni, *zohiriyy* strukturani esa muomaladagi so‘zlar bilan aloqador qiladi. Ya’ni *zohiriyy* struktura bu – biz eshitadigan va o‘qiyadigan jumlalar, *botiniy* struktura esa jumlaning ma’nosи bilan bog‘liq tomoni. *Botiniy* strukturalar *zohiriyy* strukturalarda shunchaki qayta tiklangan yoki transformalar shaklida qayta tiklangan bo‘lishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, realizatsiya qilingan matnda aks

⁷⁴ Chomsky N. Aspects of Theory of Sintax. –Cambridge, 1965. –P. 141.

etmagan, biroq qandaydir holatda, botinda nimadir mavjud. Masalan, *zohiriy* strukturasi turlicha bo‘lgan va *botiniy* strukturasi esa bir xil bo‘lgan gaplar (1 va 2), shuningdek, birgina *zohiriy* strukturaga (3) va ikkita *botiniy* strukturaga ega (4 i 5) jumlalar mavjud:

- (1) *Politsiya namoyishni tarqatib yubordi.*
- (2) *Namoyish politsiya tomonidan tarqatib yuborildi.*
- (3) *Uning hibsga olinishi.*
- (4) *U hibsga olindi.*
- (5) *U hibsga oldi.*

N. Xomskiyga ko‘ra, transformatsion tahlil sintaktik strukturalarning *zohiriy*dan *botiniy*ga aylanish yo‘li bilan tahlil qilishdir. Haqiqatan ham nutq va tafakkur jarayonlarida *botiniy* strukturaning o‘rni mavjud. Biroq ushbu “*botiniylik*”ning qanday va qayerdan paydo bo‘lganligi tadqiq qilinmaydi. Ya’ni Xomskiyning modelida hali “tafakkur” yo‘q.

Umuman, N. Xomskiyning g‘oyalari psixolingvistikani uch jihatdan shakllantirdi:

- tilning bixevoristik talqiniga va tilshunoslik nazariyalariga tanqidiy yondashishlar kognitiv fanlarning rivojlanishida muhim rol o‘ynadi;
- N.Xomskiy tomonidan tilni o‘zlashtirish masalasi mantiqiy muammo sifatida shakllantirildi;
- eksperimental psixolingvistikaning asosida transformatsion model yotardi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Глухов В.П. Основы психолингвистики. Учебное пособие. –М.: ACT: Астрел, 2008.
2. Сафонова О.А. Психолингвистика: новые технологии анализа поэтического текста. Учебное пособие. – Краснодар, 2012.
3. Ахутина Т.В. Порождение речи. Нейролингвистический анализ синтаксиса. – М., МГУ, 1989.

4. Величковский Б.М. Современная когнитивная психология. – М., 1982 5.
 Венсов А.В., Касевич В.Б. Проблемы восприятия речи. –СПб., 1994.
6. Выготский Л.С. Мышление и реч // Собр.соч.: в 8 т. – М., 1982. Т.1.
7. Жинкин Н.И. Реч как проводник информации. – М., 1982.
 8. Залевская А.А. Введение в психолингвистику. Учебник. – М.,
 Российский государственный гуманитарный университет, 1999.
9. Леонтьев А.А. Психолингвистические единицы и порождение речевого
 высказывания. – М., 1969.
10. Леонтьев А.А. Язык, речь, речевая деятельность. –М., 1969.
11. Леонтьев А.А. Основы психолингвистики. – М., 1997.
12. Лuria A.P. Речь и мышление. – М., 1975.
13. Лuria A.P. Язык и сознание. – М., 1979.
14. Овчинникова И.Г. Ассоциации и высказывание: структура и семантика. –
 Перм, 1994
15. Петренко В.Ф. Основы психосемантики сознания. – М., 1997.
16. Психолингвистика / Сост. и ред. А.М.Шахнарович. –М., 1984.
17. Сахарный Л. И. Введение в психолингвистику. –Л., 1989.
18. Фёдорова О.В. Основы экспериментальной
 психолингвистики.
 Учебное пособие. –М.:Спутник, 2008.
19. Фрумкина Р.М. Психолингвистика. – М., 2001.
20. Usmonova Sh. Psixolinguistika. O‘quv-uslubiy majmua. –Toshkent:
 Universitet, 2014.

4-amaliy mashg‘ulot:

LINGVOKULTUROLOGIYA: TIL VA MADANIYAT

REJA:

1. *Lingvokulturologiyaning asosiy masalalari.*
2. *Lingvokulturologiyaning asosiy tushunchalari. Tayanch tushunchalar: madaniy sema, madaniy fon, madaniy*
3. *“Madaniy kod” tushunchasi.
konsept, madaniy meros, madaniy an'analar, madaniy jarayon, madaniy makon, mentallik, mentalitet, madaniyat tili, submadaniyat, madaniy konnotatsiya, pretsedent birliklar, realiya, lakuna, ekzotik leksika, ekvivalentsiz leksika.*

Zamonaviy tilshunoslikning yetakchi yo'nalishlaridan biri bo'lgan lingvokulturologiya XX asrning so'nggi choragida shakllana boshladi. Tadqiqotchilarining ta'kidlashicha, «lingvokulturologiya» termini V.N.Teliya rahbarligidagi Moskva frazeologik maktabi tomonidan olib borilgan tadqiqotlar bilan bog'liq ravishda paydo bo'lgan⁷⁵.

XXI asr boshiga kelib lingvokulturologiya jahon tilshunoslidagi yetakchi yo'nalishlardan biriga aylanib ulgurdi. Ko'plab tadqiqotlarda ta'kidlanganidek, lingvokulturologiyaning predmetini o'zaro aloqadorlikda bo'lgan til va madaniyat tashkil etadi⁷⁶. Lingvokulturologiyaning o'r ganish obyekti haqidagi fikrlar borasida bir to'xtamga kelingan bo'lsa-da, ayrim munozarali qarashlar ham yo'q emas. Masalan, V.N.Teliyaning fikriga ko'ra, lingvokulturologiya til va madaniyatning faqat sinxron aloqasini o'r ganadi. V.A.Maslova esa bu soha tilni ham sinxron, ham diaxron jihatdan o'r ganadi, deb hisoblaydi. Shuningdek, V.N.Teliya lingvokulturologiya obyekti umuminsoniy xarakterga ega bo'lishini ta'kidlasa, V.A.Maslova muayyan xalq yoki qardosh xalqlar tilining lingvokulturologik

⁷⁵ Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Школа «Языки русской культуры», 1996. –288 с.

⁷⁶ Бу ҳақда қаранг: Махмудов Н. Тилнинг мукаммал тадқиқи йўлларини излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – № 5. – Б. 3-16.

xususiyatlari alohida o‘rganilishi lozim ekanligini ta’kidlaydi⁷⁷. Fikrimizcha, bu o‘rinda har ikkala olimning qarashlarini uyg‘unlashtirish lozim, chunki til va madaniyat aloqasi, avvalo, milliy xususiyatni namoyon etadi. Shu bilan birga, tilda ifodalanuvchi ayrim konseptlar borki, ular o‘z mohiyatiga ko‘ra umuminsoniy xarakterga ega: *urush, tinchlik, tabiat, orzu-umid, muhabbat, nafrat* kabi.

Hozirgi vaqtida lingvokulturologiya jahon, xususan, rus tilshunosligida eng rivojlangan yo‘nalishlardan biri bo‘lib, bu borada ko‘plab tadqiqotlar yaratilgan. Ularda, asosan, quyidagi masalalar tadqiq etilganini ko‘rish mumkin: 1) muayyan nutqiy janrning lingvokulturologik xususiyatlari. Bunda ko‘pincha miflar, xalq og‘zaki ijodiga xos janrlar tili tahlil etilgan; 2) muayyan uslubda yozilgan asarda lingvokulturologik konsept ifodalanishi tadqiqi. Bunda, asosan, badiiy-nasriy asarlar tili tahlil etilgan; 3) qiyosiy aspektdagи ishlar. Bunda, asosan, rus tilidagi lingvomadaniy birliklar ingliz, nemis, fransuz tillari bilan qiyoslangan; 4) lingvokulturologiyaning pedagogika fani bilan bog‘liq jihatlari. Bunda ijtimoiy fanlarni o‘qitish jarayonida o‘quvchi va talabalarga lingvokulturologik birliklarni aniqlash va tahlil etish usullarini o‘rgatish asosiy maqsad qilib olingan.

Lingvokulturologik yondashuvdagi tadqiqotlar o‘zbek tilshunosligida oxirgi o‘n yilliklarda paydo bo‘la boshladи. Professor N.Mahmudovning «Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab...» nomli maqolasida lingvokulturologiya, umuman, Antroposentrik paradigmaning mohiyati va bu boradagi muammolar chuqur, asosli yoritib berildi. Ushbu maqolani o‘zbek tilshunosligida lingvokulturologiya haqida jiddiy mulohazalar bayon qilingan birinchi asar sifatida baholash mumkin. Maqolada lingvokulturologik nazariyaning shakllanishi uchun xizmat qilgan omillar, undagi asosiy tushunchalar, ularning talqinidagi har xilliklar haqida asosli mulohazalar aytilgan⁷⁸.

Lingvokulturologiyaning tadqiq obyektlaridan biri matn hisoblanadi.

⁷⁷ Бу хақда қаранг: Пименова М.В., Кондратьева О.Н. Концептуальные исследования. Введение. Учеб. пособие. – М.: Флинта, 2011. – 176 с.

⁷⁸ Махмудов Н. Тилнинг мукаммал тадқиқи йўлларини излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – № 5. – Б. 3-16.

«Lingvokulturologiya» kitobining muallifi V.A.Maslova bu borada quyidagicha yozadi: «Matn tilshunoslik va madaniyatning haqiqiy kesishuv nuqtasidir. Zero, matn til hodisasi va uning oliv sathi hisoblanadi, shu bilan birga u madaniyat mavjudligining amal qilish shakli hamdir. Lingvokulturologiya esa tilni o‘zida madaniy qadriyatlar tajassumi sifatida tadqiq etadi»⁷⁹. V.A.Maslova, shuningdek, o‘xshatishlarning matn yartilishidagi o‘rniga ham to‘xtalib, ular matnda strukturkompozitsion vazifani bajarishi va matn kogerentligini ta’minlovchi vosita maqomida bo‘lishini ta’kidlaydi⁸⁰. Uning, xususan, o‘xshatish-matnlar haqidagi fikri ham e’tiborga molikdir. Kuzatishlar natijasida aytish mumkinki, o‘xshatish va uning qisqargan shakli bo‘lgan metaforalar matnda muhim kognitiv-semantik ahamiyat kasb etishi bilan birga, til sohiblarining milliy-madaniy tafakkuriga xos jihatlarni ham namoyon etuvchi hodisa bo‘la oladi. O‘xshatish va metaforalar asosiga qurilgan matnlar muayyan tilda qoliplashgan matn shakllarini aniqlash imkoniyatini ham beradi. Ularni matnning pretsedent shakllari sifatida baholash mumkin.

Lingvokulturologiyaning asosiy tushunchalari. Lingvokulturologiyada matn bilan bog‘liq yana bir hodisa bu – pretsedent matn masalasıdır. Pretsedent matnlar pretsedent birliklarning bir turi bo‘lib, o‘zida muayyan millat til sohiblariga xos bo‘lgan lisoniy xotirani aks ettiradi. Hozirgi vaqtida, xususan, rus tilshunosligida bu borada ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Pretcedent birliklar til tizimini tadqiq etishning yetakchi yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan lingvokulturologiyaning asosiy o‘rganish obyektlaridan biri hisoblanadi. Mazkur birliklarga bag‘ishlangan tadqiqotlarda qayd etilishicha, *pretcedent* termini tilshunoslikda birinchi marta Y.N.Karaulov tomonidan qo‘llangan⁸¹.

⁷⁹ Маслова В.А. Лингвокультурология: Учеб. пособие. – М.: Academia, 2001. – Б. 5.

⁸⁰ Маслова В.А. Кўрсатилган китоб.

⁸¹ Карапнг: Гунько Ю.А. Особенности функционирования прецедентных высказываний в разговорной речи носителей русского языка: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Санкт-Петербург: Санкт-Петербургский гос.ун-т, 2002. – 24 с.

Rus tilshunosligida muayyan til sohiblariga yaxshi tanish bo‘lgan va ularning lisoniy xotirasida saqlanadigan, nutqiy faoliyatda qayta-qayta murojaat qilinadigan shaxs nomlari, barqaror so‘z birikmali, jumlalar hamda matnlar pretsedent birliklar sifatida qayd etiladi⁸².

Pretsedentlik intertekstuallik tushunchasi bilan bog‘liq, aniqrog‘i, uning ichiga kiruvchi hodisadir. Badiiy matnda intertekstuallik hodisasini batafsil tadqiq etgan M.Yo‘ldoshev unga shunday ta’rif beradi: «Muayyan badiiy matn tarkibida o‘zga matnlarga daxldor unsurlarning mavjudligi shu matnning intertekstualligidir»⁸³.

Zamonaviy tadqiqotlarda o‘xshatishlarning lingvokulturologik hamda etnolingistik jihatlariga katta e’tibor berilmoqda. «Lingvokulturologiya» kitobining muallifi V.A.Maslova o‘xshatishlarda muayyan xalqning milliy dunyoqarashi aks etishini ta’kidlab, bu fikrini rus, belorus va qirg‘iz tilida qo‘llanuvchi o‘xshatish qurilmalari tahlili asosida dalillaydi.

V.A.Maslova, shuningdek, muayyan xalqning obrazli tafakkur tarzi, xususan, o‘sha xalq tilida qo‘llanuvchi o‘xshatishlarda ham yaqqol namoyon bo‘lishini ta’kidlaydi⁸⁴. Olimaning bu fikrini o‘zbek tilidagi turg‘un o‘xshatishlar ham tasdiqlaydi. “O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati” uchun yig‘ilgan materiallar shundan dalolat beradiki, xalqning muayyan predmet, belgi, harakatholatga munosabati, assotsiativ fikrlash tarzi o‘xshatishlarda ham namoyon bo‘ladi. Jumladan, buni o‘zbek tilidagi inson haqidagi o‘xshatishlarda ham ko‘rish mumkin. O‘zbek tilidagi insonga doir o‘xshatishlar 8 ta ma’noviy guruhni tashkil etib, ularda hayvon, o‘simlik, meva nomlarini bildiruvchi so‘zlar etalon sifatida ko‘p

⁸² Карапг: Красных В.В. Система прецедентных феноменов в контексте современных исследований / Язык, сознание, коммуникация: Сб. статей. – М.: “Филология”, 1997. Вып. 2. – С. 5-12; Карапулов Ю.Н. Русский язык и языковая личность. – М.: Наука, 1987; Маслова В. Лингвокультурология. Учеб. пособие. – М.: Academia, 2001. – 208 с.

⁸³ Юлдашев М.М. Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқики: Филол. фан. д-ри ... дис. – Тошкент: ЎзР ФА ТАИ, 2009. – 316 б.

⁸⁴ Маслова В.А. Кўрсатилган китоб.

qo‘llanganligi ona tilimizda muloqot qiluvchi til sohiblarining etnopsixolingvistik xususiyatlarini namoyon qiladi.

Tilshunoslik, madaniyatshunoslik, etnografiya, psixolingvistika sohalari hamkorligida yuzaga kelgan,⁸⁵ fanlar integratsiyasi mahsuli bo‘lgan lingvomadaniyatshunoslik ana madaniyat “tili” talqini bilan shug‘ullanuvchi Antroposentrik soha sifatida fanga lingvomadaniy birlik, lingvomadaniyat, lingvomadaniy hamjamiyat, milliy-madaniy konnotativlik, madaniy sema, pretsedent birliklar, lisoniy ong, olamning lisoniy manzarasi, olamning qadriyatli manzarasi kabi bir qator yangi tushunchalarni olib kirdi. Ular qatorida *madaniyat kodlari* tushunchasi alohida mavqega ega.

Lingvomadaniyatshunoslikda madaniyat kodlari olam lisoniy manzarasining muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida e’tirof qilinadi⁸⁶. V.N. Teliyaning fikriga ko‘ra, madaniyat kodlari – muayyan madaniy mazmunni kodlashtirish maqsadida qo‘llanuvchi turli moddiy va formal vositalardan iborat ikkilamchi belgilar tizimidir⁸⁷. D.B.Gudkov, M.L.Kovshovalarning madaniyat kodlari xususidagi ta’rifi ham yuqoridagi ta’rifga yaqin: “Madaniyat kodlari – insonning moddiy va ma’naviy olamiga oid bo‘lgan madaniy mazmunni ifodalovchi belgilar tizimi, ular verbal shaklda ham, noverbal shaklda ham bo‘lishi mumkin”⁸⁸.

Madaniyat kodlari xususidagi ilmiy ta’rif va talqinlardan kelib chiqib aytish mumkinki, ushbu termin muayyan madaniy mazmunni shartli, ramziy va kodlangan tarzda ifodalovchi moddiy yoki ideal belgilar tizimini bildiradi. Madaniyat kodlari inson tomonidan olamni kategoriyalashtirish jarayonining mahsulidir va bunda, yuqorida ta’kidlaganimizdek, inson tili madaniy mazmunning eng muhim ifodachilaridan biri hisoblanadi. Madaniyat kodlari tilda asosan xalqning obrazli tafakkurini namoyon etuvchi maqol, ibora, turg‘un o‘xshatish, metafora, qarg‘ish,

⁸⁵ Сабитова З.К. Лингвокультурология: учебник. –М.: Флинта: Наука, 2013. – С. 8-9.

⁸⁶ Маслова В.А. Духовный код с позиции лингвокультурологии: единица сакрального и светского // Метафизика. – М., 2016. – №4. – С. 79.

⁸⁷ Телия В.Н. Ўша асар. – Б. 13.

⁸⁸ Гудков Д.Б., Ковшова М.Л. Телесный код русской культуры. – М.: Гнозис, 2007.

duo va olqishlar kabi lingvomadaniy birliklarda in’ikos etadi. Madaniyat kodlarida insonlarning moddiy va ma’naviy olam haqidagi tasavvurlari, milliy tafakkuri, aksiologik qarashlari yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Ilmiy adabiyotlarda madaniyat kodlarining turlari sifatida somatik kod, makoniy kod, temporal kod, predmetli kod, biomorf kod, ma’naviy kod⁸⁹, antropomorf kod, fazoviy kod, urushga doir kod, tibbiy kod, me’moriy kod, sport kodi, geometrik kod, gastronomik kod, kiyim-kechak kodi,⁹⁰ mifologik kod, teomorf kod, rang-tus kodi⁹¹ kabilar qayd etiladi. Ayrim tadqiqotchilar zoomorf kod hamda fitomorf kodni biomorf kodning turlari hisoblaydilar, biomorf kod ba’zan *nabotot-landshaft kodi* tarzida ham nomlanadi⁹².

Lingvokulturologik yondashuvlarga ko‘ra, matn – muayyan xalqning madaniy qadriyatlarini, milliy-mental fikrlash tarzini namoyon etuvchi lingvomadaniy birlikdir. Xususan, pretsedent birliklar madaniy kodlarni avloddan avlodga olib o‘tuvchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

1-topshiriq. Qiyidagi matnlarda ifodalangan konseptlarni aniqlang va tahlil qiling.

1. *Katta yo ‘l bo ‘yida daraxt o ‘sardi... Ittifoqo uning tagiga bir yo ‘lovchi keldi. Kun issiq, yo ‘lovchi charchagan edi. Daraxt soyasida o ‘tirib dam oldi...*

Yo ‘lovchi ochiqqan edi. Qarasa, daraxtda mevalar pishib yotibdi. U daraxtgachi qishga erindi: tosh otdi. Mevalar duv to ‘kildi. Yo ‘lovchi to ‘ygunicha edi ...

Manzil olis edi. Yo ‘lovchi daraxt shoxini sindirib, tayoq yasadi...

Keyin... zahar tang qilib qoldi. Yo ‘lovchi daraxt panasiga o ‘tdi...

So ‘ng... yo ‘liga ketdi...

⁸⁹ Красных В.В. Ўша мақола.

⁹⁰ Маслова В.В. Ўша мақола.

⁹¹ Краснобаева-Чёрная Ж. В. Пространственный код культуры ценностной картины мира (на материале русской, украинской, английской и немецкой фразеологии) // Сибирский филологический журнал – 2018. – №4.– С.169.

⁹² Саргач Х. Коды культуры как одно из основных понятий лингвокультурологии: на материале фразеологизмов с компонентом «камень» и «ветер» в русском и турецком языках // www/ulakbilderdergesu.com.

2. *Daraxt boshqa yo‘lovchini kuta boshlad... Bu daraxtning nomi YAxshilik edi...* (O‘.Hoshimov. “Yo‘l bo‘yidagi daraxt”)

“Ayol kishini ipidan ignasigacha bilaman”, deysizmi? O-o-o, siz daho ekansiz!

Ayting-chi, sharqdan sekundiga besh-etti metr tezlikda esayotgan shamol o‘n daqiqadan keyin shimolga buriladimi, janubgami? YArim soatdan keyin izg‘iringa aylanadimi, bo‘rongami?.. ” (O‘.Hoshimov. “Daho” ekansiz!”)

Ayol mehri - asaldek totli. Ayol makri – zahardek xavfli. (O‘.Hoshimov. “Mehr va makr”)

Ayollar! Yig‘lab ko‘nglingizni bo‘shatishdek ne’matni ato etgani uchun Yaratganga shukronalar qiling. (O‘.Hoshimov. “Ne’mat”)

Ayol kishiga avvalo Ona deb qarasak, hammasi joy-joyiga tushadi. (O‘.Hoshimov. “Mo“tabar zot””)

Ayol shunday jumboqlar kitobiki, hali hech kim uni oxirigacha o‘qiy olgan emas. (O‘.Hoshimov. “Abadiy jumboq”)

2-topshiriq. Ushbu matnlarni lingvokulturologik jihatdan tahlil qiling.

Kel endi tashlama, qo‘yma

Bu tunning qo‘ynida yolg‘iz.

Hijronni boshimga yoyma,

Ey tundek sochi qora qiz (Cho‘lpon. Tun).

Ehtimol, ishq-muhabbatning ipak tolasi uning nozik qo‘l-oyog‘ini kishanlagan, lekin u negadir sirini hech kimga aytmaydi” (M.Osim)

Ilk muhabbat bahor osmonidagi bulutga o‘xshaydi. Oppoq. Pokiza. Shaffof... Na qo‘lingiz bilan tutasiz. Na ortidan yugurib yetasiz... Shamol uni qayoqqa olib ketishini ham bilmaysiz... Birinchi muhabbatning ko‘pincha natijasiz tugashi balki shundadir... (O‘.Hoshimov. Daftар hoshiyasidagi bitiklar)

3-topshiriq. Ushbu savollarga javob bering.

1. Lingvokulturologiyaning asosiy yo‘nalishlarini ayting.

2. Lingvokulturologik tadqiqotlarda asosan qaysi masalalarni tadqiq etilgan?
3. Lingvokulturologiya maktablari haqida ma'lumotn bering.
4. Lingvokulturologiyaning obyekti nimadan iborat?
5. Lingvokulturologiyaning obyekti haqida qanday munozarali fikrlar mavjud?
6. Qanday birliklar lingvokulturologiyaning predmetini tashkil qiladi?
7. Muqobilsiz leksika nima?
8. Lakunalar nima?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bublitz W. Englische Pragmatik. Eine Einführung. - Berlin, 2001.
2. Chafe W. Discourse, consciousness and time. -Chicago, 1994. - 311 p.
3. Chomsky N. New Horizons in the study of Language and Mind. –Cambridge: Cambridge Univ. Press, 2000.
4. Бегматов Э. Антропонимлар – антропоцентрик тадқиқ обьекти // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2013. – № 3. – Б. 35-39.
5. Дейк Т.А. ван. Язык. Познание. Коммуникация. – М.: Прогресс, 1987. – 311 с.
6. Курбонова М.А. Ўзбек болалар нутқи лексикасининг социопсихолингвистик тадқиқи: Филол. фан. ном. ... дис. автореф. – Тошкент: ЎзДЖТУ, 2009. – 25 б.
7. Маматов А.Э. Тилга когнитив ёндашувнинг моҳияти нимада? / Ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари (проф. А.Нурмонов таваллудининг 70 йиллигига бағишилаб ўтказилган илмий-амалий анжуман материаллари. – Андижон, 2012. – Б. 212-220.
8. Маҳмудов Н. Ўхшатишлар – образли тафаккур маҳсули // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2011. – №3. – Б. 19-24.
9. Маҳмудов Н. Ўхшатишлар ва миллий образ // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2013. – № 1. – Б. 3-8.
10. Нишанов В.К. Феномен понимания: когнитивный анализ. – Фрунзе:

Илим, 1990. – 228 с.

11. Сафаров Ш. Когнитив тилшүнослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – 91 б.
12. Usmonova Sh. Lingvokulturologiya. Oquv-uslubiy majmua. –Toshkent, 2014.

V. KEYSALAR BANKI



KEYSLAR BANKI

Modul bo‘yicha quyidagi keyslarni yechish maqsadga muvofiq sanaladi: 1-keys. Qaysi so‘zlarda madaniy belgilar mavjud. Misollar keltiring.

2-keys. Frazeologik ma’noda ifodaangan madaniy kodlarni tahlil qiling.

3-keys. So‘z semantik strukturasidagi ma’nolarning borliqdagi narsa-hodisa, belgi va harakat-holatni ifodalashida madaniy baho munosabatining mavjudligini misollar asosida izohlang.

4-keys. Badiiy asar tahlilini amalga oshirishdagi lingvokulturologik yondashuvni izohlang.

5-keys. Badiiy asar tahlilini amalga oshirishdagi psixolingvistik yondashuvni izohlang.

VI. GLOSSAR IY



GLOSSARIY

Termin	O'zbek tilidagi sharhi	Ingliz tilidagi sharhi
--------	------------------------	------------------------

Paradigma	<p>o‘z tadqiqot faoliyatiga va obyektiga ega bo‘lgan, mushtarak ilmiy va falsafiy g‘oyalar bilan birlashgan u yoki bu ilmiy yoki falsafiy hamjamiyatlar tomonidan qo‘llaniladigan o‘ziga xos metodlar va usullar yig‘indisi.</p>	<p>a set of specific methods and techniques used by a particular scientific or philosophical community that has its own research activities and object, combined with common scientific and philosophical ideas.</p>
Antroposentrik paradigm	<p>tadqiqotchilar qiziqishlarining obyektdan subyektga o‘zgarishi, yo‘naltirilishi, ya’ni insonning tilda, tilning esa insonda tahlil qilinishi. Bunda asosiy e’tibor nutqiy faoliyat bajaruvchisi, ya’ni nutq tuzuvchi va uni idrok etuvchi til egasiga qaratiladi. Antroposentrik paradigm nuqtayi nazaridan inson dunyoni o‘zini bilish, o‘zining nazariy va amaliy faoliyati orqali taniydi. Zamonaviy tilshunoslikda til tizimini antroposentrik nuqtayi nazaridan o‘rganish, asosan, lingvistik semantika, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika,</p>	<p>the transformation of researchers' interests from object to subject, that is, the analysis of man in language and language in man. The focus is on the performer of the speech activity, the speaker who composes and understands the language. From the point of view of the anthropocentric paradigm, man knows the world through his self-knowledge, his theoretical and practical activity. In modern linguistics, the study of language systems from an anthropocentric point of view is mainly carried out in the field of linguistic</p>

	pragmalingvistika hamda lingvokulturologiyaga oid tadqiqotlarda amalga oshiriladi.	semantics, cognitive linguistics, psycholinguistics, pragmalinguistics, and linguoculturology.
Antroposentirizm	(grek. <i>anthropos</i> - odam lot. <i>sentrum</i> - markaz). Tilshunoslikda: tilga inson omili nuqtai nazaridan yondashish.	(Greek <i>anthropos</i> - man lot. <i>sentrum</i> - center). In linguistics: an approach to language in terms of the human factor.
Etnopsixolingvistika	nutqiy faoliyatda muayyan an'analar bilan bog'liq muomala elementlarining qanday paydo bo'lishini, turli til egalarining verbal va noverbal muloqotidagi farqlarni o'rghanuvchi tilshunoslik yo'nalishi.	a branch of linguistics that studies how behavioral elements associated with certain traditions emerge in speech activity, and the differences in verbal and nonverbal communication between different language speakers.
Sistem tilshunoslik	tilni tizim sifatida o'rghanuvchi ilmiy paradigma.	a scientific paradigm that studies language as a system.

Kognitiv tilshunoslik	<p>(lat. cognitio – bilim)</p> <p>Til birliklarining axborotni qayta ishlashdagi rolini nutq yaratilishi va idrok etilishi nuqtai nazaridan o‘rganuvchi fanlararo soha. Bunda nutq yaratuvchi va uni idrok etuvchi sub’ektlarga axborotni qayta ishlovchi</p>	<p>(lat. cognitio - knowledge)</p> <p>An interdisciplinary field that studies the role of language units in the processing of information in terms of speech creation and perception. In this case, the subjects that create and perceive speech are</p>
	<p>tizim sifatida qaraladi. Kognitiv tilshunoslik til va ong munosabatini, olamni konseptuallashtirish va kategoriyalashtirish, bilish jarayonlarida va tajribalarni umumlashtirishda tilning o‘rni kabi masalalarni tadqiq etadi.</p>	<p>considered as a system that processes information.</p> <p>Cognitive linguistics studies issues such as the relationship between language and consciousness, the conceptualization and categorization of the world, and the role of language in cognitive processes and generalizations of experiences.</p>

Konsept	<p>lotin tilidagi conceptus «tushuncha» so‘zining kalkasidir. Rus tilshunosligida konsept tushunchasi XX asrning birinchi choragida faylasuf S. Askoldov tomonidan ilmiy muomalaga kiritiladi. Ushbu termin tilshunoslikda o‘tgan asrning 80-yillariga qadar tushuncha so‘ziga sinonim sifatida ishlatilgan bo‘lsa, bugungi kunga kelib uning izohi tushuncha terminiga nisbatan kengayganini ko‘rish mumkin. Konsept ikki tomonli xususiyatga egadir. Bir tomondan, madaniyat konsept</p>	<p>The Latin conceptus is a shield of the word "concept." The concept of concept in Russian linguistics was introduced into scientific circulation in the first quarter of the twentieth century by the philosopher S. Askoldov. While the term was used in linguistics as a synonym for the word concept until the 1980s, it can be seen that its definition has expanded to include the term concept today. The concept is twosided. On the one hand, culture enters the mental world of a person in the form</p>
----------------	--	---

	<p>ko‘rinishida insonning mental dunyosiga kirsa, boshqa tomondan, inson konsept yordamida madaniyatga kiradi va ba’zan unga ta’sir ko‘rsatadi. Konseptning kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya, shuningdek, adabiyotshunoslik fanlaridagi izohi o‘zaro farqlanadi. Konsept</p>	<p>of a concept, on the other hand, a person enters a culture through a concept and sometimes influences it. The interpretation of the concept differs in cognitive linguistics, linguoculturology, and literary studies. The concept as a linguocultural unit reflects the specifics of a culture.</p>
--	--	---

	lingvomadaniy birlik sifatida u yoki bu xalq madaniyatining o‘ziga xos jihatlarini ifodalaydi.	
Geshtalt	nemischa so‘z bo‘lib, u “obraz, tuzilma, yaxlit shakl” ma’nolarini anglatadi. Geshtalt yaxlit obraz hisoblanadi, ya’ni biron bir obyektni butunicha idrok qilinishi geshtalt, deb tushuniladi. Geshtaltlar konseptual bog‘lanishlar bo‘lib, ular inson psixikasining botiniga tegishli bo‘lgan va tabiiy tilning kategoriyalari doirasidan tashqarida yotgan universal tasavvurlar mohiyatidir.	is a German word that means "image, structure, whole form." Gestalt is a holistic image, that is, a complete perception of any object is understood as gestalt. Gestalts are conceptual connections that are the essence of universal ideas that belong to the heart of the human psyche and lie outside the categories of natural language.

Madaniy kodlar	Muayyan madaniy mazmunni shartli, ramziy va kodlangan tarzda ifodalovchi moddiy yoki ideal belgilar tizimi	A system of material or ideal symbols that express a particular cultural content in a conditional, symbolic, and coded way
-----------------------	--	--

Lingvomadaniy konsept	Ma’naviy qadriyatlarga yo‘naltirilgan, lisoniy ifodaga ega bo‘lgan va etnomadaniy o‘ziga xoslik bilan ajralib turadigan jamoa ongi birligi	A unit of community consciousness focused on spiritual values, linguistic and ethnocultural identity
Sotsiolingvistika	tilshunoslikning tilni va uning mavjud bo‘lgan ijtimoiy sharoitlar bilan bog‘liqligini o‘rganadigan sohasi. Ijtimoiy sharoitlar deganda, amaldagi til rivojlanayotgan tashqi shart-sharoitlar majmuyi: mazkur tildan foydalanayotgan kishilar jamiyatni, bu jamiyatning ijtimoiy strukturasi, til egalarining yoshi, ijtimoiy mavqeyi, madaniyat va bilim darajasi, yashash joyi orasidagi farqlari, shuningdek, ularning muloqot vaziyatiga bog‘liq nutqiy muomalasidagi farqlar tushuniladi. Demak, sotsiolingvistika tilning jamiyat hayotidagi roli, uning	a branch of linguistics that studies language and its relation to existing social conditions. Social conditions are a set of external conditions in which the current language develops: the society of people who use the language, the social structure of the society, the age, social status, culture and education of language speakers, differences between places of residence, as well as their speech. Differences in behavior are understood. Thus, sociolinguistics is a branch of linguistics that studies the role of language in society, its social nature, social functions,
	ijtimoiy tabiatni, ijtimoiy funksiyalari, ijtimoiy	the mechanism of influence of social factors on language.

	omillarning tilga bo‘lgan ta’sir mexanizmi bilan bog‘liq masalalarni o‘rganadigan tilshunoslik sohasidir.	
Aralash bilingvizm	nutq analizi va sintezining yagona mexanizmini nazarda tutadi, birga mavjud bo‘lgan tillar esa faqat ustki struktura darajasida farqlanadi.	implies a single mechanism of speech analysis and synthesis, and coexisting languages differ only at the level of superstructure.
Bilingvizm	(ikki tillilik) – ikki tilda erkin fikrlasha olish, ikki tilni bir xilda egallah.	(bilingualism) - the ability to think freely in two languages, to speak two languages at the same time.
Diaxron sotsiolingvistika	diaxronnaya sotsiolingvistika – history sotsiolinguistics - til rivojlanishining jamiyat rivojlanishi bilan aloqasini tavsiflovchi jarayonlarni, ya’ni til tarixini xalq tarixi bilan bog‘lab o‘rganuvchi sotsiolingvistik tadqiqotlar yo‘nalishi.	diachronic sociolinguistics - history sotsiolinguistics - a branch of sociolinguistic research that studies the processes that characterize the relationship of language development with the development of society, that is, the history of language in relation to the history of the people.
Diglossiya	bir milliy tilning turli subkodlarida gapira olish, sharoit va muloqot doirasiga	to be able to speak in different subcodes of one national language, to move

	bog‘liq holda, tilning bir subkodidan ikkinchi bir subkodiga ko‘chish, bir til doirasidagi turli uslublardan foydalana olish. “Diglossiya” termini nafaqat bir milliy tilning turli subkodlarida gapisish, balki turli tillarni bilish va ularni muloqot vaziyatiga ko‘ra galma-gal qo‘llay olishni ham anglatishi mumkin.	from one subcode of a language to another, depending on the context and scope of communication, to be able to use different methods within one language. The term "diglossia" can mean not only speaking different subcodes of the same national language, but also knowing different languages and being able to use them alternately depending on the communication situation.
Substansiya	(lot. "mohiyat") atamasi falsafada antik davrlardan buyon ishlataladi. Lekin falsafa tarixida bu atama xilma-xil tushunchalarni ifodalash uchun qo‘llanildi. Antik davr filosoflari substansiya atamasi ostida olamdagи barcha narsa va hodisalarining asosini tashkil etadigan moddiy yoki ruhiy birlamchi narsani tushunadilar	The term substance (lat. "Essence") has been used in philosophy since ancient times. But in the history of philosophy, the term has been used to refer to a variety of concepts. Under the term substance, the philosophers of antiquity understood the material or spiritual primary that underlies all things and phenomena in the universe.

Paradigma	<p>o‘z tadqiqot faoliyatiga va obyektiga ega bo‘lgan, mushtarak ilmiy va falsafiy g‘oyalar bilan birlashgan u</p>	<p>A paradigm is a set of specific methods and techniques used by a particular scientific or</p>
	<p>yoki bu ilmiy yoki falsafiy hamjamiyatlar tomonidan qo‘llaniladigan o‘ziga xos metodlar va usullar yig‘indisi.</p>	<p>philosophical community that have their own research activities and objects, combined with common scientific and philosophical ideas.</p>

Antroposentrik paradigma	<p>tadqiqotchilar qiziqishlarining obyektdan subyektga o‘zgarishi, yo‘naltirilishi, ya’ni insonning tilda, tilning esa insonda tahlil qilinishi. Bunda asosiy e’tibor nutqiy faoliyat bajaruvchisi, ya’ni nutq tuzuvchi va uni idrok etuvchi til egasiga qaratiladi. Antroposentrik paradigmaga nuqtayi nazaridan inson dunyoni o‘zini bilish, o‘zining nazariy va amaliy faoliyati orqali taniydi. Zamonaviy tilshunoslikda til tizimini antroposentrik nuqtayi nazaridan o‘rganish, asosan, lingvistik semantika, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, pragmalingvistika hamda lingvokulturologiyaga oid tadqiqotlarda amalga oshiriladi.</p>	<p>the transformation of researchers' interests from object to subject, that is, the analysis of man in language and language in man. The focus is on the performer of the speech activity, the speaker who composes and understands the language. From the point of view of the anthropocentric paradigm, man knows the world through his self-knowledge, his theoretical and practical activity. In modern linguistics, the study of language systems from an anthropocentric point of view is mainly carried out in the field of linguistic semantics, cognitive linguistics, psycholinguistics, pragmalinguistics, and linguoculturology.</p>
-------------------------------------	---	---

Antroposentirizm	(grek. anthropos - odam + lot. sentrum - markaz). Tilshunoslikda: tilga inson omili nuqtai nazaridan yondashish	(Greek anthropos - man + lot. sentrum - center). In linguistics: an approach to language in terms of the human factor
Etnopsixolingvistika	nutqiy faoliyatda muayyan an'analar bilan bog'liq muomala elementlarining qanday paydo bo'lishini, turli til egalarining verbal va noverbal muloqotidagi farqlarni o'rghanuvchi tilshunoslik yo'nalishi.	a branch of linguistics that studies how behavioral elements associated with certain traditions emerge in speech activity, and the differences in verbal and nonverbal communication between different language speakers.

Kognitiv tilshunoslik	<p>(lot. cognitio – bilim) Til birliklarining axborotni qayta ishlashdagi rolini nutq yaratilishi va idrok etilishi nuqtai nazaridan o‘rganuvchi fanlararo soha. Bunda nutq yaratuvchi va uni idrok etuvchi sub’ektlarga axborotni qayta ishlovchi tizim sifatida qaraladi. Kognitiv tilshunoslik til va ong munosabatini, olamni konseptuallashtirish va kategoriyalashtirish, bilish jarayonlarida va tajribalarni umumlashtirishda tilning o‘rni kabi masalalarni tadqiq etadi.</p>	<p>(lat. cognitio - knowledge)</p> <p>An interdisciplinary field that studies the role of language units in the processing of information in terms of speech creation and perception. In this case, the subjects that create and perceive speech are considered as a system that processes information.</p> <p>Cognitive linguistics studies issues such as the relationship between language and consciousness, the conceptualization and</p>
		categorization of the world, and the role of language in cognitive processes and generalizations of experiences.

Konsept	<p>lotin tilidagi conceptus «tushuncha» so‘zining kalkasidir. Rus tilshunosligida konsept tushunchasi XX asrning birinchi choragida faylasuf S. Askoldov tomonidan ilmiy muomalaga kiritiladi. Ushbu termin tilshunoslikda o‘tgan asrning 80-yillariga qadar tushuncha so‘ziga sinonim sifatida ishlatilgan bo‘lsa, bugungi kunga kelib uning izohi tushuncha terminiga nisbatan kengayganini ko‘rish mumkin.</p> <p>Konsept ikki tomonli xususiyatga egadir. Bir tomondan, madaniyat konsept ko‘rinishida insonning mental dunyosiga kirsa, boshqa tomondan, inson konsept yordamida madaniyatga kiradi va ba’zan unga ta’sir ko‘rsatadi. Konseptning kognitiv tilshunoslik,</p>	<p>The Latin conceptus is a shield of the word "concept." The concept of concept in Russian linguistics was introduced into scientific circulation in the first quarter of the twentieth century by the philosopher S. Askoldov. While the term was used in linguistics as a synonym for the word concept until the 1980s, it can be seen that its definition has expanded to include the term concept today. The concept is twosided. On the one hand, culture enters the mental world of a person in the form of a concept, on the other hand, a person enters a culture through a concept and sometimes influences it. The interpretation of the concept differs in cognitive linguistics, linguoculturology, and literary</p>
----------------	---	---

	<p>lingvokulturologiya, shuningdek, adabiyotshunoslilik fanlaridagi izohi o‘zaro farqlanadi. Konsept</p>	<p>studies. The concept as a linguocultural unit reflects the specifics of a culture.</p>
--	--	---

	lingvomadaniy birlik sifatida u yoki bu xalq madaniyatining o‘ziga xos jihatlarini ifodalaydi.	
Lingvomadaniy konsept	Ma’naviy qadriyatlarga yo‘naltirilgan, lisoniy ifodaga ega bo‘lgan va etnomadaniy o‘ziga xoslik bilan ajralib turadigan jamoa ongi birligi	A unit of community consciousness focused on spiritual values, linguistic and ethnocultural identity
Geshtalt	nemischa so‘z bo‘lib, u “obraz, tuzilma, yaxlit shakl” ma’nolarini anglatadi. Geshtalt yaxlit obraz hisoblanadi, ya’ni biron bir obyektni butunicha idrok qilinishi geshtalt, deb tushuniladi. Geshtaltlar konseptual bog‘lanishlar bo‘lib, ular inson psixikasining botiniga tegishli bo‘lgan va tabiiy tilning kategoriyalari doirasidan tashqarida yotgan universal tasavvurlar mohiyatidir.	is a German word that means "image, structure, whole form." Gestalt is a holistic image, that is, a complete perception of any object is understood as gestalt. Gestalts are conceptual connections that are the essence of universal ideas that belong to the heart of the human psyche and lie outside the categories of natural language.
Madaniy kodlar	Muayyan madaniy mazmunni shartli, ramziy va	A system of material or ideal

	kodlangan tarzda ifodalovchi moddiy yoki ideal belgilar tizimi	symbols that express a particular cultural content in a conditional, symbolic, and coded way
Koyne	aholi turli guruhlarining ijtimoiy va lisoniy aloqalari jarayonida shakllangan dialektlararo og‘zaki muloqot vositasi.	a means of inter-dialectal oral communication formed in the process of social and linguistic communication of different groups of the population.
Sinxron sotsiolingvistika	til va jamiyat aloqalariga tegishli munosabatlar va jarayonlarni o‘rganadi. Munosabatlar bu aloqalarning statikasini, jarayonlar esa ularning dinamikasini ifodalaydi.	explores the relationships and processes involved in language and social relations. Relationships represent the statics of these relationships, and processes represent their dynamics.
Sotsiolekt	umumiy ijtimoiy xususiyatlariga ko‘ra birlashgan ayrim guruhlarning lisoniy ehtiyojlarini qondirish uchun nutq amaliyotida ishlab chiqilgan til shakli.	a form of language developed in speech practice to meet the linguistic needs of individual groups united by common social characteristics.

Pretsedent birliklar	muayyan til sohiblariga yaxshi tanish bo‘lgan va ularning lisoniy xotirasida saqlanadigan, nutqiy faoliyatda qayta-qayta murojaat qilinadigan shaxs	names of individuals, stable phrases, sentences, and texts that are familiar to certain language speakers and are stored in their linguistic memory and are frequently
Diskurs	nomlari, barqaror so‘z birikmalari, jumllalar hamda matnlardir. (fr. Diskours – nutq, harakat) termini tilshunoslikda bir necha xil ma’noda talqin qilinadi. Bu termin dastlab bog‘lanma matn tushunchasini ifodalagan bo‘lsa, keyinchalik suhbat, dialog tushunchalariga nisbatan ham qo‘llanila boshladi. Mazkur termin ostida hozirgi kunda o‘zida nolisoniy, xususan, psixologik, ijtimoiy va shaxs ongi bilan bog‘liq omillarni mujassam etgan nutq tuzilmasini tushunish tendensiyasi ustuvorlik qilmoqda.	referenced in speech activities. (fr. Discours - speech, action) The term is interpreted in linguistics in several different senses. The term was originally used to refer to the concept of a link text, but later to the concept of dialogue. The term is now dominated by the tendency to understand the structure of speech, which includes non-linguistic, in particular, psychological, social and personal factors.

Aralash bilingvizm	nutq analizi va sintezining yagona mexanizmini nazarda tutadi, birga mavjud bo‘lgan tillar esa faqat ustki struktura darajasida farqlanadi.	implies a single mechanism of speech analysis and synthesis, and coexisting languages differ only at the level of superstructure.
Dioxron sotsiolingvistika	til rivojlanishining jamiyat rivojlanishi bilan aloqasini tavsiflovchi jarayonlarni, ya’ni til tarixini xalq tarixi bilan bog‘lab	the direction of sociolinguistic research that studies the processes that characterize the relationship of language development with language development with society.
	o‘rganuvchi sotsiolingvistik tadqiqotlar yo‘nalishi.	the development of society, that is, the history of language in relation to the history of the people.

Diglossiya	<p>bir milliy tilning turli subkodlarida gapira olish, sharoit va muloqot doirasiga bog‘liq holda, tilning bir subkodidan ikkinchi bir subkodiga ko‘chish, bir til doirasidagi turli uslublardan foydalana olish. “Diglossiya” termini nafaqat bir milliy tilning turli subkodlarida gapirish, balki turli tillarni bilish va ularni muloqot vaziyatiga ko‘ra galma-gal qo‘llay olishni ham anglatishi mumkin.</p>	<p>to be able to speak in different subcodes of one national language, to move from one subcode of a language to another, depending on the context and scope of communication, to be able to use different methods within one language. The term "diglossia" can mean not only speaking different subcodes of the same national language, but also knowing different languages and being able to use them alternately depending on the communication situation.</p>
Lingvopersonologiya	<p>har bir til egasining o‘ziga xos shaxsiy xususiyatlari uning tilida aks etishi, va shu asnoda har bir so‘zlovchi alohida lisoniy shaxs ekanligini tadqiq etadi. SHu nuqtai nazardan, shaxs va tilning o‘zaro munosabati va ularning o‘zaro ta’siri</p>	<p>Linguopersonology is the study of how each language's unique personality traits are reflected in its language, and at the same time that each speaker is a separate linguistic entity. From this point of view, the question of the relationship between the</p>

	masalasi, inson nutqi orqali uni tushunish, his etishni o‘rganadi.	person and the language and their interaction learns to understand and feel it through human speech.
Buyuk shaxslar lingvopersonologiyasi	Evropa lingvopersonologiyasining alohida yo‘nalishi. Unda buyuk shaxslarning “lisoniy shaxsi portreti” yaratiladi va uning lisoniy xususiyatlari asosida shaxsning individual qirralari o‘rganiladi.	A special branch of European linguopersonology. It creates a "linguistic personality portrait" of great personalities and explores the individual aspects of the individual based on his or her linguistic characteristics.
Lisoniy shaxs	lingvopersonologiya yo‘nalishining asosiy tushunchalaridan biri bo‘lib, nutqni yaratuvchi, uni boshqalarga uzatuvchi va idrok etuvchi shaxsni anglatadi.	is one of the basic concepts in the field of linguopersonology, which refers to the person who creates, transmits and perceives speech.

VII. ADABIYOTLAR RO'YXATI



ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. Ilmiy-metodologik adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш.М. Буюк қелажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2017. – 488 б.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги 4947-сонли фармони.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Қадимги ёзма манбаларни сақлаш, тадқиқ ва тарғиб қилиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-2995-сонли қарори // –Тошкент, 2017йил, 24май.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгacha ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5847-сонли фармони.
5. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Махкамасининг 2019 йил 23 сентябрдаги “Олий таълим муассасалари раҳбар ва педагог кадрларининг малакасини ошириш тизимини янада такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 797-сонли қарори.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21- oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatida nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-sonli farmoni. Manba: <https://lex.uz/docs/4561730>.
7. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Махкамасининг 2020 йил 29 январдаги “Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Махкамаси хузуридаги атамалар комиссиясининг фаолиятини ташкил қилиш чоратадбирлари тўғрисида” ги 40-сонли қарори.

8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 29 октябрдаги “Илм-фани 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-6097-сонли фармони.
9. Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. 4-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2020. – 400 б.
10. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mamlakatimizda o’zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF– 6084-son farmoni // <https://lex.uz/docs/-5058351>.
11. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning Oliy Majlis va O’zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. – Toshkent, 2022-yil, 20-dekabr.

II. Maxsus adabiyotlar

12. Ахутина Т.В. Порождение речи. Нейролингвистический анализ синтаксиса. - М., МГУ, 1989.
13. Белянин В. П. Психолингвистика. Учебное пособие. –М.: Флинта, 2008.
14. Лuria A.P. Язык и сознание. - М., 1979.
15. Боймирзаева С.Ў. Ўзбек тилида матннинг коммуникатив-прагматик мазмунини шакллантирувчи категориялар: Филол. фан. д-ри ... дис. автореф.
– Тошкент: ЎзР ФА ТАИ, 2010. – 320 б.
16. Бурханов З. Ўзбек тилида кўмакчилар ва уларга вазифадош келишиклар прагматики: Филол. фан. ном. ... дис. автореф. – Тошкент: ЎзР ФА ТАИ, 2008. – 26 б.
17. Гринев-Гриневич С. В., Сорокина Э. А., Скопюк Т. Г. Основы антрополингвистики (к лингвистическим основаниям эволюции мышления):

- Учебное пособие. М., Издательский центр “Академия”, 2008. 128 с.
18. Dadaboyev H., Usmonova Sh. Xorijiy sotsiolingvistika. - Toshkent, 2014.
 19. Ибрагимова Р.С. Француз ва ўзбек тилларида АЁЛ концептининг лингвокогнитив тадқиқи: Филол. фан. ном. ... дис. автореф. – Тошкент: ЎзДЖТУ, 2012. – 24 б.
 20. Красных В.В. Этнопсихолингвистика и лингвокультурология: Курс лекций. – М.: Гнозис, 2002. – 284 с.
 21. Лурия А.Р. Основные проблемы нейролингвистики.–М.: Книжний дом “Либроком”,2009.
 22. Лутфуллаева Д. Ассоциатив тилшунослик назарияси. – Тошкент: Мериюс, 2017.
 23. Маҳмудов.Н. Тил тилсими тадқиқи. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2017. – 176 б.
 24. Попова З.Д., Стернин И.А. Когнитивная лингвистика. – М.: ACT: Восток-Запад, 2007. – 314 с.
 25. Попова З.Д., Стернин И.А. Семантико-когнитивный анализ языка.- Воронеж: Научное издание, 2007. – 250 с.
 26. Pragmatics in Language Teaching (ed. by K.R.Rose and G. Kasper).Cambridge: Cambridge Univ. Press 2001.-386 p.
 27. Сайдирахимова Н. Болалар нутқининг психолингвистик хусусиятлари. – Тошкент: ТДПУ, 2012.
 28. Салиева З.И. Концептуальная значимость и национальнокультурная специфика сентенции в английском и узбекском языках: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 2010. – 24 с.
 29. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – 91 б.

- 30.Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2008. – 285 б.
- 31.Chomsky N. New Horizons in the study of Language and Mind. – Cambridge: Cambridge Univ. Press, 2000.
32. Usmanova Sh. Lingvokulturologiya. Darslik - Toshkent, 2019. – 245 b.
- 33.Chomsky N. New Horizons in the study of Language and Mind. – Cambridge: Cambridge Univ. Press, 2000.
- 34.Фёдорова О.В. Основы экспериментальной психолингвистики. Учебное пособие. –М.: Спутник, 2008.
35. Фрумкина Р.М. Психолингвистика. - М., 2001.26.
- 36.Худойберганова Д. Лингвокультурология терминларининг қисқача изоҳли луғати. – Тошкент: Turon zamin ziyo, 2015. – 41 б.
- 37.Худойберганова Д. Матнинг антропоцентрик тадқиқи. Монография. – Тошкент: Фан, 2013. – 136 б.
- 38.Қурбонова М.А. Ўзбек болалар нутқи лексикасининг социопсихолингвистик тадқиқи: Филол. фан. ном. ... дис. автореф. – Тошкент: ЎзДЖТУ, 2009. – 25 б.
- 39.Қурбонова М. Ўзбек болалар нутқининг социопсихолингвистик тадқиқи. – Тошкент: Фан ва технология, 2014.
- 40.Ҳакимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. – Тошкент: Academnashr, 2013. – 174 б.
- 41.Hudson R.A. Sociolinguistics. - Cambridge: Cambridge Univ. Press, 2001. -279 p.

III. Elektron ta’lim resurslari

- 42.<http://lex.uz>
- 43.<http://edu.uz>
- 44.<http://ziyonet.uz>
- 45.<http://natlib.uz>
- 46.<https://articlekz.com/en/article/23255>

- 47.<http://en.wikipedia.org/wiki/Psycholinguistics>
- 48.<http://www.utexas.edu/courses/linguistics/resources/psycholing>
- 49.<http://www.psycholinguisticsarena.com>
50. <http://www.nici.kun.nl/Divisions/d1/index.html>
- 51.<http://locutus.ucr.edu>
52. <http://www.ziyo-net.uz>
53. <http://www.kutubxona.uz>



VIII. TAQRIZLAR

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi “O'zbek tili filologiyasi: o'zbek tilshunosligi” yo'nalishi kursi o'quv dasturi va o'quv uslubiy majmuasiga

TAQRIZ

Avvalo shuni alohida ta'kidlash lozimki, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tashkil qilinganidan boshlab, qator ilmiy, pedagogik yo'nalishda katta yutuq va natijalarga erishmoqda. Binobarin, pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazining aynan shu nufuzli universitet qoshida ochilishi bilan bog'liq hodisa marzakning nufuzini, Respublika miqiyosidagi darajasini belgilaydi.

“O'zbek tili va filologiyasi: o'zbek tilshunosligi” yo'nalishidagi o'quv dasturining mazmun-mundarijasi bilan tanishganda yuqoridagi e'tirofimiz haqligiga yana bir bora amin bo'ldik.

Kursning maqsad va vazifalari tadrijiy tamoyil asosida, aniq rejada o'z aksini topgan. Tinglovchi-pedagoglarning kurs yakunida egallashi lozim ko'nikma, malaka hamda kompentatsiyalari orasida jahondagi yetakchi adabiy tizim va konsepsiyalardan xabardor bo'lish, tilshunoslikning yangi sohalari, ularning nazariy-metodologik asoslarini bilish kabilarning o'rinni olgani ushbu kursning ilmiy-nazariy va amaliy salohiyati ancha shakllangani va ma'lum tajribaga egaligini ko'rsatmoqda. I-modul “Antroposentrik tilshunoslik” deb nomlangan. Modulda tilshunoslikdagi ilmiy paradigmalar, kognitiv tilshunoslik masalalari, sotsiolingvistika va uning asosiy tushunchalari, kommunikativ tilshunoslik, psixolingvistika – nutqiy faoliyat haqidagi fan sifatida, lingvokulturologiya: til va madaniyat masalalariga atroficha to'xtalingan. Yuqorida sanab o'tilgan mavzular doirasida fanning mazmuni yoritilgan.

2-modul “Neyrolingvistika” deb nomlanib, neyrolingvistika fanining maqsadi, predmeti, tilning biologik asosi haqidagi nazariyalarning shakllanishi, fonologiyaning neyrolingvistik talqini, morfologiyaning neyrolingvistik talqini, sintaksisning neyrolingvistik talqini, leksik semantika, neyrolingvistik tadqiqot metodlari: neyrotasvir metodlari, neyrolingvistik tadqiqot metodlari: bixeyvioristik metodlar haqida ma'lumotlar berilgan. Dasturda berilgan mavzular izchil va bir-birini to'ldiradigan, fan haqidagi tasavvurlarni shakllantirishga yordam bera oladigan tartibda shakllantirilgan.

“Semantikaning dolzarb muammolari” deb nomlangan 3-modul 8 bo'limdan tashkil topgan bo'lib, ushbu modulda til va tafakkur munosabati, ma'no va tushuncha munosabati, leksik ma'no va konsept masalasi, abstrakt nomlar semantikasi, fonosemantika tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishi sifatidagi ahamiyati, semantik struktura, semantik struktura xususidagi munozarali masalalar kabi mayzular berilgan. Bu mayzular o'quv uslubiy majmuada batafsil ma'lumotlar bilan boyitilgan. Mavzularda mazmuniy izchillikka alohida e'tibor qaratilgan.

O'quv kursi so'ngida amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar, shuningdek, mustaqil malaka oshirishni tashkil etish bo'yicha muhim ko'rsatma va tavsiyalar o'rinn olgan. O'quv dasturi va o'quv uslubiy majmuasini tuzishda foydalilanigan adabiyotlar ro'yxatida o'zbek olimlari qatori dunyodagi taniqli soha mutaxassislarining asarlari, shuningdek, sohaga oid internet saytlaridan foydalilanigan ham mazkur dastur va o'quv uslubiy majmuasining mukammalligini ta'minlovchi omillardandir. Xulosa qilib aytganda “O'zbek tili filologiyasi: o'zbek tilshunosligi” o'quv dasturi va o'quv uslubiy majmuasini ta'lim jarayoniga tatbiq etish mumkin.

Emek Ushenmez

Istanbul universiteti professori, filologiya fanlari doktori

